

87.7  
H-84

00/02

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHI. D. M. 4.  
09.01.2009

**B. Husanov, V. G'ulomov**

# MUOMALA MADANIYATI

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan oliy o'quv yurtlari talabalariga darslik  
sifatida tavsiya etilgan

2023555-

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT MADANIYAT IN-TI  
AXBOROT RESURS MARKAZI  
TARTIB № 10454/61

**Taqrizchilar:** **Umarov M.**- O'zbekiston Davlat San'at instituti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi;  
**Abdulla Sher-** O'zMU Falsafa fakulteti Axloqshunoslik va estetika kafedrası dotsenti

**Mas'ul muharrir:** falsafa fanlari nomzodi **A.O'tamurodov**

Husanov B.

**H84 Muomala madaniyati.** Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. O'zbekiston Milliy universiteti. — T.: «Ta'lim nashriyoti», «Iqtisod-moliya», 2009. -156 b.  
 G'ulomov V.

Mazkur darslikda muomala madaniyatining insonlararo muloqotdagi ahamiyati, uning mezonlari, shaxs kamolotidagi zaruriyati hamda milliy xususiyatlari bilan bog'liq masalalar ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, chiroyli muomalaning axloqiy fazilat sifatida shaxs kamolotiga ta'siri, uning milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimida tutgan o'rni, shakllanish tarixi hamda muomala madaniyatining etiket va taqdimot marosimi bilan bog'liq zamonaviy ko'rinishlarining nazariy va amaliy jihatlari ilmiy tahlil qilingan.

Darslik oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan pedagoglar hamda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari bilan shug'ullanuvchi jamoat birlashmalari xodimlarining faoliyatida foydalanish mumkin.

**BBK 87.7я73**

**ISBN 978-9943-13-111-8**

© «Ta'lim nashriyoti», 2009

© «Iqtisod-moliya», 2009

© B. Husanov, V. G'ulomov, 2009

## MUQADDIMA

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin dastlabki o'rtaga tashlangan eng dolzarb muammolardan biri ma'naviyat bo'ldi. Hozir ham bu muammo jamiyatimizning diqqat markazida. Zero, ma'naviyatsizlik har qanday jamiyatni tanazzulga olib borishi shubhasizdir. Shu bois «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, o'quvchi shaxsi asosida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, o'z Vatani va xalqiga sodiq fuqarolarni shakllantirishga alohida ahamiyat berilgan. Xususan, Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlarda «Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirib boriladi», -deb ko'rsatiladi<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, insoniyat tarixini axloqiy, madaniy, estetik taraqqiyotdan ayri holda tasavvur etish mumkin emas. Tarixiy tadrijiylik kasb etgan axloqiy-madaniy taraqqiyot ma'lum bir davrlarda susaydi, ba'zan ortga ham chekindi, ba'zan esa turg'unlikni boshidan kechirdi. Lekin tarix sahnasida insonparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari ustuvorligi bilan nom qozongan davrlarni olib qaraydigan bo'lsak, ularda axloqiy, madaniy, estetik taraqqiyot mavjud bo'lganligiga ishonch hosil qilish qiyin emas. Biroq aytish lozimki, mustabid tuzumlar va shaxslar keltirib chiqargan axloqiy tanazzullarning hammasi qisqa muddatli hamda o'tkinchi hodisalar bo'lib, ularning tarixiy ahamiyati muayyan muddatdan so'ng yo'qolib bordi.

---

<sup>1</sup> Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. «Sharq» nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati. 1998. 55-bet

Yurtimizdagi ijtimoiy aloqalar haqida gap borar ekan, avvalambor qadriyatlarimizni tiklash, tariximizni o'rganish, qolaversa o'zligimizni anglab yetishimiz, boshqacha aytganda, ma'naviyatimizni yuksak darajaga ko'tarish masalasiga keng jamoatchilik e'tibori qaratilgan. Zero, «Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir»<sup>1</sup> – deb aytgan edi Prezidentimiz.

Bugungi kunga kelib O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari yaratildi. Bu negizlar – umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlik singari tamoyillar asosida rivojlantirildi.

Aytish lozimki, ma'naviyat, avvalo, tildan boshlanadi. Til madaniyat bilan bevosita bog'langan, til madaniyatini esa muomala madaniyatidan ayricha tasavvur etish mumkin emas. Shu bois insonlararo muomala madaniyatini ma'naviy jarayonga daxldor hodisa desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki har qaysi inson muayyan kuch va qudratga ega bo'ladi. Muomala ham ma'naviy kuch va ma'naviy qudrat mahsuli. Bundan anglanadiki, insonning tabiatida muomala qilishga moyillik azaldan mavjud bo'lib, buni ro'yobga chiqarish insonning o'ziga bog'liq bo'lgan. Biroq ayrim hollarda inson nazarida juda kichik va maydaday ko'ringan – shirinso'zlik, xushmuomalalik, oliyjanoblik kabi fazilatlar kishilarning ma'naviy dunyosiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatishini his qilmaymiz. Ayni paytda, mahmadonalik, qo'rslik, chaqimchilik, to'poslik, yolg'onchilik kabi illatlar inson borlig'ini xunuklashtiruvchi qusurlar ekanligini chuqur anglamaymiz. Zero, insondan ma'naviyat chekinganda – tubanlashadi, tafakkurini mog'or bosganda – yovuzlashadi, shaxsiy manfaatparastligi g'olib kelganda – xoinlik qiladi.

Shukurki, xalqimiz ma'naviyati yuksak, insonlararo munosabatning go'zal an'analarga boyligi, o'zaro muloqot, maishiy turmush, so'zlashuv va muomalada yuksak qadriyatga ega bo'lgan xalqdir. O'tmishimizda insonga go'zal munosabatda bo'lish, unga chiroyli

---

<sup>1</sup> Karimov Islom. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston. 1998. 686 b. 60-bet.

so'zlar orqali murojaat etish bot-bot ta'kidlab kelingan va bu borada muomala madaniyatining go'zal va ulug'vor an'analari shakllangan. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, insonlararo muloqotda chiroyli muomalaga intilish nafaqat so'z orqali murojaat qilishda, balki yozadigan maktublarimiz, nomalarimizda ham o'z aksini topishi zarurligi xalqimizning azaldan ziyolilik, ma'rifatlilik va xushmomalaliligidan dalolat beradi. Bundan muomala nafaqat so'zda, balki inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha xatti-harakatlar uchun ham zarur ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Inson tabiatan ham, moddiy ham ma'naviy olamga daxldor bo'lgan mavjudot: u yeydi, ichadi, uxlaydi, mehnat qiladi va hokazo. Biroq bu holatlar insonning faqatgina moddiy manfaatini qondirishi uchun zarur bo'ladigan ehtiyojlardir. Lekin bular insonning mohiyati uchun yetarli emas: inson, ayni paytda, tafakkur qiluvchi, gapiruvchi, so'zlovchi, ilm oluvchi hamda bir-biri bilan aql va hissiyot asosida muloqot qiluvchi mavjudot hamdir. Ana shundan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, chiroyli so'z, shirin kalom, go'zal muomala va insoniy muloqot fuqarolik jamiyatini barpo etishda g'oyatda zarur.

«Muomala» iborasi ijtimoiy taraqqiyotning deyarli barcha sohalarida insonning kundalik faoliyatida hamda insonlararo munosabatlarga nisbatan bevosita yoki bilvosita qo'llaniladi. Masalan, iqtisodiyotda muomala – mehnat mahsulotlarini oldi-sotti vositasida ayirboshlash sifatida, huquqshunoslikda muomala – fuqaro yoki yuridik shaxsning o'z harakatlari bilan huquqqa ega bo'lish va o'zi uchun majburiyat yaratish qobiliyati sifatida ishlatiladi<sup>1</sup>. Yoki sohaga doir adabiyotlarda «muomala vaqti», «muomala xarajatlari», «muomala layoqati» kabi iboralar uchraydiki, bu shu sohaning faoliyati va harakatiga bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Muomala madaniyati ham keng ma'noda insonning butun hayoti va faoliyati davomida tarbiyalanadigan jarayon bo'lib, u oilada, jamiyatda, jamoada shakllanadi. Muomala madaniyati insonning ijodiy kuchi va aqliy qobiliyati, tafakkur salohiyati va dunyoqarashining muayyan darajasi hisoblanadi. Muomalaning

---

<sup>1</sup> Qarang: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 6-jild. T. «O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 1998. 132-bet.

«madaniyat» atamasi bilan bogʻliqligi ham uning maʼnaviy hayot sohasiga daxldorligidadir. Zero, har bir xalq oʻziga xos madaniyat yaratadi va shu madaniyat tufayli oʻzligini anglaydi, jahon taraqqiyotiga hissa qoʻshadi.

Ammo afsuslar boʻlsinki, hozirgi paytda, kundalik hayotimizda sodir boʻlayotgan oʻzgarishlarga, insonlar oʻrtasida boʻladigan muloqotlarga, soʻzlashish qoidalariga nazar tashlasak, muomala madaniyatining odob mezonlari va tarbiyaviy jarayonlardan ancha uzoqlashib ketganligini koʻramiz. Bugungi kunda yoshlarga zamonaviy texnika vositalari asosida bilimlar berilmoqda, ularning dunyoqarashini oʻstirishga doir turli tadbirlar oʻtkazilmoqda. Biroq ayni zamonda soʻzlashish odobi, muomala madaniyati, shirin-soʻzlikning xislatlari haqida berilayotgan bilimlarning samarasi kamroqday tuyulmoqda.

Mazkur darslik orqali muomala tarbiyasidagi ayrim boʻshliqlarni toʻldirish barobarida muomala madaniyatining tarixiy ildizlari, milliy va umuminsoniy xususiyatlari, anʼanaviy va zamonaviy koʻrinishlari, shaxs kamolotida tutgan oʻrni borasida ham fikr yuritiladi.

# 1-BOB. MUOMALA MADANIYATI JAMIYAT TARAQQIYOTINING MUHIM OMILIY SHARHATI

## 1.1. Muomalaning ilmiy-tadqiqot obyekti

O'zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishdan iborat o'z yo'li respublikani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishni taqozo etadi. U aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi. O'zbek xalqiga xos shirinso'zlik, xushmuomalalik, ochiq ko'ngillik, rahmdillik, soddalik va samimiylik tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori va mezoni hisoblanadi.

XXI asr bo'sag'asida an'anaviy axloq o'zgara boshladi, yangi manfaatli axloqiy me'yorlar paydo bo'lmoqda. Insonlararo munosabatlarda, kishilarning o'zaro muloqot madaniyatiga yondoshuv ham tobora zamonaviylashib bormoqda. Aytish lozimki, madaniyat tushunchalarini tahlil qilishda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar o'zaro aloqadorlikda bo'lishi va ayni anashu jarayonda o'zining takrorlanmas xususiyatlarini belgilab olishni taqozo etadi. Shu bois, madaniyat tushunchasiga nazar tashlashni maqsadga muvofiq deb bildik.

Madaniyatshunoslik fanining madaniyat haqidagi ilmiy-falsafiy ta'limot ekanligiga xos muhim xususiyati shundaki, birinchidan - bu fan o'zining predmet obektidagi u yoki bu narsa va hodisalar haqida mushohada yuritganda ma'lum bir ilmiy-amaliy ahamiyatga molik bo'lgan muayyan asosga tayanib ish ko'radi. Ikkinchidan - madaniyatshunoslik fani ham boshqa fanlar kabi o'zining tayanch nuqtalari hamda mezoniy tushunchalar tizimini shakllantira boradi. Uchinchidan - o'zining mezoniy tushunchalar tizimida o'z davri-ning dunyoqarashiga mos tajribalar, nazariy va amaliy ahamiyatga molik qarashlar hamda xulosalarni o'z yo'nalishlariga ko'ra u yoki bu kategoriyalarining mazmun-mohiyatida mujassamlashtiradi. Shunga

ko'ra, «Madaniyat falsafasi», «Muomala madaniyati», «Axloqiy madaniyat». «Estetik madaniyat» kabi ko'plab tushunchalarning ilmiy va kundalik faoliyatda qo'llanilayotganligi bejiz emas.

Shuningdek, madaniyat masalalari va muammolari yuzasidan falsafa, tarix, axloqshunoslik, estetika, siyosatshunoslik, arxeologiya, sotsiologiya, etnografiya, san'atshunoslik, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, pedagogika fanlari ham bahs va munozara yuritadi. Bugungi kunda madaniyat nazariyasi va tarixiga doir ilmiy tadqiqotlarda eng avvalo madaniyatning predmeti, obektining, maqsad va vazifalariga mantiqiylik va tarixiylik asosida yangicha munosabat bilan yondoshilmoqda. Xususan, «Falsafa fani madaniyatni ijtimoiy hodisa sifatida talqin etar ekan, o'z mushohada me'yorida madaniyatning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bog'liq holda rivojlana borishi hamda ayni ana shu taraqqiyot jarayonida madaniyatning o'rni va ahamiyatiga xos o'zaro aloqadorlik mavjudligining dialektik qonunlarini tahlil etadi»<sup>1</sup>.

Madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat odamlarni jamiyat talablari, qonun-qoidalar, odob-axloq me'yorlari asosida yashash va faoliyat ko'rsatishga, insonparvarlik, halollik, ijtimoiy adolat, umuminsoniylik g'oyalari va tamoyillariga astoydil sodiq bo'lishga yo'naltiradi. Basharti, odamlarning madaniy-ma'naviy saviyasi past bo'lsa, uning salbiy oqibatlari iqtisodiyotda ham, ijtimoiy sohalarda ham, oilada ham jamoada ham kishilarning o'zaro munosabatlari, odob-axloqi, turmush tarzlari va yurish-turishlarida ham, albatta, seziladi. Muomala madaniyati shakllanmagan (shakllangan bo'lsa ham zaif va nochor bo'lgan) joyda odamlardan mehr-oqibat ko'tarila boshlaydi, haqiqiy insoniy munosabatlarga putur etadi. Bu borada O'rta asr Musulmon Sharqining buyuk allomasi Abu Homid Muhammad G'azzoliy «Ixyoi ulumid din» («Diniy ilmlarning tiriltirilishi») deb nomlangan asarining «Dil ajoyibotlarining sharhi» bo'limida «Muomala dilning haqiqat mohiyatini emas, balki sifat ahvolini tanishga muhtojdir» deya ta'kidlaydi<sup>2</sup>. Jahon falsafasining tarkibiy qismi bo'lgan Sharq falsafasida insonda ikki qarama-qarshi asos, modda (jism) va ruh mavjudligi alohida ta'kidlanishini ko'rsatib,

---

<sup>1</sup> Qarang: Bozorov S. Madaniyat tushunchasini shakllantirishning dolzarb ma'alalari. Qarshi. «Nasaf» nashriyoti. 2003. 9-bet.

<sup>2</sup> Abu Homid Muhammad al-G'azzoliy // Yoshlik. 1990. №6.



akademik J.Tulenov deydiki, «Ana shu ikki asos inson vujudida mutanosib bo'lishi, biri ustuvorlik qilib, boshqasi orqasida ketmasligi kerak. Agar shu tartib buzilib, moddiylik ruhdan ustun kelib, ruh jism quliga aylanib, unga xizmat qilgudek bo'lsa, unda inson amaliy faoliyatida salbiy holatlar avj olib, ijobiy fazilatlar keyinga surilib tashlanadi. Ruhiy, ma'naviy jihat insonni inson qiladigan, uning hayotini go'zallashtiradigan fazilatlardandir»<sup>1</sup>.

Muomala jarayonini ilmiy tushunishga doir masalalar ko'proq madaniyat tarixiga doir manbalarda o'z aksini topgan. Ma'lumki, shaxslararo muomala o'z-o'zicha yuzaga kelmagan, insonlar hali mustaqil shaxs sifatida bir-birlaridan farqlanmas edi. Qadimgi davrda inson e'tibori tabiatga qaratilgan bo'lib, ibtidoiy san'atning bosh qahramoni inson emas, balki hayvonlar hisoblangan.

«Muomala» tushunchasini shakllanish tarixi qadimgi Misr, qadimgi Hindiston va asosan antik davrlarga borib taqaladi. Antik davrlarda shaxslararo aloqalar umumfalsafiy tizim sifatida mutafakkirlarning qarashlari bilan qo'shilib ketgan edi. Xususan. Demokrit falsafani o'ziga xos muomala san'ati, yaxshi gapirish, yaxshi xulq, yaxshi xatti-harakatni ifodalagan hayot san'ati sifatida tushungan. Suqrot va Aflotun esa falsafani teng huquqli muloqot, o'zaro suhbat, o'zini va boshqalarni tushunishni ifodalagan suhbat, haqiqatni anglash sifatida tushunishgan. Arastu birinchi bo'lib, san'at, madaniyat tizimining paydo bo'lishida asos bo'lib hisoblanadigan «muomala» iborasini iste'molga kiritdi.

Buddaviylikda muomala madaniyati insonni o'z-o'zini anglashda chuqur tahlil qilingan sof insoniy mohiyatga hamda haqiqiy ilohiylikni izlashga tayanadi. Bu yo'nalishda muhim qadam nasroniylik dini tomonidan tashlandi lesak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki Iso alayhissalomning insonlar bilan o'zaro aloqasi insoniy muomala axloqiy mazmunining badiiy tahlili asosida keng quloch yozdi. Biroq bunda insoniy muomala maqsad emas, balki insonga Xudo bilan muomala qilish imkonini ta'minlovchi vosita sifatida munosabat bildirildi. Islomda muomala madaniyatining o'ziga xos jihati shaxslar

---

<sup>1</sup> Tulenov J. Falsafiy madaniyat va ma'naviy kamolot. T.: Mehnat, 2000. 215-bet.

o'rtasida bo'lganidek, insonlar botinan Oллоhga itoat qilishda sadoqatli bo'lish shariatning axloqiy qonunlariga singdirilgan.

Uyg'onish davri inson borlig'ini tasavvur qilishda o'ziga xos davr hisoblanadi. Muomalani yangicha talqini Renessans davri dunyoqarashining insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilganligini ifodalaydi va, ayni paytda, bu jarayon badiiy jihatdan keng quloch yoydi: Bokkachcho, Petrarka, Shekspir, Leonardo da Vinchi va boshqa mutafakkir san'atkorlarning asarlari jahon madaniyati tarixining ma'naviy xazinasidan joy oldi. Biroq bu davrda insonning tabiatga munosabati ijtimoiy ong markazida saqlanib qoldi va insonning inson bilan muomalasi konsepsiyasiga o'tish jarayoni tugal bartaraf qilinmagan edi.

Ma'rifatparvarlik davriga kelib, ijtimoiy tafakkurda tub buri-lish yasaldi, ya'ni insonga va uni tushunishga bo'lgan munosabat o'zgardi. Bunda asosiy og'irlik tabiatdan insonga, ontologiya va gnoseologiyadan antropologiya va pedagogika zimmasiga tushdi.

Olmon mumtoz falsafasi insonning o'z-o'zini anglash nazariyasi tarixining butun bir davrini boshlab berdi. Bu davrga kelib, muomalaning asosiy tushunchalari subyektning boshqa subyektlar bilan o'zaro aloqadorligi g'oyasi hamda "Men" va "Sen" o'rtasidagi munosabat nazariyasi ishlab chiqildi.

Ijtimoiy hayotni erkinlashtirish sharoitlarida individualizmning kollektivizm o'rnida e'lon qilinishida insoniy muomala qo'yidagi jihatlarda o'z ifodasini topdi. Birinchidan, «individual reduksiya», ya'ni «Men» va «Sen» (bu erda subyekt faqat shaxs sifatidagi «Men» tarzida tushuniladi) individlariga munosabatning muomala asosida. Ikkinchidan, «psixologik reduksiya», ya'ni «Men» va «Sen»ning sof ma'naviy aloqasiga muomala asosida. Uchinchidan, «axloqiy reduksiya», ya'ni «Men» va «Sen» hamda «Men» va «Ular» o'rtasidagi sof axloqiy munosabatlarga muomala asosida.

Muomala masalasi ijtimoiy-gumanitar, texnik, tabiiy va boshqa fanlar tomonidan o'rganila boshlandi. Bu borada insonlarning murakkabliklari va ko'p obrazli muomala olami obekt bo'lib hisoblanadigan yangi ixtisoslashgan fan – sotsionika paydo bo'ldi. Bugungi kunda zamonaviy fanda «muomala»ning yuzdan ortiq tushunchalari mavjud. Natijada insoniy muomala turlicha tushunila boshlandi va turli xil tavsiflandi. Bular: a) ijtimoiy munosabatlar

sifatida; b) aloqa va o'zaro ta'sir sifatida; v) ikki yoki undan ortiq individning ma'naviy aloqasi sifatida; d) faoliyat sifatida.

Shu ma'noda muomala — insonlar o'rtasidagi aloqalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi hamda ularning hayot faoliyatidagi ehtiyojning murakkab jarayoni bo'lib, o'zga kishilar bilan ma'lumot almashish, ularni tushunish va idrok etishning hamkorlikdagi strategiyasidir. Bu muammoning obekti — ideal ruhiy voqelikdir. Bu erda gap inson tafakkurining aqliy, hissiy va ixtiyoriy paydo bo'lishi hamda uning ruhiyatini ongosti jarayonlarida yuzaga kelishi haqida ketayapti. Uning predmeti esa insonlarning muomalasi va faoliyatining ruhiy va axloqiy tarafi hamda turli xil vazifada faoliyat yurituvchi insonlar guruhining o'ziga xos ruhiy jarayonlari hisoblanadi.

Ish jarayonida bo'lgan muomala psixologiyasi — psixologiya fanlarining tashkiliy qismi bo'lib, bu umumiy psixologiya tomonidan ishlab chiqiladigan tamoyillar va kategorial tushunchalariga tayanadi. Ma'lumki, umumiy psixologiyaning asosiy kategoriyalari - psixik jarayonlar (anglash, hissiyot, ixtiyor)ni, inson ruhiyatining xususiyati (qobiliyat, fe'l-atvor, temperament) va shuningdek, inson ongining paydo bo'lishi (shubha, ishonchsizlik, iqror, ma'lum bir faoliyatga yo'nalganlik)ni ifodalovchi tushunchalardan iborat. Shu ma'noda umumiy psixologiya va uning sohalari amal qiladigan muhim tamoyillar qo'yidagilardan iborat:

- determinizm, sababiylik tamoyili, ya'ni ruhiy hodisalarning bir-birini taqozo qilishi va ularnig o'zaro aloqadorligini e'tirof etish;
- tizimlilik tamoyili, ya'ni butun ruhiy birlashmalarning asosi sifatidagi alohida ruhiy voqelik;
- rivojlanish tamoyili, ruhiy jarayonlarning o'zgarishi, ularning ko'rsatkichini bir darajadan boshqasiga o'tishi.

Albatta, ish jarayonida amalga oshiriladigan muomala odobi va psixologiyasida mavhum umumpsixologik kategoriyalar va tamoyillar haqida gap ketganda, kasb psixologiyasiga doir bilimlar ham nazarda tutiladi. Ishbilarmonlik tushunchasi deganda biror kishining umumiy ishida muvoffaqiyatni ta'minlash, insonlar o'rtasida o'zaro hamkorlik uchun sharoit yaratish, ularning maqsadini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan muomala tushuniladi. Ish jarayonida rahbar bilan xodimlar hamda raqobatchilar o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish va rivojlantirishga ishbilarmon muomalasi bevo-

sita ta'sir ko'rsatadi. Shuning barobarida, ishbiarmon bu jarayonda o'zining va jamoasining manfaatlarini qondiradigan tadbirlardan unumli foydalanishga harakat qiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, «Muomala madaniyati» fanining asosiy kategoriyasi shaxs va uning ruhiyati bilan belgilanadi. Busiz inson resurslarini boshqarishning zamonaviy usullariga ega bo'lolmaymiz. Aynan shaxs psixologiyasini bilish tadbirkor, ishbiarmon rahbar uchun o'zining hamkori to'g'risida batafsil ma'lumotlarni beradi. Boshqacha aytganda, bu bilimlar kishilar bilan insoniy munosabatlarning qanchalik darajada ta'sirchan bo'lishini aniqlaydi.

Lekin shaxsning holati va xususiyati shaxslararo munosabatlari jarayonidagi «Men-Sen», «Men-Biz», «Biz-Ular» formulasi asosida yuzaga keladi. Agar faylasuflar ta'biriga ko'ra, muomala inson rivojining muhim zaminlardan biri hisoblansa, menejmentning zamonaviy nazariyotchilari fikri bo'yicha muomalaning yuqori darajasi – kelishuvni omadli yakunlanishining hal etuvchi sharoitdir. Biroq bunday muomalani ta'minlash uchun rahbar muomalaning psixologik mashg'ulotlarga tayanadigan texnologiyalaridan foydalana olishi lozim. Shuni nazarda tutish kerakki, muomala jarayonida hamkorlar o'rtasida munozarali holatlar ham yuzaga kelishi mumkin: o'rinsiz gap, qo'pol muomala zaruriy ma'lumotdan bebahra qiladi. Bunday holat yuzaga kelmasligi uchun muomalani yo'lga qo'yishning ayrim texnologiyalaridan foydalanishni o'rganish zarur. Psixologiyaga doir fanlar (muloqot psixologiyasi, muomala psixologiyasi, shaxs psixologiyasi kabi fanlar) muomalaning turli shakllarini ta'minlash bo'yicha aniq tavsiyalarga egadir.

Ishbiarmon muomala odobi va psixologiyasining muhim kategoriyasi ishchi guruh psixologiyasi hisoblanadi. Zero, ish jarayonining faolligi jamoaning birlashuviga bog'liq. Shuni ta'kidlash o'rinliki, muvoffaqiyatli kooperatsiya mehnat jarayonining barcha a'zolariga umumiy bo'lgan axloq qoidalarini qabul qilishdagina mumkin bo'la oladi. Shu bois istalgan guruhning faoliyati va shakllanish jarayonida maqsad, ehtiyoj, manfaat, me'yorlar, axloqiy-psixologik muhit, korporativ axloq va boshqa shu kabi hodisalarning ustuvorligi seziladi. Zamonaviy menejer bu kabi psixologik omillar bilan hisoblashishga majbur.

Shaxs psixologiyasi ishchi guruhning kasbiy odob mezonlariga tayangan holda, o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita asosiy masalani hal etadi:

Birinchisi - psixologik diagnostika usullarini o'zlashtirish, bunda ishlab chiqarish faoliyati subyektlarining psixologik holatini tasvirlash usullaridan foydalana bilish. Ikkinchisi - psixologik holatlarni o'zgartirishdagi yangi jihatlarni o'rganish va bunga ko'nikma hosil qilish.

XX asrda real tarixiy sharoit hayotda bozor iqtisodiyotining g'oyaviy-axloqiy imkoniyatlarni rivojlantirish g'oyasini amalga oshirishni vujudga keltirdi. Yangi jamiyat qurish, demokratik huquqiy davlat tuzish, iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazish maqsadida davlatlar o'ziga xos va mos yo'ldan bormoqdalar. Sobiq Sho'rolar tuzumining uzoq davom etgan turg'unlik va inqiroz sharoitlarida odamlarning yalpi tafakkur ijtimoiy psixologiyaning deyarli qarama-qarshi ko'rinishlari shakllandi. Xususiy mulk va uning egalariga hasad ko'zi bilan qarash, boqimandalik kayfiyatining kuchayishi, xo'jalik va ijtimoiy-siyosiy sohalaridagi ijodiy tashabbuslarning imkoniyatlarini tushunishda begonalashuv hamda hayotga ishonchsizlik o'sib bordi.

Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng ma'naviy hayotimizni yuksaltirish, milliy ongimizni, siyosiy saviyamizni oshirish, milliy mafkura va tafakkurni takomillashtirish borasida qilingan ishlar, eng muhimi odamlar dunyoqarashida, tafakkurida ro'y berayotgan o'zgarishlarni erishgan eng katta yutuqlarimiz sirasiga kiritish mumkin.

Shuni nazarda tutish lozimki, ijtimoiy munosabatlarning boshqa shakllaridan farqli o'laroq, bozor munosabatlariga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy tizim hayotga nisbatan shaxsiy dunyoqarash va tasavvur bilan munosabatda bo'lishga intilishni vujudga keltiradi. Ma'lumki, bunday munosabat aksariyat holatlarda insonlarni bir-biridan ajratadi, ularda yolg'izlik va qo'rqinch tuyg'usini kuchaytiradi. Iqtisodiy jihatdan yuksak taraqqiy etgan davlatlarda o'tkazilgan ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bozor iqtisodiyoti stixiyali tarzda aholining ko'pchilik qismida ruhiy zo'riqish va vahimani paydo qilayotganligi kuzatilgan. Qolaversa, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarnig aholi o'rtasida o'z joniga qasd qilish holatlari ko'plab uchramoqda. Biroq O'zbekistonda barpo

etilayotgan bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning bozor munosabatlarida o'ziga xos va mosligi bilan ajralib turadi. "Bozor iqtisodiyotini barpo etish — shunchaki bir maqsad emas, - deb ta'kidlagan edi Islom Karimov, - Barcha iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning pirovard maqsadlarining o'zi, bu avvalo inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratishdir"<sup>1</sup>. Shu bois mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar strategiyasini amalga oshirishda ta'lim va madaniyatni rivojlantirish hamda isloh qilish, aqliy va ma'naviy salohiyatni mustahkamlash, aholini ijtimoiy himoya qilish kabi masalalar uzluksiz ustuvor yo'nalish qilib belgilangan. Ayniqsa, aqliy va madaniy salohiyatni rivojlantirish tamoyili xalqimizning o'zini ozod va erkin deb his etishi, muhtojlik va qaramlik iskanjalaridan xalos bo'lganligini chinakamiga anglash tuyg'ularini shakllantiradi va mustahkamlaydi. Shunda ish jarayonidagi muomala odobi ham, muomala madaniyati ham iqtisodiy o'zgarishlarning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi.

## 1.2. Muomala madaniyatining asosiy tushunchalari va tuzilishi

Muomala shaxslararo munosabatning shunday ko'rinishiki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan axloqiy, estetik, madaniy, siyosiy va ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, ta'sir o'tkazadilar va ta'sirlanadilar. Shu boisdan muomala ijtimoiy kategoriya sifatida turmushning barcha sohalarida qo'llanish mohiyatiga ko'ra bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi.

Dastlab «muomala» va «aloqa-kommunikatsiya» tushunchalarining o'xshash tomonlarini aniqlab olish lozim. Aloqa-kommunikatsiya - yalpi aloqaning bir turi bo'lib, yo'naltirilgan aloqa deb yuritiladi. U mohiyatan ma'lum bir hodisa haqidagi ma'lumotni boshqalarga uzatadi. Masalan, ommaviy axborot vositalarida ko'rsatuv uchun yo'naltirilgan ma'lumotlarda muomala aloqa-kommunikatsiya vositasi vazifasini bajaradi. Boshqacha qilib aytgan-

---

<sup>1</sup> Karimov Islom. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.: O'zbekiston, 1996. 14 b.

da, bunday holatda muomala, eng avvalo, subyekt-obekt munosabati sifatida namoyon bo'ladi.

Muomala jarayoni ikki taraflama xarakterga ega: u o'z mohiyatiga ko'ra axborot yoki ma'lumotlarni shunchaki uzatish va qabul qilishga qaraganda keng qamrovli bo'lib, ikki yoki undan ortiq insonlarning o'zaro ta'sirining murakkab tizimi hisoblanadi. Shunga ko'ra muomala aktiv bir insonning boshqa inson(lar) bilan muomalaga kirishib, unda o'zining o'xshash xususiyatlarni topa olishi, ularga munosib javob qaytarishi, ular bilan o'zaro muloqotda optimal darajaga erishsagina o'zining muomala jarayonidagi munosib o'rniga ega bo'ladi. Bunday holatda muomala, eng avvalo, subyekt-subyektga munosabati tarzida ko'zga tashlanadi.

Lekin shuni ta'kidlash lozimki, ko'pgina ilmiy-ommabop adabiyotlarda mualliflar «muomala» va «kommunikatsiya» tushunchalarini sinonim tarzida ishlatadilar. Aytish mumkinki, muomala jarayon sifatida tugal natijani obektiv ehtiyojlar, aniq manfaatlar, maqsadlar, tuzilmalar, vositalar, muomala texnikasi nuqtai-nazaridan ko'rib chiqadi. U paydo bo'lgandan boshlab ilmiy tavsiflanadigan qator daraja va bosqichlardan o'tib kelgan.

Eng Yangi davr ruhiy tahlil yo'nalishining namoyandalaridan Erix Fromm 5 ta muhim fundamental ehtiyojni ko'rsatadi: 1. «Insoniy aloqalar»dagi ehtiyoj — «biz» tuyg'usidagi ehtiyoj. 2. «O'z-o'zini tasdiqlash», o'zining manfaati uchun ahamiyatli bo'lgan ehtiyoj. 3. Ko'ngil bog'lash, iliq munosabatlar va muhabbat ehtiyoji. 4. «O'z-o'zini anglash» ehtiyoji. 5. E'tiqod obekti (biror-bir ilohiy mavjudot, ilohiy kishi, ilohiy narsalarga)ga ehtiyoj.

Shuningdek, muomala hamkorlik faoliyatining muhim omili ekanini alohida ta'kidlash lozim. Muomalaning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalaridagi hamkorligi ikkala tomonning manfaatiga asoslanadi. Shunday bo'lgan taqdirdagina, muloqot samarali yakunlanishi mumkin. Bu borada mamlakat Prezidentlarining davlatlararo har tomonlama shartnomani imzolash uchun olib boradigan muloqotlari yuqoridagi fikrlarga misol bo'ladi. Ma'lumki, davlat rahbarlarining xorijiy davlatlarga tashrifi mas'uliyatli hamda o'ta qizg'in tarzda amalga oshiriladi. Qiziqarli bo'lishi uchun davlatimiz rahbari Islom Karimovning 1993-yil AQShga tashrifi doirasidagi kun tartibidan o'rin egallagan quyidagi muloqotlarni e'tiboringizga havola qilamiz:

*Nyu-York. 1993 yil 27 sentyabr.*

Soat 7.15. AQShning sobiq davlat kotibi Genri Kessinjerning uyiga jo'nash.

Soat 7.30. Doktor Kessinjer bilan shaxsiy muloqot.

8.00 - 9.30. "Riverklub"da doktor Kessinjer hamda yirik biznesmenlar, amerikaning taniqli jurnal va gazetalari muxbirlari bilan ish ustida nonushta.

9.30 - 9.55. Qarorgohga qaytish.

10.00 - 10.40. Ishbilarmon doiralarning vakillari bilan uchrashuv.

10.45 - 11.25. "Dj. P.Morgan» banki shtab-kvartirasiga jo'nash.

13.15 - 15.00. BMT Bosh kotibi tomonidan davlat rahbarlarining sharafiga o'tkazilgan uchrashuvda ishtirok etish.

15.00 - 15.30. Qarorgohga qaytish.

16.00. - 16.45. Hujjatlarni ko'rib chiqish, navbatdagi uchrashuvga va ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish.

17.00 - 17.40. AQShda yashayotgan vatandoshlarimiz bilan uchrashuv.

17.45 - 18.15. Dam olish.

18.15 - 18.40. AQSh Prezidenti Bill Klintonning taklifiga binoan «Uoldorf Astoriya» mehmonxonasida bo'ladigan qabul marosimiga jo'nash.

18.45. - 19.30. AQSh Prezidenti nomidan o'tkaziladigan qabulda ishtirok etish.

19.30 - 19.55. Qarorgohga qaytish.

20.00 - 21.30. AQShdagi yirik kompaniyalarning rahbarlari va ishbilarmon doiralar vakillari tomonidan O'zbekiston Prezidenti sharafiga o'tkaziladigan qabulda ishtirok etish.

21.30 - 22.30. Bo'lib o'tgan muloqot natijalarini xulosalash va keyingi kunga tayyorgarlik ko'rish.

Ko'rinib turibdiki, Prezidentimizning bir kunlik kun tartibidagi belgilangan masalalar nihoyatda mas'uliyatli va bir daqiqasi bejiz sarflanmaydigan qat'iy vaqtga asoslangan. Bu davlatlararo munosabatlarda xalq, yurt, Vatan manfaatini o'ylab muzokara olib boruvchi rahbarimizning muloqot jarayonidagi o'ziga xos faoliyatidan dalolatdir. Aksincha, munosabat, muzokara va muloqot to'g'ri yo'lga qo'yilmagan holatda esa aloqalar uzilishi oson kechadi. Aynihisa, insonning boshqa odamlar bilan muomalaga kirishuvda shaxsning fazilatlari va kommunikativ xususiyatlari jamoadagi kishilarning



muloqotiga, faoliyatning tavsiflariga, ularning turli xil fazilatlariga muhim ta'sir o'tkazildi. ||

Shunday holatlar ham bo'ladiki, muloqot jarayonlarida hamkorlarning o'zaro muloqotida umumiy manfaatlar kuzatilmaydi, shu bilan birga, bu holat hamkorlikning uzilishiga ham olib kelmaydi. Bunday holat siyosiy, iqtisodiy soha vakillarining o'zaro kuzatuvchi va ekspert sifatida ishtirok etgan uchrashuvlarda kuzatiladi, <sup>1</sup> Psixolog olim E.G'oziyev muomala tuzilmasi to'g'risidagi tadqiqotlarida muomalaning quyidagilardan tarkib topganligini ko'rsatadi:

1. Kommunikativ (bir tomonlama) axborot uzatish.
2. Interaktiv (ikki tomonlama o'zaro ta'sir).
3. Perseptiv (o'zaro bir-birini idrok qilish).

Jumladan, muomalaning birinchi tomonida - tilga va uning amaliy ifodasi bo'lmish nutq faoliyatiga bevosita murojaat qiladilar. Muomalaning ikkinchi tomoni - muloqotga kirishuvchilarning o'zaro ta'siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so'z orqali fikr almashinuvi, balki xatti-harakati va xulq-atvori bilan o'zaro ta'sir o'tkazish, ta'sirlanishdan iborat. Muomalaning uchinchi tomonida - muloqotga kirishuvchilar o'zaro bir-birlarini idrok qilish jarayoni namoyon bo'ladi, insonni inson tomonidan idrok qilish yuzaga keladi!

Shuni alohida qayd etib o'tish zarurki, muloqot jarayonining stixiyali va anglanmaganlik davrida natija ikkiyoqlama bo'lishi mumkin: muloqot yakun topishi (Masalan, «Bizning aloqalarimiz va munosabatimiz tasodif natijasida bog'langan edi. Yana shunday tasodif bilan munosabatimiz tez ajraladi») yohud ichki ta'sir natijasida yuzaga kelgan muloqot jarayonida uning keyingi bosqichlarda ham davom etishi mumkin. Agar muloqot harqaror bo'lsa, u holda hamkorlarda aniq maqsadlar puyti bo'ladi: turli axborotlarni uzatish; bilim va tajriba almashish; bir-birlarini tanib olishga erishish; harakatlar birligiga erishish kuzatiladi.

Muomalaning yuqorida qayd etilgan tuzilmasi a'lohida ko'rib o'tish maqsadga muvofiq.

Kommunikativ (umumiy bajarayapman, bog'layapman, umumlashtirayapman). Bunda insonlar o'zaro turli xil birlashuvlar, g'oyalar,

<sup>1</sup> G'oziyev E. Muomala psixologiyasi. T.: Universitet, 2001. 55 b.

manfaatlar, kayfiyatlar, tuyg'ular, yo'nalishlar va hokazo munosabat orqali fikr almashadilar. Insoniy muloqot sharoitida axborot va ma'lumotlar nafaqat uzatiladi, balki shakllanadi, aniqlanadi va rivojlanadi ham. Bunda kommunikativ jarayonning har bir a'zosi o'zi bilan hamkorlik qilayotganning ham faolligini ko'zlaydi. Hamkor ishtirokchi subyekt sifatida qo'yiladi. Shu bois unga axborot uzatish jarayonida manfaati, maqsadi va xohishini inobatga olish maqsadga muvofiq.<sup>1</sup> Lekin muloqotning bu ko'rinishida qiyinchiliklar yuzaga kelish, turli to'siqlar paydo bo'lish ehtimolini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

<sup>1</sup> Interaktiv - (o'zaro ta'sir) muloqot odamlar o'zaro ta'sirlanishi jaryonida nafaqat axborot almashinuvini, balki harakatlar almashinuvini yo'lga qo'yish, umumiy faoliyatni rejalashtirish ham muhim sanaladi. Muloqot sharoitida anglanadigan jarayonlarni faollashtirishda qarama-qarshi fikrlar va qarshiliklarga duch kelish natijasida paydo bo'ladigan muammoli holatlar muhim sharoit bo'lib hisoblanadi. Qo'shimcha axborot va ma'lumotlarga ehtiyoj kuchayib boradigan ko'ptomonlama uyg'unlik yuzaga keladi. Bu qo'shimcha faoliyat qatnashchilarining o'zaro ta'siri tezligini oshishiga olib keladi.

Perseptivlik - (qabul qilish) muloqot jarayoni qatnashchilari o'rtasida bir-birlarini tushunish va bir-birlariga tushuntira olish g'oyatda muhim. Bir-birlarini tushunishning o'zi turlicha talqin etilishi mumkin: hamkorning xohishi, maqsadini tushunish va ularni motivlarini to'g'ri yo'naltira bilish.

Muloqot odamlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va o'zaro tushunishning murakkab ijtimoiy-psixologik jarayoni sifatida turli xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Jumladan, verbal muloqot (belgili tizimlardan nutqda foydalanish) va nonverbal muloqot (turli xil nutqiy belgili tizimlardan foydalanish)ni farqlash qabul qilingan.

Verbal muloqot - bu tabiiy tovush nutqidir. Nutq muloqotning eng universal vositasi hisoblanadi. U, ayni paytda ham, axborot manbai sifatida hamda suhbatdoshga ta'sir etish vositasi sifatida ham yuzaga keladi. Aytish mumkinki, nutqiy muloqot o'ziga xos san'atdir.

Noverbal muloqot vositalariga - optiko-kinetik (imo-ishora, mimika, pantomimo), paralingvistik (ovoz, uning diapazoni, ovoz toni), ekstralingvistik (to'xtab tin olish, yo'tal, yig'i, kulgi, nutq maromi), proksemika (muloqotning makon va zamonda joylashuvi),

vizual muloqot (ko'z bilan aloqa qilish), hidlarni bilish kabi vositalar kiradi. Bu vositalar muloqotda katta yordamchi kuch bo'lib nafaqat verbal ta'sirni kuchaytirish yoki kamaytirish mumkin, balki muloqotning barcha noverbal muloqot jarayonida ishtirok etayotganning istak-xohishi sifatidagi muhim jihatlarni ko'rsatishga yordam beradi.

Har qanday ijtimoiy faoliyat kabi muloqot ham o'zining muayyan sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lib, ular fikrlar va tuyg'ular olamiga kirib borish asosida yuzaga keladi. Bu ko'rsatkichlar ularni yuzaga keltiradigan asosiy sohalaridan mustaqil tarzda guruhlashtiriladi. Bular: a) individual-shaxsiy; b) sotsial-psixologik; v) predmetli-amaliy. Muloqotdan ta'sirlanish jarayonida yuqoridagi ko'rsatkichlar bir-biri bilan bevosita bog'lanadi.

Yuqoridagilarni xulosa qilgan holda, quyidagi muomala turlarining xossalarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq:

1. Zamon va makondagi muloqot kontakt va distant muomalaga bo'linadi. Kontakt muloqotda hamkor-suhbatdosh yonimizda bo'ladi va u bilan bevosita va bilvosita muloqot o'rnatishimiz, imo-ishoralar va turli xil harakatlar orqali bir-birimizga murojaat qilishimiz mumkin. Masalan, yonimizdagi do'stimizni imlab chaqiramiz, rozi yoki noroziligimiz ifodasini labimizni burib, boshimizni qimirlatib bildiramiz va h.k.

2. Biror-bir muloqotni bilvosita amalga oshirish. Bevosita muloqot bu – odatdagi suhbat, so'zlashuv, doklad va h.k. Bilvosita muloqot turlariga telefonda gaplashish, xat orqali murojaat qilish, axborotni radiodan, televideniedan hamda kitob orqali uzatish kabilar kiradi. Aynan bilvosita muloqot rivoji hayotda juda ko'p o'zgarish va yangiliklarni taqazo qiladi.

3. «Men» - gapiruvchi va «Sen» - tinglovchi ko'rinishidagi dialog-monolog muloqot. Dialog «men» va «sen» rollarining almashinuvini ifodalaydi. Dialog muloqotdagi savol-javobning qisqaligi, aniqligi va tuzilishiga ko'ra oddiyligi bilan tavsiflanadi. Fikrimizga Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidagi “Chin o'rtoq» bo'limidan olingan Muhammad Rajabbek bilan Anvar o'rtasidagi mana bu dialog misol bo'ladi:

“Anvar uch haftagacha xatmi Qur'on kechalari Muhammad Rajabbek uyiga kelib turar edi. Oxirgi xatmi Qur'on kechasi Muhammad Rajabbek Anvardan ahvol so'radi:

- Domlangiz salomatmi?
- Shukur.
- O'qishingiz yaxshimi?
- Birmuncha.
- Domlanning uyida turasizmi?
- Taqsir.
- Siqilmaysizmi?
- Yo'q.
- Ilmi hisob o'qiganingiz bormi?
- Yo'q, taqsir.
- Domlangiz ilmu hisobni bilurmikin?
- Bilmaslar deb o'ylayman.
- Agar men bir domla tayin qilsam, hisob o'qiysizmi?
- Ustozim ruxsat bersalar, albatta, o'qiyman.
- Xo'p...bo'lmasa erta kechga domlangiz shu erga kelib, menga uchrashsin!
- Xo'p, taqsir!"<sup>1</sup>

4. Shxslararo ommaviy muloqot. «1-1» va «1- bir nechta»ning muloqotlari shaxslararo muloqotga, «1-ko'p» muloqoti esa ommaviy muloqotga olib keladi. Ommaviy muloqotning matbuot, radio, televideniya kabi vositalari turli janrlardagi matnlar hamda reklama roliklarida «suhbat» tomoshabinlar bilan «sen» orqali kechadi. Masalan, reklamalardagi «chanqog'ingga ishon», «sening ishonchli hamkoring», «qo'shiq kodini yozib ol» kabi murojaatlar shular jumlasidandir. Ommaviy muloqot bu - ochiq chiqish, ma'ruza, doklad, davlat rahbarining murojaatnomasi, tashqi ishlar vazirli-gining bayonoti va hokazolardan iborat. Omaaviy muloqot matnini tuzishda leksik va grammatik qoidalarga jiddiy e'tibor qilish zarur.

Xususiy-rasmiy muloqot. Xususiydan farqli o'laroq, rasmiy muloqot matni ko'pginastreotip xususiyatlarga ega. Masalan. ikki tomonlama kelishuv va bitimlar, diplomatik hujjatlar va bayon-nomalar, shartnoma va boshqa shu kabi rasmiy qog'ozlar matni rasmiy muloqot turiga misol bo'ladi. Bunda so'zlashuv-nutqining loyihasi va leksikasi asosiy o'rin tutadi.

Yuqoridagilar asosida muomala madaniyatining modelini quyidagi ssenogramma asosida ko'rsatish mumkin:

---

<sup>1</sup> Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. T.: O'qituvchi, 1997. 44 b.

## MUOMALA MADANIYATI MODELI

**Konkret vaziyat o'z-o'zini ifoda etishning sharti va mezonlari:**

*Insayt vaziyati*

*Frustratsiya vaziyati*

*Noaniqlik vaziyati*

*Baholash vaziyatining muvoffaqiyatiga bog'liq*

*Vaziyatda o'ziga tanlash (o'zining harokatlarini tanlash yoki ulardan voz kechish)*

*O'z-o'zini ifoda etish salohiyati*

*Muomalada, o'z-o'zini ifoda etishda madaniyatini yo'lga qo'yish (tashqi ko'rinish madaniyati, hayot tarzi, maishiy madaniyat)*

*Individ o'zini o'zi baholaydi*

Boshqalar ishtirok etadigan  
vaziyatlar

Boshqalar bilan bo'ladigan  
vaziyatlarda o'zini tanlash

## MUOMALA MADANIYATI

- Muomalada o'zini tanlash
- Muomala vaziyatlarini tanlash
- Muomalada boshqalarni tanlash

**O'z-galar dunyosi**

**O'z-o'zini ifoda etish  
shartlari**

**Individ boshqalar tomonidan  
baholanadi**

Biz yuqorida muomalaning axloqiy, siyosiy, psixologik xususiyatlarini ko'rib o'tdik va bu borada qisman mulohaza yuritishga harakat qildik. Binobarin, muomalaning mohiyati, ko'rinishlari, tuzilishi va o'zaro ta'sir o'tkazish omillariga doir fikrlarimizni keyingi boblarda atroflicha tahlil qilishga harakat qilamiz.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Muomalaning tadqiqot obektini ko'rsating?
2. Madaniyatshunoslikning ilmiy-falsafiy xususiyati nimada?
3. Muomala jarayonini ilmiy tushunishga doir masalalarni ayting?
4. Muomala tushunchasining shakllanish tarixini izohlang?
5. Aloqa-kommunikatsiya tushunchalarining o'xshash tomonlarini aniqlang?
6. Muomala hamkorlik faoliyatining muhim omili ekanligi nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Muomala tuzilmasini sharhlang?
8. Muomala turlari xossalari ko'rsating?

### **Amaliy mashg'ulot savollari:**

1. Muomalaning ilmiy tadqiqot obekti.
2. Madaniyatshunoslik – ilmiy falsafiy ta'limot sifatida.
3. Muomala madaniyati va shaxs kamoloti.
4. Muomala tushunchasining shakllanish tarixi.
5. Ishbilarmon muomala odobi psixologiyasi.
6. Muomala madaniyatining asosiy tushunchasi.
7. Muomala tuzilmasi.
8. Muomala madaniyati modeli.

## 2-BOB. MUOMALA MADANIYATI VA INSON FE'L-ATVORI

### 2.1. Axloqiy me'yorlar muomala madaniyatining asosi sifatida

Inson hayotida axloqiy me'yorlarning ahamiyati katta. Faylasuf olim Abdulla Sher «Axloqshunoslik» kitobida muhim axloqiy me'yorlarni ko'rsatib, ular axloqiy tamoyillarga nisbatan ancha sodda, umumlashmagan, tor qamrovli ekanligini, axloqiy me'yorlarni kundalik hayotimizda ma'lum axloqiy tamoyillarning amalga oshish murvatlari ham deyish mumkinligi, ular axloqiy talablarning eng oddiy shakli sifatida ro'yobga chiqishini ta'kidlaydi<sup>1</sup>.

Muomala madaniyatida xushfe'llik, xushmuomalalik, hayoibolilik, beozorlik, shirinso'zlik, ochiqko'ngillik singari axloqiy me'yorlar muhim sanaladi. Biz shulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Xushfe'llik. Ushbu axloqiy xatti-harakat me'yoriylik nuqtai-nazaridan g'oyat muhim. Chunki har bir jamiyat darajasi ma'lum ma'noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining yuksakligi bilan ham belgilanadi. Zero, xushfe'l, shirinsuxan inson o'zining har bir muvoffaqiyatsizligiga fojea sifatida qaramaydi, alam yoki g'azab bilan yomon kayfiyatini boshqalarga o'tkazishga intilmaydi. Atrofdagi axloqiy muhitni buzmaydi. Natijada o'ziga ham, o'zgalarga ham ko'tarinki kayfiyat, turli-tuman omadsizliklarning o'tkinchiligini anglatuvchi hayotbaxsh bir umid bag'ishlaydi. Xalq doimo shunday odamlarni hurmat qiladi va ulardan o'rnak olishga intiladi.

Xushfe'llik, shirinsuxanlik qay darajadadir ko'proq ixtiyor bilan, kishining ma'lum bir insoniy tabiatga intilishi bilan bog'liq bo'lsa, bosiqlik, kamtarlik, kamsuqumlik, aksincha, ko'proq iroda kuchi natijasida yuzaga keladi. Zotan, insonning o'z g'azabini bosa bilishi,

---

<sup>1</sup> Qarang: Abdulla Sher. Axloqshunoslik. T.: Yangi asr avlodi, 2004. 168 b.

noroziligini bildirmasligi; soʻzlagisi, biror-bir gap bilan oʻzini koʻrsatgisi kelib qolganda, oʻsha istakni toʻxtata olishi kuchli irodani talab qiladi. Shu bois muomalada bosiq, kamtarin (yetti oʻlchab bir kesish) tamoyili asosida ish koʻrgan shaxslar oqil odamlar sanaladi va ular jamiyatda ham namunaviylik maqomiga ega boʻladilar.)

Xushmuomalalik. Muomalaning asosiy manbaini soʻz tashkil etishi barchamizga maʼlum. Shuningdek, soʻz insonning botinidan chiqishi, inson botindan chiqadigan soʻzga egalik qila olishini ham bilamiz. Biroq tashqariga chiqqan soʻz insonning oʻzini qulga aylantirib qoʻyishini doim ham bilavermaymiz. Yaʼni, ogʻizdan chiqqan yaxshi-yomon soʻz bevosita insonning ruhiyatiga oʻrnashadi: yaxshi soʻz bilan muomala qilinsa — yaxshilik topiladi, yomon soʻz bilan muomala qilinsa — yomonlik.

(Xushmuomalalik ijtimoiy ahamiyatiga koʻra xushfeʼllikka nisbatan kengqamrovliroqdir. U insonning ham xatti-harakati, ham muloqoti natijasida vujudga keladi. Xushmuomalalik oʻz ichiga tavoze-lik, takalluf kabi sifatlarni qamrab oladi.)

Shuningdek, xushmuomalalik qatʼiy tartibga asoslangan axloqiy meʼyor hisoblanadi: u oʻzgani ranjitmaslik, birovga yomon soʻz aytmaslik, bahs-munozaraga kirishganda muxolifni hurmat qilish, qoʻrslik va chapanilikdan xoli boʻlish hamda suhbatlashganda ehtiroslarga berilmaslikni talab etadi.)

(Hayo-ibolilik. Hondamir, Vosifiy va boshqa allomalarning asarlaridan bilamizki, Navoiy gʻoyat tabiati nozik, pok, xushxulq va oʻta nazokatli kishilarni yaxshi koʻrgan, oʻzi ham juda noziktabiati inson sifatida nom qozongan. Shu sababli u «Mahbubul qulub»dagi «tanbeh»larida hayo, beozorlik sifatlariga alohida urgʻu berib taʼriflaydi. Vafo va xayoni uygʻunlikda koʻrgan shoir «vafosizda hayo yoʻq, hayosizda vafo yoʻq» deb taʼkidlaydi. Chunki maʼrifatli, komil insonlar xayoli va vafodor kishilardir. Vafosizning jabri qancha boʻlsa, hayosizning shallaqiligi, betga choparligi, beandishaligi ham shuncha ozor keltiradi; shoir buni oʻzi boshidan oʻtkazgan: «Zamon ahli bevovaligʻdin koʻksungma tugunlar va davron xayoli behayoligʻidin bagʻrimda tikanlar... har qaysigʻa raqam uray desam Ayyub sabri anga vafo etmas va qalam suray desam Nuh umrida tamomgʻa yetmas». Shoir alam bilan yozgan:)

*Yo marhamat ul xayli sitamkoraga bergil,  
Yo sabru tahammul meni bechora bergil.*



(Muloyimlik. Muloyimlik barcha mutafakkirlar nazarida kishining maqbul sifatlaridan biri, deb e'tirof etiladi. Muomala madaniyatida muloyimlik «hilmli», «yumshoq tabiatli» degan tushunchalar bilan bir ma'noni anglatadi. Bu fazilat achchig'lanmaydigan, ehtiyotkor, so'zini o'ylab gapiradigan kishilarga nisbatan ishlatiladi.)

(Beozorlik. Insonlarning tabiatidagi xusumat, adovat, g'azab kabi illatlar bu kabi odamlardan xoli. Ular barcha mas'uliyatni o'z zimmalariga olsalar-da bировga yomonlikni ravo ko'rmaydilar, og'irliklarini o'zgalarning zimmasiga yuklamaydilar. Beozor kishilar matonatli bo'la turib, o'zidan o'jiz kishilarga qahr bilan muomala qilmaydilar.)

Umuman olganda, axloqiy me'yorlarning muomala madaniyatidagi ko'rinishlari talaygina. Biz shulardan ayrimlarigagina to'xtalib o'tdik, xolos. Xulosa qilsak, agar axloqshunoslikning mezoniy tushunchalari bir-biriga bog'liq bo'lsa, axloqiy tamoyillarning bog'liqligi yanada mustahkamroq- ular biridan ikkinchisiga o'tib turish xususiyatiga ega; axloqiy me'yorlar bir-biri bilan shu darajada chambarchaski, ba'zan birini ikkinchisidan ajratish qiyin, zero ular xulq va odob doirasidagi axloqiy amaliyotlardir.

## **2.2. Muomalada yuzaga keladigan ziddiyatlar va inson fe'l-atvori**

Taraqqiyot ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va bartaraf qilinishi jarayonidan iborat. Shunga ko'ra, ziddiyatlarning ko'rinishi ham har xil bo'lib, ular narsa-hodisalarning harakati va rivojlanishida turlicha ahamiyat kasb etadi. Ziddiyatlar ichki, tashqi, asosiy, asosiy bo'lmagan kabi ko'rinishlarga bo'linadi. Jumladan, ichki ziddiyatlar – narsa va hodisalardagi ichki jarayonlarning ifodasi, harakatlanishning manbai hamda rivojlanishning asosiy sababidir. Tashqi ziddiyat - narsa va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarning ifodasi hisoblanadi. Jamiyat rivojlanishining mazmuni va mohiyati ham asosan ichki ziddiyatlarning hal qilinishi bilan belgilanadi. Biroq rivojlanishda tashqi ziddiyatlarning ishtiroki kamroq bo'ladi, degan fikrga bormaslik kerak. (Zero, globallashuv va integratsiya jarayonlarida tashqi ziddiyatlarning ham o'z o'rnini bor). Narsa-hodisalarning mohiyatini, holatini, kelib chiqish va rivojlanish qonuniyatlarini belgilovchi ziddiyatlar esa asosiy ziddiyatlar deb ataladi. Asosiy

ziddiyatlar taraqqiyotda belgilovchi (boshqaruvchilik) vazifani bajaradi va barcha boshqa ziddiyatlarga ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatdagi ziddiyatlar turli shakl va usullar bilan bartaraf qilinadi. Ulardan ba'zilar eskining yemirilishi va yangining vujudga kelishi asosida hal qilib borilsa, boshqalari shu ziddiyatni tashkil qilgan qarama-qarshi tomonlarni o'zaro kelishtirish, murosaya-yu madoraga keltirish, hamjihatlik va hamkorlikka erishish yo'li orqali hal qilinishi mumkin. Keyingi vaqtda jamiyatdagi ziddiyatlarni hal qilishda qo'llanilayotgan samarali tamoyillardan biri o'zaro kelishuv, murosaya-yu madora tamoyilidir.

Ziddiyatlarning turklarini bir-biridan farqlash kerak, biroq ular o'rtasida chegara qo'yib bo'lmaydi: voqelikda ular o'zaro chirmashib ketadi va bir-biriga o'tib turadi. Shuning uchun ziddiyatlarning har biriga aniq yondashish, ziddiyat namoyon bo'ladigan sharoitni, muhitni, vaziyatni to'g'ri aniqlash lozim.

Ziddiyat qonunlariga mantiqiy nuqtai-nazaridan yondashsak, unda ikki qarama-qarshi fikr ayni bir vaqtda va ayni bir nisbatda to'g'ri bo'lishi mumkin emasligini kuzatamiz. "Ziddiyat qonuni tafakkur rivojida qarama-qarshi fikrlar to'qnashuvini inkor etmasdan, bir vaqtning o'zida bir predmet haqida ikki zid fikrga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi, ya'ni vaqt, predmet, nisbat jihatdan birlikni nazarda tutadi"<sup>1</sup>. Masalan, yaxshilik va ezgulik tushunchalari o'rtasidagi munosabatda ziddiyat unsurlari ko'rinmaydi, ular bir-birini doimo to'ldirib boradi. Lekin ikkala tushuncha ham axloqning ijobiy sifatleri hisoblansada, yaxshilik bu ezgulik darajasidagi tushuncha emas. Ziddiyat shundaki, axloqshunoslik – etika faniga doir rus tilidagi adabiyotlarda ezgulik tushunchasi bilan yaxshilik tushunchasi aynanlashtirib yuborilgan. Yaxshilik ma'lum bir paytda muayyan kishilar uchun ijobiy xususiyat kasb etadi, ayrim kishilar uchun yomonlik bo'lib xizmat qiladi va salbiy holatlarni vujudga keltiradi. Ezgulik esa mutlaqo ijobiylikka asoslanadi.

Har birimiz ziddiyatli holatlarga duch kelganmiz. Ziddiyatlar ijtimoiy guruh va institutlarning barchasida hamda insonlararo munosabatlarda uchrab turadi. Buning ajablanadigan joyi yo'q. Shuni

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 5-tom. T.: «O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 9 b.

aytish kerakki, har qanday dahoning tug‘ilishi va shakllanishi ziddiyatlarsiz kechmaydi. Masalan, olmon faylasufi Fridrix Nitsshe hayoti davomida bunday ziddiyatlarga juda ko‘p duch keldi. Xususan, Germaniya ilmiy jamoatchiligi Nitshening ilk davr filologik tadqiqotlarini ancha-muncha hurkib-cho‘chib, yuragi orqaga tortib qarshi oldi. Chunki uning favqulodda o‘tkir, serhayqiriq, fantaziya jo‘sh urgan asarlarini to‘g‘ri baholashga hamma ham birday qodir emas edi. Nitshening «Bemavrid mulohazalar» degan to‘rt kitobdan iborat asari Germaniyanigina emas, butun Evropani zabt etdi. Unda fikrlar va original qarashlar dunyosi xuddi Somon yo‘lidek jimirlab ochildi. Evropada yangi tafakkur fenomeni yuzaga kelganligidan darak berdi. Bu asarning birinchi – uchinchi kitoblari ustida Evropada bahs qizigandan qizidi. “Nitshening ko‘p kuchli g‘oyalari qo‘shilolmagan va ularni «hazm qilolmagan» Vagner va ustoz Richl bilan yosh mutafakkir o‘rtasida ixtiloflar chiqdi. Oralari uzilish darajasiga yetdi”<sup>1</sup>...

Amerikalik psixolog B.Vul aytganidek, “Hayot cheksiz ziddiyatlarni hal etish jarayoni. Inson ularni chetlab o‘ta olmaydi, faqatgina ularni hal etishi yoki uni bartaraf qilishning o‘zgacha usulini tanlaydi”. Shuning uchun har bir rahbar ularning paydo bo‘lishi va hal etish yo‘llarini bilishi lozim. Afsuski, ko‘pchilik odamlar mazkur holatlarda odilona yo‘l topa olmaydilar, ziddiyatlarni chetlab o‘tishga harakat qiladilar. Ziddiyatlarni chetlab o‘tish ziddiyatni bartaraf qilish degani emas. Bundan tashqari, ziddiyatli vaziyatning vujudga kelishi jamiyat va inson uchun ham moddiy ham ma‘naviy zararni olib keladi.

Ziddiyat tushunchasi barcha sohalarda, barcha jarayonlarda yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, ziddiyat psixologiyada - bir-biriga qarama qarshi fikrlarning alohida individlar, guruhlar hamda shaxslararo munosabatlaridagi ruhiy kechinmalar bilan bog‘liq hodisalar deb ta’riflanadi. Ziddiyat mantiqda – muhokama yuritishda, matnda va nazariyada biri ikkinchisini inkor etadigan ikki mulohazaning mavjudligi tushuniladi. Ziddiyat dialektikada – predmet va hodisalarga

---

<sup>1</sup> Iqtibos Ibrohim G‘afurovning “Hayo – xaloskor (1-kitob) kitobidan olindi. T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2006. 354 b.

obektiv ravishda xos bo'lgan bir butunning qarama-qarshi tomonlari, belgilari, yo'nalishlari o'rtasidagi muhim munosabatlardan iborat. Ziddiyat badiiy asarda turkum qahramonlarning intilish va holatlaridan, alohida qahramonlar to'qnashuvidan, shuningdek, aniq bir qahramonning o'zida kechadigan psixik holatda maydonga keladi. Shuning uchun ziddiyat hayotdagi real qarama-qarshiliklarning badiiy ifodasidir. Asarda esa u syujetni harakatga soluvchi kuch, rivoj beruvchi asosdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ziddiyat muomalada - insonlar o'rtasidagi muloqotlarda — so'zlashish, fikr almashish, muzokara olib borish, bahslashishda biri ikkinchisini inkor etadigan ikkita muomala natijasida vujudga keladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ziddiyatli vaziyatlar asosida alohida shaxslar va guruhlarining qarama-qarshi fikrlari, maqsadlari hamda shu maqsadlarga erishishning vositalari yotadi. Ijtimoiy psixologiya ziddiyatlarning manbaiga qarab, uning bir necha turlarga ajratadi. Masalan, ziddiyat ichki-shaxsiy (rahbar bilan xodim o'rtasida) shaxs-tashkilot (shaxslar, guruhlar va tashkilot o'rtasida) bo'lishi mumkin. Shuningdek, ziddiyatlarning gorizontaal tasnifi ham mavjud (bir—biriga bo'ysinmaydigan xodimlar o'rtasida), vertikal (bir-biriga bo'ysinuvchi xodimlar o'rtasida) va aralash turdagi ziddiyatlar ham mavjud. Kundalik hayotda vertikal va aralash turdagi ziddiyatlar uchrab turadi. Agar bunday ziddiyatlar jamoada 70-80%ni tashkil etsa, bu rahbar uchun xavfli hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda rahbarning har qanday harakatlari ziddiyatlar prizmasi orqali olib qaraladi.

Muomala madaniyatida ziddiyatlar anglashilmovchilik, bir-birini tushunmaslik hamda o'zaro manfaatlar to'qnashuvi natijasida kelib chiqadi. Shuningdek, ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarning xususiyatlariga qarab tavsiflash mumkin. R.L.Krichevskiy o'zining «Agar siz rahbarsiz» kitobida ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni 3 ta guruhga bo'ladi:

*Birinchi guruh* — mehnat jarayonidagi ziddiyatlar.

*Ikkinchi guruh* — insonlararo munosabatlarning psixologik xususiyatlari, ya'ni simpatiya va antipatiya, madaniy-etnik xilmaxillik, rahbar xatti-harakatlari, psixologik moslasha olmaslik va hokazo.

*Uchinchi guruh* — jamoa a'zolarining o'ziga xosligi. Masalan, o'zini boshqara olmaslik, ehtirolarga berilish, tajovuz, do'q-po'pisa, haqoratlash-so'kinish, munosabatga kirisha olmaslik<sup>1</sup>.

Ziddiyatlar ma'muriy tashkilotlar va ishlab chiqarish korxonalarini uchun ahamiyati va hal etish yo'llariga ko'ra farqlanadi va umumiy ma'noda konstruktiv va destruktiv ziddiyatlarga ajraladi. Konstruktiv ziddiyatlarga tashkilotning hayotiy muammolarini hamda ularni hal etish orqali samarali taraqqiyotga olib chiqish xos. Destruktiv ziddiyatlar salbiy, vayronkor natijalarga olib keladi. Shuningdek, ayrim hollarda bu vaziyat janjallarga va tashkilot faoliyatini susayishiga olib keladi.

Bu borada respublikamizning turli korxonalarida "Muomala madaniyati"ga doir o'qigan ma'ruzalarimiz asosida 110 ta rahbar xodimlar orasida o'tkazilgan so'rovnomalari natijalari quyidagi jadvallarda o'z aksini topgan:

*1.1-jadval*

**Rahbar xodimlarning o'z tashkilot va korxonalarda muomala madaniyatiga bo'lgan munosabatlari (foiz hisobida)**

<i>Siz rahbarlik qilayotgan tashkilotda muomala madaniyatiga qay darajada e'tibor qaratiladi?</i>	<i>%</i>
Bu masalaga bizning tashkilotda katta e'tibor beriladi	14,29
Muomala madaniyatiga amal qilmaslik jamoamizdagi muhitni tez-tez taranglashtirib turadi	14,29
Rahbar sifatida qo'l ostimdagilardan bir-birlariga va tashqaridan kelganlarga xushmuomala bo'lishlarini talab qilaman	57,14
Javob berishga qiynalaman	14,29

*1.2-jadval*

**Rahbar xodimlarning muomala madaniyatiga amal qilmaydigan xodimlarga bo'lgan munosabatlari (foiz hisobida)**

<i>Qo'l ostingizda ishlovchi muomala madaniyatiga amal qilmasa Siz rahbar sifatida unga:</i>	<i>%</i>
Qattiq tanbeh beraman va tartibga chaqiraman	85.71
Biizning jamoada bunday insonga o'rin yo'q	14.29

<sup>1</sup> Кричевский Р.Л. Если вы — руководитель. М.: Дело, 1993.

## 1.3-jadval

**Rahbarlarning xodimlar muomalalariga nisbatan o'z munosabatlari haqidagi fikrlari (foiz hisobida)**

<i>Xodimlaringizni muomalangizga bergan baholari siz uchun qanday ahamiyatga ega?</i>	<i>%</i>
Men uchun juda muhim	42,86
Meni qiziqtirmaydi	14,29
Xodimlarning bergan bahosini chuqur tahlil qilaman	42,86

## 1.4-jadval

**Rahbarlarning xodimlar bilan munosabatlari darajasi to'g'risidagi fikrlari (foiz hisobida)**

<i>Siz rahbar sifatida xodimlaringiz bilan munosabatingizni qay darajada qo'ygansiz?</i>	<i>%</i>
Xodimlarim bilan juda kam suhbatlashaman	14,29
Xodimlarim bilan doimo suhbatlashaman, jamoadagi muhit, kamchiliklar va muammolar bilan qiziqaman	71,43
Xodimlarim bilan samimiy munosabatni yo'lga qo'rganman	14,29

## 1.5-jadval

**Ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar to'g'risidagi rahbarlarning fikrlari (foiz hisobida)**

<i>Ushbu holatlardan qaysi biri ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin?</i>	<i>%</i>
Qo'pol muomala	42.86
Layoqatsizlik	14.29
Dangasalik	14.29
Mas'uliyatsizlik	28.57

**Rahbar xodimlarning tanqidga nisbatan munosabatlari  
(foiz hisobida)**

<i>Tanqidga munosabatingiz?</i>	<i>%</i>
Har qanday tanqidni ko'tara olmayman, xodimni "joyiga" qo'yib qo'yaman	14,29
Tanqid asosli bo'lsa uni qabul qilaman	71,43
Tanqid kelajakning mevasi deb hisoblayman	14,29

**Rahbarlarning xodimlarga nisbatan haqorat qo'llash to'g'risidagi fikrlari  
(foiz hisobida)**

<i>Faoliyatingizda xodimlaringizni haqoratlaganmisiz?</i>	<i>%</i>
Ha	14,29
Yo'q	28,57
Lozim bo'lsa haqoratlayman	28,57
Sabr kosam to'lib ketsa, baqirishim mumkin	28,57

**Rahbarlarning xodimga nisbatan tanbehi uning ishidan ketishiga sabab bo'lishi yoki bo'lmasligi to'g'risidagi fikrlari  
(foiz hisobida)**

<i>Ish faoliyatingizda Siz bergan tanbeh orqali xodimingizni ishdan ketgan holatlari bo'lganmi?</i>	<i>%</i>
Hech qachon bo'lmagan	57,14
Gohida bo'lib turgan	28,57
Ish men uchun birlamchi ahamiyatga ega	14,29

**Rahbar xodimlarni muomalaning ahamiyati to'g'risidagi fikrlari  
(foiz hisobida)**

<i>Qanday holat bo'lishidan qat'iy nazar, Siz jamoada muomalaning birlamchi ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etasizmi?</i>	<i>%</i>
Bu men uchun muhim emas	28,57%
Qattiqqo'llik va yana qattiqqo'llik	28,57%
Muomala qilib ko'zlangan maqsadga erishgan emasman	14,29%
Javob berishim qiyin	28,57%

Bundan tashqari, quyidagi savollar ishlab chiqarish korxonasi rahbarining xodim bilan munosabatida yuzaga keluvchi ziddiyatli holatlarni oydinlashtirish uchun yo'naltirilgan edi:

1. *Savol*: “Agar xodimingiz kamchilikka yo'l qo'ysa, uning xushmuomalaligi siz bilan bo'ladigan ziddiyatni yumshata oladimi?”  
*Javob*: «Ha”.

2. *Savol*: “Deylik xodimingiz o'z ishini yaxshi biladigan tashkilotchi. Biroq uning muomalasi yomon. Siz bunday xodim bilan qanday munosabat o'rnatgan bo'lardingiz?”  
*Javob*: “Avvalo tartibga chaqiraman, natija bo'lmasa, chora ko'raman”.

3. *Savol*: “Rahbarlik qilayotgan korxonangizda muomala madaniyatini mustahkamlashga doir qanday ishlarni amalga oshirgansiz?”  
*Javob*: «Odob-axloqqa oid ko'rgazmali stendlar tayyorlatganman. Xodimlarimning barcha tadbirlarini o'zim bosh bo'lib o'tkazaman. Ranjitilgan biror xodimni e'tibordan chetda qoldirmayman”.

4. *Savol*: “Muomala madaniyatidagi eng asosiy xususiyatni nimada deb hisoblaysiz?”  
*Javob*: «Insonga bo'lgan e'tiborda, deb bilaman».

5. *Savol*: “Rahbar sifatida kadrlarni tanlashda shaxsning qanday xususiyatlarini birlamchi deb hisoblaysiz?”  
*Javob*: “To'g'riso'zligini va samimiyligini».

6. *Savol*: “Rahbar sifatida so'zning qadri nimada deb bilasiz?”  
*Javob*: «Xodimga o'z fikrimni tushuntira olsam, shu gapimning qadri hisoblanadi».



**Ziddiyatlarning bosqichlari.** Ziddiyatlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, umumiy o'tish bosqichlariga ega:

1-bosqich - qarama-qarshi manfaatlar, qadriyatlar va me'yorlarning salohiyatli shakllanishi;

2-bosqich - potensial ziddiyatlardan real holatga o'tish;

3-bosqich - ziddiyatli xatti-harakatlar;

4-bosqich - ziddiyatning hal bo'lishi.

**Ziddiyat tuzilmasi.** Har bir ziddiyat aniq tuzilmaga ega. Har qanday ziddiyatda ziddiyatning obekti mavjud bo'lib, u tashkiliy yoki texnologik hamda mehnat haqini to'lash, tomonlarning shaxsiy yoki ishbilarmonlik xususiyati bilan bog'liq. Ziddiyatning keyingi elementi, maqsadi, ishtirokchilarning subyektiv motivlari, ularning moddiy, ma'naviy qarashlari bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Shuningdek, ziddiyat opponentlar, aniq shaxslar mavjudligini ham e'tirof etadi. Shu bilan birga, ziddiyatda bahona va asl sababni ajrata olish nihoyatda muhim.

Rahbar-amaliyotchi har doim shuni esdan chiqarmasligi lozimki, ziddiyatning mazkur elementlari mavjud ekan, ularni bartaraf etish mushkuldir. Ziddiyatni kuch ishlatish yoki murosaga keltirishga harakat, boshqa insonlarni mazkur jarayonga qo'shilishi ziddiyatni yanada keskinlashtirib, vaziyatni murakkablashtiradi. Demak, ziddiyatni, hech bo'lmaganda, bir unsurini yo'qotishga erishish lozim.

Mutaxassislar tomonidan insonlarning ziddiyatli vaziyatlardagi xatti-harakatlari, hal etish yo'llari ishlab chiqilgan. Avvalambor, insonning muomala jarayonidagi ziddiyatli vaziyatini olib qaraylik. Yuqoridagi bo'limlarda aytganimizdek, insonlarning o'zaro munosabatidagi muomala jarayoni uch amalni taqozo etadi. Bular - idrok etish, hissiyotlar, axborot almashinuvchi. Ziddiyatli vaziyatlarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi asosni ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq.

**Ijtimoiy-psixologik asoslar.** Bu boradagi dastlabki qiyinchilik sizning qarashlaringizning boshqalar fikriga mos kelmasligida ko'rinadi. Insonlar xohlagan narsalarini ko'rishni istaydilar. Istagan dalillardan faqatgina o'zimizga keraklisini olib, qolganlarini xato deb o'ylaymiz. Lekin, ayni paytda, boshqaning fikrini tushuna olish unga qo'shilish degani emas. Bunday holatlar ziddiyatni kamaytirishi mumkin. Shuningdek, ikkinchi tomonning fikr-mulohazalarini salbiy

jihatdan talqin etish kerak emas. Chunki bu holat ziddiyatni yanada kuchaytiradi. Odatda bunday holatlarda bizga nisbatan aytilgan salbiy fikr o'rnini bosishni istab, shu kabi javob beramiz. Shu bilan birga, berilgan javob undanda kuchliroq bo'lishi kerak, deb o'ylaymiz. Murosaga borish, hazil-mutoyiba, mag'lub bo'lgan vaziyat haqida eslatib turish ziddiyatli vaziyat uchun asosdir.

Muomala jarayonida yuzaga keladigan ziddiyatlardagi keyingi muammo shundaki, insonlar muomalada bo'lib, ba'zida bir-birlarini umuman tushunmaydilar, hattoki raqibingiz aniq, lo'nda gapirsa ham. Sizingcha, insonlar go'yoki sizni eshitmayotgandek. Xuddi shuningdek, ayrim hollarda siz ham ularni tinglamaysiz.

Muomala jarayonidagi qiyinchiliklarni inobatga olib, E. Melburd, V. Zigert va L. Longe tomonidan insonning ziddiyatli vaziyatlarda xatti-harakatlarini psixologik standart bilan mos ravishdagi modeli ishlab chiqildi<sup>1</sup>. Bu borada ziddiyatni konstruktiv hal etish quyidagi omillarga bog'liq:

- ziddiyatni adekvat tarzda idrok etish, ya'ni shaxsiy kechinmalarsiz ikkala tomonni ham to'g'ri baholay olish;
- muomalaning samimiyligi va samaradorligi, muammoni har tomonlama echimini topish, ziddiyatlarda xolislikka amal qilish;
- o'zaro ishonch va hamkorlik muhitini yaratish. Rahbarning ziddiyatlarni vujudga keltiruvchi individual xususiyatlarni bilishi muhim ahamiyatga ega.

Psixologlarning bu boradagi tadqiqotlarini umumlishtirib quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmaslik, mazkur holatda atrofdagilarning to'g'ri fikrlariga zid kelib, ziddiyat uchun zamin yaratiladi;
- ustunlik qilishga intilish;
- o'z fikriga sodiqlik tufayli yangiliklardan voz kechish;
- fikrlarni bayon etishda ortiqcha to'g'rilik, haqiqatni ayta olishi;
- qat'iylik;
- shaxs emotsional yig'indisi — bezovtalik, darg'azablik, qaysarlik.

---

<sup>1</sup> Qarang: Zigert В., Ланг Л. Руководить без конфликтов. М.: Экономика, 1990.

Ziddiyatlar yuqoridagi holatlar bilan birga ziddiyatga moyillik tufayli ham vujudga keladi. Shaxslararo va ijtimoiy psixologik munosabatlarda fikrlarning bir-biriga mos kelmasligi shular jumlasidandir. Masalan, ma'lum bir shart-sharoitlarda faoliyat olib boruvchi turli temperamentdagi insonlarni olib ko'raylik. Odatiy muhitda xalerik va flegmatik temperamentli kishilar ishni samarali bajaradilar (flegmatikning favqulodda mulohazakorligi va xalerikning shiddat bilan harakat qilishi).

Shuningdek, ko'p hollarda shaxslararo ziddiyatlarning asosini manfaatlar va maqsadlar egallaydi. Masalan, korxonada rahbari ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish va ish samaradorligini oshirishdan manfaatdor bo'lsa, xodimlarni esa ko'proq oylik maosh qiziqtiradi. Bunday holat ham ziddiyatni vujudga keltiradi. Aksariyat hollarda ziddiyat shaxsning imkoniyatlariga nisbatan qo'yilgan yuqori talablar tufayli vujudga keladi.

Real hayotda ziddiyatning asosiy sababini bilishning K. Tomas va R. Klimens tomonidan ishlab chiqilgan ziddiyatli vaziyatlarda o'zini boshqarish va ulardan chiqish yo'llari strategiyasi bilan tanishish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tadqiqotchilar ziddiyatlarda o'zini boshqarishning quyidagi usullarini ko'rsatadilar:

Raqobatchilik.

Hamkorlik.

Murosa (kompromiss).

Moslashish.

Chekinish.

Ularning fikricha, u yoki bu ziddiyatli vaziyatda boshqarish usuli sizning manfaatlaringizga hamda faol yoki sust ishtirok etishingizga bog'liq. Mazkur usullarni maqsadga muvofiq ravishda ishlatish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni havola etamiz:

**Raqobatchilik usuli.** Mazkur usul eng tipik holat hisoblanadi. Ma'lumotlarga qaraganda, ziddiyatlarda o'z manfaatlarini 70% qondirish, g'olib bo'lish hisoblanadi. Bunda raqib tomonga bosim o'tkazish vujudga keladi. Uni kuchli irodaga ega bo'lgan shaxsgina bajarishi mumkin. Bu usuldan o'z fikri va kuchiga ishongan hamda ziddiyat natijasi muhim bo'lgan insongina foydalana oladi. Buning uchun shaxs: a) imkoniyatlari keng, hokimiyat egasi, e'tiborli kishi bo'lishi va tanlagan yo'li to'g'ri ekanligiga ishonishi lozim. b) boshqa yo'l yo'qligiga ishonch hosil qilish. v) mazkur yo'lni tanlash uchun

etarli imkoniyatlarga ega bo'lish. g) avtoritarlikni ma'qul ko'ruvchi xodimlar bilan ishlashi kerak.

Shuni unutmash kerakki, bu usul kamdan-kam hollarda uzoq muddatli natijalarni olib keladi, chunki mag'lub tomon sizning xatti-harakatingizni yoqlamasligi mumkin. Bundan tashqari, bugun mag'lub tomon ertaga siz bilan hamkorlikdan voz kechishi mumkin. Bu usulni yaqin hamkorlik va shaxsiy munosabatlar mustahkam bo'lgan holatlar uchun qo'llash maqsadga muvofiq emas. Shuningdek, mazkur usuldan hokimiyatga ega bo'lmagan taqdirda ham qo'llamaslik kerak.

**Hamkorlik usuli.** Bu usullarning ichidagi eng murakkabi va eng samaralisidir. Bu usulning afzal tomoni shundaki, ikkala tomon uchun ham murosali echim topilish ehtimoldan xoli emas. Mazkur usul ziddiyatni hal etish uchun ziddiyatning barcha a'zolarining ishtirok etishini talab etadi. Bu kabi yondashuv ish va shaxsiy hayotda omadga olib keladi. Bu usulni boshlashdan avval quyidagi so'zlarni aytish maqsadga muvofiq: "Men ikkalamiz uchun adolatli yo'lni tanlamoqchiman", "Ikkalamiz nimani xohlashimizni bilib olaylik", "Men muammoni echish uchun keldim" kabilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ikkala tomonning g'olib bo'lishi qabul qilingan qarorlarning ijrosini muvoffaqqiyatli garovidir. Biroq bu uslub o'z qarashlari va fikrlarini izohlab berish hamda ikkinchi tomonni tinglay olish qobiliyatini talab qiladi. Mazkur usulni quyidagi ziddiyatli vaziyatlarda qo'llash mumkin:

- muammoning echimi muhim bo'lib, murosaga yo'l qolmagan vaziyatlarda;

- ziddiyatli tomon bilan uzoq muddatli aloqalar o'rnatish ko'zlanganda;

- asosiy maqsad o'zaro tajribaga ega bo'lish bo'lganda;

- fikrlarning integratsiyasi zarur bo'lsa hamda xodimlar shu jarayonga jalb etilsa.

**Murosa usuli.** Murosa usulining asosiy maqsadi ikkala tomonni o'zaro kelishuvga keltirish hisoblanadi. Shu ma'noda bu usul hamkorlikka o'xshab ketadi, biroq ancha yuzaki amalga oshiriladi. Bu usul tomonlarning manfaati mos kelib, buni qanday hal etishida juda samaralidir. Murosa kelishuvni amalga oshirishda ma'lum ma'noda ko'nikma bo'lishi lozim, har bir a'zo nimagadir erishishi zarur. Mazkur usulning kamchiligi shundaki, birinchi tomon ikkinchi

tomonga nisbatan o'z imkoniyatlarini oshirib yuborsa, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Murosa usulini quyidagi ziddiyatli vaziyatlarda qo'llash mumkin:

- ikkala tomon ham birday imkoniyatlarga ega bo'lsa;
- bir tomonning ehtiyojlarini qondirish mumkin bo'lsa;
- aniq qaror qabul qilinguniga qadar vaqtinchalik murosa yo'lini tanlash.

***Chekinish usuli.*** Bu usul, asosan, tomonlarning to'g'ridan-to'g'ri manfaatlariga zid kelmasa, yoki muammo unchalik muhim bo'lmasa, ziddiyatning keskinlashuviga ta'sir etmasa, yoki tomonlar muammoni hal etish uchun o'z kuchlarini sarflashni istamagan hollarda o'zining samarasini beradi. Shuningdek, bu usuldan tomonlar teng kuchga ega bo'lmagan holda foydalanishlari mumkin. Aks holda, aloqalar uzilishi mumkin. Ziddiyatli tomon bu usuldan agarda:

- ziddiyat manbai asossiz va muhim bo'lmasa;
- o'z manfaatiga hal eta olmasligini bilsa;
- muammoni yechish uchun yetarli kuchga ega bo'lmasa;
- qo'shimcha axborotga ega bo'lish uchun vaqtdan yutishni istasa;
- zudlik bilan masalani hal etish xavfli bo'lsa;
- hodimlarning o'zi bu muammoni hal eta olsa;
- masalani hal etish sog'liqqa zarar bo'lsa;
- ziddiyatda murakkab insonlar — qo'pollar, noluvchilar ishtirok etsa, ishlatish mumkin.

Bu usul muammodan qochish emas, aslida cheklanish ziddiyatli vaziyatlarda qo'l kelishi mumkin.

***Moslashish usuli.*** Bu usul ikkinchi tomon bilan aloqada bo'lib, muhitni yaxshilash uchun o'z manfaatlarini oqlamaslik tushuniladi. Ayrim hollarda bu ziddiyatni hal etishning yagona yo'li hisoblanadi. Chunki uning paydo bo'lish paytiga kelib, ikkinchi tomonning manfaatlari siznikidan zarurroq bo'lib qolishi mumkin. Moslashish usuli quyidagi hollarda qo'llanilishi mumkin:

- asosiy vazifa tinchlikni saqlashga qaratilganda;
- ziddiyat masalasi tomonlar uchun muhim bo'lmaganda;
- boshqalar bilan aloqani mustahkamlash o'z manfaatidan ustun kelganda;

- haqiqat siz tomonda ekanligini bilganda;
- yetarli kuch va imkoniyatlarga ega bo'lmaganda.

Yuqoridagi usullar shaxslar tomonidan samarali ishlata olinsagina o'zining ijobiy natijasini beradi.

### **Ziddiyatli vaziyatlarda o'zini tuta bilish qoidalari.**

Rahbar ziddiyatlarni nafaqat ish sohasi, balki shaxsiy emotsional sohada ham ishlata olishi zarur. Xo'sh, ziddiyatli shaxs bilan ishlash jarayonida o'zini qanday tutish lozim:

*Birinchidan* - bunday odamlarda ichki o'tkinchi kechinmalar bilan bog'liq ehtiyojlar mavjud bo'lib, ular shu orqali ehtiyojlarni qondiradi. Masalan, tajovuzkor o'zining tajovuzi orqali qo'rqoqligini yashirishi mumkin.

*Ikkinchidan* - o'z hissiyotlarini jilovlab, boshqaning hissiyotlarini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratishi kerak.

*Uchinchidan* - odamlarning qilayotgan harakatlarini jiddiy qabul qilmaslik.

*To'rtinchidan* - ziddiyatli holatlarda muvofiq keluvchi usulni tanlash uchun bunday usullar qaysi toifa odamlarga mos kelishini ajrata olishingiz zarur.

Robert Bremson tarbiyasi qiyin odamlar bilan muomala qilishning bir necha turlarini ajratib ko'rsatadi:

Tajovuzkor - agar so'ziga quloq solishmasa, kishilarga tojovuz qiluvchi qo'pol va shallaqilar.

Shikoyatchi - qandaydir g'oyani o'zlashtirib olgan holda, boshqalarni katta gunohda ayblovchi, biroq ushbu muammoni yechish uchun biror ish qilmaydigan kishi.

“Darg'azab bolakay” - bu toifa kishilar tabiatan o'zlarining to'g'ri yoki noto'g'ri fikrlarini o'tkazishga hamda jarayonni to'laligicha qo'l ostida tutib turishga intiladilar.

Maksimalist - garchand zarurati bo'lmasa-da, biror-bir ishni ortga sudramaydigan kishi.

Indamas (pismiq) - barcha alamlarini ichiga yutib yuradigan, biroq payti kelganda birdan «portlaydigan» odam.

“Sirli qasoskor” (ishkalchilar) - biror-bir nayranglar yordamida noqulayliklarni yuza keltiruvchi, “noto'g'ri qilingan ish uchun o'zini adolat o'rnatuvchi” deb hisoblaydigan kishi.

---

<sup>1</sup> Qarang: Бородкин Ф.М. Внимание конфликт! Новосибирск. 1989.

Ikkiyuzlamachi yoki “Yolg‘onchi g‘amxo‘r” – o‘zini sizga yaxshilik qilayotgan kabi ko‘rsatadi, biroq qalbida boshqalarga nisbatan adovat, ko‘rolmaslik mavjud bo‘lgan odam.

“Surunkali ayblovchi” – doimiy ravishda o‘zgalarning aybini qidiradigan (tirnoq orasidan kir qidiradigan), o‘zini doimo haq deb hisoblaydigan shaxs.

Hayotda uchraydigan bu kabi odamlarning toifalari talaygina.

Shu munosabat bilan ziddiyatli holatlarda yoki tarbiyasi qiyin odamlar bilan muomala qilganingizda siz nafaqat do‘stlik degan tushunchaning ma‘nosini anglaysiz, balki muomalaning yuksak sifatlarini ham o‘zlashtirib borasiz. Dialektikaning ahamiyati aynan mana shu jarayonda namoyon bo‘ladi.

Ko‘rinib turibdiki, ziddiyatlar insonlararo muomala madaniyatida tez-tez hissiyotli holatlarni yuzaga keltiradi va, ayni paytda, munosabatlarni chigallashtirishga hamda murakkablashtirishga olib keladi. Ziddiyatli holatlar yuzaga kelganda, uning oldini olish uchun quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

Ziddiyatli holatlarda insonning xatti-harakatini aql emas, balki hissiyotlar boshqarishini unutmang. Zero, aql yon bergan paytda, inson o‘zining so‘zi va xatti-harakatiga javob bera olmaydi.

Muomalaning ko‘plab muqobil usullaridan foydalaning, suhbatdoshingizni “jerkib” tashlamang, o‘zingizga “Men ham yanglishishim mumkinku!” degan savolni bering.

Ziddiyatning mohiyatini to‘laqonli tushunishga harakat qiling va «Mabodo ziddiyat hal etilmasachi?» degan xavotirdan yiroq bo‘ling.

Agar suhbatdoshingiz qattiq hayajonda yoki g‘azablanayotgan bo‘lsa, uni «sovutishga» intiling, zinhor undan baland kelishga urinmang: o‘zingiz jim bo‘lingda undan buni talab qilmang.

Suhbatdoshingizga o‘zini sizning o‘rningizga quyib ko‘rishini so‘rang, ya‘ni «Agar siz mening o‘rnimda bo‘lganingizda qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz?» - degan savolni berib ko‘ring.

Qilgan xizmatigizni haddan ziyod maqtayvermang va minnat qilmang.

Ziddiyatni yuzaga kelishiga sababchi bo‘lgan hamkoringizni hadeb ayblayvermang.

Har qanday holatda ham o‘zaro munosabatni saqlab qolishga harakat qiling.

O'ylaymizki, ushbu maslahatlar sizning kelgusi faoliyatingiz uchun zarur bo'ladi.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Muomala madaniyatidagi axloqiy me'yorlarni ko'rsating?
2. Xushfe'llikning axloqiy xatti-harakat ekanligini tushuntiring?
3. Axloqiy me'yorlarning muomala madaniyatidagi ko'rinishlarini izohlang?
4. Muomalada yuzaga keladigan ziddiyatlar nimaga bog'liq?
5. Ziddiyatlarning qanday ko'rinishlari mavjud?
6. Ziddiyat turlari bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?
7. Muomala jarayonida ziddiyatlar qanday yuzaga keladi?
8. Ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni ko'rsating?

### **Amaliy mashg'ulot savollari:**

1. Axloqiy me'yorlarning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Muomala madaniyatida axloqiy me'yorlar.
3. Xushfe'llik, xushmuomalalik, hayo-ibolilik, beozorlik muomala madaniyatining axloqiy me'yorlari sifatida.
4. Muomalada yuzaga keladigan ziddiyatlar.
5. Jamiyatdagi ziddiyatlarning turlari va bartaraf etish usullari.
6. Ichki va tashqi ziddiyatlarning o'ziga xos xususiyatlari. Ziddiyatli holatlar.
7. Muomala madaniyatidagi ziddiyatlar.
8. Ziddiyatlarning ijtimoiy-psixologik asoslari.



### **3-BOB. MUOMALA MADANIYATINING DINIY-AXLOQIY ASOSLARI**

#### **3.1. Budda va xristianlik dinida muomala madaniyatining xususiyatlari**

Insoniyat yaratgan ma'naviy madaniyat yaxlit bir butunlikdir. Din, falsafa, adabiyot, san'at va hokazo – bularning hammasi shu muazzam daraxtning shoxlari, uning ildizi esa xalqning ijodi, dunyoqarashi va fikriy kashfiyotlaridir. Qaysi bir xalqning og'zaki yoki yozma yodgorligini olib qaramang, unda insoniyat xotirasida saqlanib kelayotgan afsonalar, hayotiy hikmatlar qaymog'i – insoniy tafakkur in'ikosini ko'ramiz. Muqaddas kitoblar Avesto, Rigveda, Tavrot, Zabur, Injil va Qur'on ham ana shunday mingyillar ichida yig'ilib, sayqal topgan ilmiy-badiiy tafakkur hosilasi misoli o'lmas manbalardir.

Buddaviylik – dunyoviy dinlarning eng qadimiysidir. U nasroniylikdan 5 asr avval, islomdan esa 12 asr avval vujudga kelgan. Ko'plab Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy hayoti, madaniyati, san'atida buddaviylik katta rol o'ynagan.

Buddaviylikka bag'ishlangan istalgan kitobda o'zini «yorqin yuqori bilim», «kuzgi haqiqat» ma'nosini anglatuvchi Budda (sanskritcha «byddha») deb atagan sayohatchi Siddxartxa hayoti haqida diniy an'anaga asoslangan hikoya bilan tanishish mumkin.

Buddaviylik dinining yuzaga kelishiga qadar Hindistonda original diniy ta'limot, madaniyat va an'anaga ega edi. Murakkab ijtimoiy aloqalar va yuqori shahar madaniyati Mesopotamiya va Qadimgi Misr madaniyatining qadimiy o'choqlari bilan bog'liq edi. Agar xarrapa madaniyati (mil.avv.3 minginchi yil o'rtalari) davri dinida so'nggi diniy tasavvurlarga taalluqli elementlar aniqlangan bo'lsa, ikkinchi ming yillikda esa, birinchi mingyillik boshida adabiy shakllanishni olgan muhim diniy an'analar yig'ila boshladi. Vedachilik yoki veda dini so'nggi hind dinlari, jumladan, buddachilik uchun xarakterli jihatlarga ega edi. Vedachilik hind jamiyatida antogonistik

ziddiyatlarning qiyosi rivojlanganligini ifodalagan. Miloddan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalariga kelib, bu patriarxallik jihatlari buddaviylikning yuzaga kelishi asosiy sabablari hisoblangan va ijtimoiy munosabatlardagi yirik siljishlarning keskin ifodalangan qarama-qarshiliklarning yuqorisiga ko'tariladi.

Yangi diniy ta'limot belgilari dastavval, buddaviylik an'anasiing ko'rsatishicha, monaxlar tomonidan o'z shogirdlariga og'zaki tarzda uzatilgan. Ular miloddan avvalgi XXI asrda adabiy shakllanishni boshladi. Miloddan avvalgi 80-yilda Shri-Lankada yaratilgan va keyinchalik «tirpitaka» (sanskritcha «tripitaka») «qonunning uch savati» deb nom olgan buddaviylik diniy adabiyotining paliyga to'plami saqlanib qolgan.

Ilohiyotchi-ruhoniylar «Buddizm falsafasi» deb ataluvchi asosiy diniy aqidalarning mantiqiy «asoslanishi»ni ishlab chiqdilar. Ilohiy mahorat ko'pgina monaxlarning mulki bo'lib qoldi. Bir vaqtning o'zida buddizmning boshqacha, axloqiy-diniy marosim tomoni, yoki har bir odamni azob-uqubatlar yakuniga olib kelishi mumkin bo'lgan «yo'l» rivoj topdi. Bu yo'l shaxsni ma'naviy kamolga yetishida ko'p asrlardan beri sof g'oyaviy quroli va shaxslararo munosabatning o'ziga xos shakli hisoblangan.

Daysetsu Sudzukining yozishicha, buddizm da muomalaning maqsadi nodonlikka nisbatan erkin bo'lish. Erkinlik ostida u barcha ijodiy va ezgu impulslarning erkin o'rinini nazarda tutadi. «Odatda, biz shunchalik ojizmizki, ya'ni baxtli bo'lish va bir-birini sevish uchun barcha zarur sifatlariga ega ekanligimizni bilmaymiz. Xabarsizlik buluti tarqalib ketganida osmonning chegarasiz bo'shlig'i ochiladi va biz birinchi bo'lib o'zimizning sof mohiyatimiz tabiatini anglab etamiz. Odatda, kurash natijasi «abadiy ha» hisoblanadi. Pessimizmni oqlovchi jihatlar mavjud: hayot bizning ko'pchiligimizga kurashni ifodalaydi. Agar hanuzgacha hayot kurashning u yoki bu tomoni hisoblansa, u holda u azob-uqubattan boshqasi bo'lmaydi. Axir kurash ikkita tug'ma kuchlarning duch kelishini anglatmaydimi? Agar hayot uchun kurash boy berilgan bo'lsa, natija o'limdir, o'lim esa, dunyodagi eng dahshatli narsadir. Agar o'lim g'olib kelsa ham inson yolg'iz qoladi, yolg'izlikka esa, kurashga qaraganda umuman chidab bo'lmaydi. O'zga yo'l yo'q. Inson buni anglay olmasligi mumkin va zavqlanishda davom etadi, ammo bu hayotda mavjud narsalarning asosli holatini o'zgartirmaydi.

Xristianlik - yunoncha soʻzdan olingan boʻlib, christos «peshonasiga moy surilgan odam», «messiya» maʼnosini bildiradi. U miloddan avvalgi I asrda Falastinda iudaizmning sektalaridan biri sifatida yuzaga keldi. Iudaizm bilan dastlabki bogʻliqlik xristianlik dinining tub mohiyatini tushunib yetishda favqulodda ahamiyatga ega. Xristianlik Falastin va Oʻrta Yer dengizi yahudiylari orasida tarqalib, boshqa xalqlar orasida ham eʼtiqodchilarga ega boʻldi. Aytish mumkinki, xristianlikning yuzaga kelishi va tarqalishi antik sivilizatsiyaning chuqur inqirozi davriga toʻgʻri keldi. Xristianlik taʼlimoti koʻpchilikni jalb qildi. U oʻz eʼtiqodchilariga ichki qutulish yoʻli -buzilgan, gunohga botgan dunyodan kechish yoʻlini taklif qildi. Biroq ilk xristianlik jamiyatlariyoq oʻz aʼzolarini nafaqat oʻzi haqida, balki butun dunyo taqdiri haqida, nafaqat oʻzining qutqarilishi, balki butun dunyoni qutqarish haqida ibodat qilishga oʻrgatdilar. Oʻshandayoq xristianlikka xos boʻlgan universalizm paydo boʻldi. Jamiyat aʼzosi boʻlib turli millatdagi insonlar ham hisoblandi. «Elmen ham, Iudey ham yoʻq!» degan Yangi tezis Xudo oldida barcha eʼtiqodchilar teng ekanligi maʼlum qilindi va xristianlikning dunyoviy din sifatidagi keyingi rivojini aniqlab berdi. Rivojlanishning keyingi bosqichida «cherkov» tushunchasi katta oʻrin egalladi: «baʼzi xristianlar adashishi mumkin, ammo cherkov adashmaydi» - degan aqida shakllandi. Cherkov Isoning oʻzi apostollar orqali Muqaddas Ruhni berish haqidagi tezisga asoslanadi. Xristianlik iudaizmdagi Yagona Xudo gʻoyasini rivojlantiradi. Barcha mavjudot va predmetlar U tomonidan yaratilgan va ularning hammasi ilohiy ixtiyorning erkin harakati bilan yaratilgan. Xristianlikning 2 ta markaziy dogmalari Xudoning uch birligi (triedinstvo) haqida gapiradi. Birinchisiga koʻra, Xudoning ichki hayoti uch «ipostas» yoki shaxslar munosabatidir: Ota, Oʻgʻil yoki Logos va Muqaddas Ruh. Oʻgʻil Otadan «tugʻiladi», Muqaddas Ruh Otadan «chiqib ketadi». Inson xristianlik taʼlimotiga koʻra, Xudoning «obrazi» va «koʻrinishi»ni ifoda etuvchi zot sifatida yaratilgan. Lekin ilk insonlar tomonidan qilingan gunoh insonning Xudoga oʻxshashlik sifatlaridan mahrum qildi. Shuning uchun xristianlikda azob-uqubatni tozalovchi rolini taʼkidlab, inson «oʻzining xoch (krest)ini qabul qilib», oʻz-oʻzidagi va olamdagi yovuzlikdan qutulishi mumkin, degan daʼvat uqtiriladi. Bu bilan inson nafaqat Xudoning buyruqlarini bajaradi, balki uning oʻzi

Xudoga yaqin bo'ladi. Bu qarashda insonga faqat xristianlik uchun xarakterli bo'lgan «sir» tushunchasi aloqadordir. Bu, eng avvalo, cho'qinish, prichastie (prichashchenie marosimida iste'mol qilinadigan bir turli vino va non), tavba qilish, nikoh, soborovanie (cherkov odati bo'yicha o'layotgan yoki og'ir yotgan odamning badanini zaytun yog'i bilan moylash)dir. Xristianlikda sinalgan quvg'inlar uning dunyoqarashi va ruhida chuqur iz qoldirgan. Xristianlikka e'tiqod qiluvchi shaxslar turli xil qiynoqlarga solinganligi, ularni xristianlikda muqaddas deya hisoblashgan. Umuman, azob chekkan odam ideali xristianlik etikasida markaziy hisoblangan.

Davrlar o'tishi bilan zamon va madaniyat nafaqat sharoitni, balki xristianlikning siyosiy-g'oyaviy kontekstini ham o'zgartirdi. Natijada xristianlikning o'zaro raqobat qiluvchi «mazhablari» paydo bo'ldi. Demak, kundalik amaliyot haqidagi bahslar bu erda XVII asrda ixtilofni yuzaga keltirdi. G'arbda papachilik mafkurasi va ahamiyati o'rta asrlarda katta qarshilikni yuzaga keltirdi. XVI asr boshiga kelib bu qarshilik reformatsiya harakatida qaror topdi.

Cherkov ixtiloflari sabablari juda ko'p va murakkabdir. Shuningdek, bularning bosh sababi bo'lib inson gunohi, sabrsizlik va inson erkiga nisbatan hurmatsizlik hisoblanadi. Ayni vaqtda, G'arb va Sharq cherkovlari rahbarlari ko'p asrlik adovatning yomon oqibatlarini engishga intilyaptilar. Shunday qilib, 1964-yilda Rim Papasi Pavel VI va Konstantinopol patriarxi Afinagor tantanali tarzda XI asrda har ikkala cherkov vakillari tomonidan o'qilgan o'zaro lan'atni bartaraf etdilar. G'arb va Sharq xristianlarining o'zaro gunohli munosabatlarini yengishning boshlanishi belgilab qo'yilgan. XX asr boshlarida ekumenik harakat (yunoncha «eyumena» - borliq) deb nomlanuvchi harakat keng tarqaldi.

Nasroniylik dinining muqaddas kitobi «Injil»da so'zning qudratiga katta e'tibor qaratilgan. Unda og'izdan chiqqan har bir nojo'ya so'z haromga tenglashtiriladi. Bu xususda Iso alayhissalom deydi: «Og'izga kiradigan har bir narsa qoringa o'tib, kerak joydan chiqib ketishini hali ham tushunmadingizmi? Biroq og'izdan chiqadigan narsalar esa yurakdan chiqadi. Ana shular insonni harom qiladi. Yomon fikrlar, qotillik, fahshu-zino ishlari, o'g'rilik, soxta guvohlik va haqoratlar bari yurakdan chiqadi. Yuvmilgan qo'llar bilan ovqat

yeyish insonni harom qilmaydi, ana shular insonni harom qiladi»<sup>1</sup>. Yana bir joyda «Odamlar sizga qanday muomala qilishlarini istasangiz, siz ham ularga shunday muomalada bo'ling. Tavrot va payg'ambarlar ta'limotining mag'zi shundadir»<sup>2</sup> - deyilgan.

Buyuk tarixiy burilishlar davri mafkurasini belgilagan jahoniy dinlar insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichida yangi ma'naviy-ruhiy zarurat, fikriy va hissiy izlanishlar ehtiyojiga javob tariqasida paydo bo'lganligi sababli madaniy-ma'naviy hayotning hamma sohasini qamrab olib, ijodiy ko'tarilish, insonlarning turmush tarziga, hayot faoliyatiga ta'sir ko'rsatib keldi. Bu jarayon dindoshlar va o'zga din vakillari bilan bo'ladigan munosabat – muomala madaniyatiga ham ta'sir etdi: so'z insonni fazilat, yaxshilik, muomalaga yo'naltirish uchun da'vat vositasiga aylandi. Shu bois chiroyli so'z, shirin muomala, xush tabassum umumjahoniy dinlarning muqaddas kitoblarida alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

### 3.2. Qur'on va Hadis – musulmon muomala madaniyatining diniy-axloqiy asosi sifatida

2-1899  
Mustaqillik sharofati bilan qadriyatlarimizni tiklashga, tariximizni o'rganishga, o'zligimizni anglab etishga imkoniyat yaratildi. Ayniqsa, muqaddas dinimiz - Islom dinining qayta tirilishi, uning insoniyat uchun ma'rifat keltiradigan din ekanligini anglab yetayotganligimiz xalqimiz madaniy-ma'naviy hayotida tub burilish hisoblanadi.

Ma'lumki, inson barcha yaratilganlar orasida ajib va latif bir tabiat bilan ajralib turadi. Bu tabiatda insonning turli-tuman mayllari, orzulari maydonga kelgan. Masalan, inson eng yaxshi narsalarni istaydi, eng go'zal narsalarga moyillik bildiradi, ziynatli narsalarni orzu etadi, insoniyatga xos sharaf bilan yashamoqqa intiladi. Ana shunday sharaf Islom dinida - xushmuomalalik, shirinso'zlik, ochiq chehralik, to'g'riso'zlik, muloyimlik, xushzabonlik, shirinsuxanlik kabi qator axloqiy tushunchalar bilan belgilanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Qur'on Karim oyatlarida, Hadisi Sharifda bayon etilgan g'oyalar insoniyat tafakkuri va

---

<sup>1</sup> Injil. Stokgolm. Bibliyani tarjima qilish instituti, 1992. 39 b.

<sup>2</sup> Shu kitob. 16 b.

2  
faoliyatidan ayri holda emas. Ayniqsa, Islom manbalarida insonlardagi muomala madaniyati yaxshilik, burch, adolat, iymon singari odob va axloq tushunchalari bilan uyg'un holda olib qaraladi. Shuningdek, (ota-ona bilan farzand o'rtasidagi munosabat, ularning o'zaro muomalada go'zallikka intilish masalalariga Islom dini juda katta e'tibor qaratadi. Bu borda Abu Hurayra (r.a)dan rivoyat qilingan mana bu hadis tarbiyaviy jihatdan ahamiyatga molik: "Bir odam Rasululloh salolohu alayhi va sallamning huzurlariga kelib: "Yo Rasululloh, mening yaxshi muomala qilmog'imga kim haqliroqdir?"-deb so'rganida Payg'ambarimiz (s.a.v.) uch martasida ham «Onang!», so'ngra esa «Otang!»-deb javob beradilar. Ota-onani haqorat qilish, ularga yomon muomalada bo'lishni «odam qiladiringan gunohi azimlardan biri» deb aytadilar!)

Ko'rinib turibdiki, Islomda chiroyli muomalaga, eng avvalo, ota-onalar haqlidir. Shuni ta'kidlash lozimki, Islomda tarbiya masalasiga e'tibor ta'lim masalalariga nisbatan keng qamrovliroq va ustuvorroqdir. Chunki tarbiya bolani uyda, ko'chada, maktabda o'zini tuta bilish odoblarini, aql bilan ish yuritib, jismini, nafsini o'ziga bo'ysindirishdek og'ir ishni yo'lga qo'yadi. Zero, inson ko'rib, eshitib, bilib, o'rganib tarbiyalanadi. Shu bilan birga, Ollohning haqqi — namoz, ro'za, zakot, haj kabi ibodatlarni ado etishi barobarida atrofda qilarni shirinso'zlikka, xushmuomalaga chaqirib boshqalarga ibrat bo'lishi mo'minlikning muhim xususiyatlaridan sanaladi.

Ana shunday muomalalardan biri - shirinso'zlikdir. «Farzand ne matining shukri uning go'zal tarbiyasidir» degan tamoyilga asoslangan Islom nazariyasi har bir tug'ilgan chaqaloq to tili chiqib, dilidagini gapira olguncha Islom tabiati bilan tug'ilishini, biroq ota-onalar farzandini g'ayridin yoki iymonsiz qilib qo'yishini uqtiradi. Bundan anglanadiki, bolalar ota-onalar tomonidan qanday yo'lga solinsa shu yo'lga qarab ketishligi ma'lum bo'ladi. Demak, ota-ona farzandni tarbiya qilar ekan, uning muomalasini to'g'ri yo'lga solishi ham ularning yuksak burchlaridan hisoblanadi. Bu borada Qur'onda ba'zi toifa odamlar boshqalarga nisbatan ezgulik qilinishiga haqli ekanligi uqtiriladi. Bu toifalarning avvalida esa ota-ona qo'yiladi. Buning

---

<sup>1</sup> Qarang: Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buhoriy. Hadis. 4-kitob. Qomuslar Bosh tahririyati. 1997. 526 b. 78-bet.

ustiga Qur'on ota-onaga faqat yaxshilik qilishga chaqiruv bilan cheklanib qolmay, balki ularga olijanoblik bilan muomala qilish kerakligini ajoyib uslubda tushuntiradi: «Parvardigoringiz, yolg'iz Uning o'ziga ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi. Agar ularning birov yoki har ikkisi sening qo'l ostingda keksalik yoshiga yetsalar, ularga qarab «uf» dema va ularning so'zlarini qaytarma! Ularga (doimo) yaxshi so'z ayt. Ular uchun mehribonlik bilan, xorlik qanotini past tut – hokisor bo'l va: «Parvardigorim, meni ular go'daklik chog'imda tarbiyalab o'stirganlaridek, Sen ham ularga rahm-shafqat qilgin», deb haqlariga duo qil» (Al Isro surasi, 22, 24 oyatlar)<sup>1</sup>.

Bu oyat mazmuniga e'tibor beradigan bo'lsak, Oллоh Taolo ota-onaga yaxshilik qilishni bevosita o'ziga ibodat qilish bilan birga yonma-yon qo'yyapti, ota-onalar keksayib, zaiflashib qolgan hollarda ularga qanday muomala qilish kerakligini o'rgatmoqda. Bu borada Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari farzandning ota-onalariga nisbatan yaxshi muomalalarini qo'yidagi beshta xususiyat orqali ko'rsatib o'tadilar:

1. Ulardan biror gap o'tsa, malol kelib, «uf» ham demaslik.
2. Ota-onani hafa qiladigan so'z so'zlamaslik.
3. Ularga doimo ehtirom bilan yaxshi so'zlarni so'zlashlik.
4. Ularga doimo rahm-shafqat ko'rsatib, o'zini ular oldida kamtar tutish.
5. Oллоhdan ularga rahmat tilab duo qilish<sup>2</sup>.

Islom dinida shirinso'zlik ulug'lanadi, yolg'onchilik esa unga to'siq bo'ladigan illat hisoblanadi, yolg'on so'zlovchilar munofiq deb ataladi. Yolg'on so'zlash Islom dinida muomala madaniyatiga zid holat sanaladi. Chunki odamlar har doim ham aldanavermaydilar, bir-ikki marta muomala-muloqotdan so'ng sezgir odam birodarining yolg'on yoki rost so'zlayotganligini bilib oladi. Shu bois Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) bir hadislarida «O'zingizga to'g'riso'zlikni lozim tuting, chunki to'g'riso'zlik insonni yaxshilikka yetaklaydi, yaxshilik esa jannatga olib boradi» Inson to'g'riso'zlikka odatlansa, Oллоhning nazdida siddiqlar (doimo to'g'ri so'zlovchilar)

<sup>1</sup> Qarang: Qur'oni Karim. T.:Cho'lirpon nashriyoti, 1992. 367 b.

<sup>2</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Iymon. T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2006. 280 b.

qatoriga yozib qo'yiladi. Va yolg'on gapirishdan saqlaningslar, chunki yolg'onchilik insonni yomonlikka boshlaydi, yomonlik esa do'zaxga olib boradi. Inson yolg'on gapirib yolg'onchilikka odatlansa, u Ollohning nazdida kazzoblar (doimo yolg'on so'zlovchilar) qatoriga yozib qo'yiladi», deganlar. Boshqa bir hadislarida «Yolg'onchilar mening ummatim emas», deya ularni musulmonlar qatordan chiqarib qo'ydilar.

Hadisi Sharifda shirinso'zlik bilan yaxshilik o'rtasida dialektik birlik mavjud bo'lib, ular oliy qadriyat sifatida ulug'lanadi. Aksincha, va'dabozlik, omonatga xiyonat qilish va yolg'onchilik yomonso'z illati sifatida qoralanadi. Ayniqsa, chaqimchilikka nisbatan Islom muomala madaniyatida keskin fikrlar mavjud. Chunki chaqimchilik har doim o'z qilmishi bilan aka-uka, yoru-birodar, qo'ni-qo'shni, eru-xotin va ba'zida esa mahallalar, yurtlar, millatlar orasini buzadi. Shuning uchun Rasululloh (s.a.v.) «Chaqimchilar jannatga kirmaydilar», deb uzil-kesil aytganlar. Aksincha, kishilarning oralari isloh qilib yarashtirish, xushmuomala bilan uzilgan rishtalarni bog'lash islom dinida yuksak savob sanaladi.

Ma'lumki, diniy e'tiqod kishilar uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. U hamma vaqt kishilarning huquqiy mas'uliyatidan ustun kelgan. Diniy g'oyalarning ta'siri kuchli bo'lgan barcha davrlarda Islom dini inson ma'naviy kamolotini to'g'ri yo'lga soluvchi asosiy omillardan biri bo'lgan. Shu bois Islom dini har bir mo'min bandadan Ollohning yagonaligini tan olishnigina emas, balki inson butun hayot faoliyatida Ollohning irodasiga, Muhammad Payg'ambarning yo'l-yo'riqlariga bo'ysinishni ham talab qiladi.

Hadislarda inson ma'naviy kamolotida muomala madaniyati bilan bog'liq barcha diniy muammolarga e'tibor qaratilishi barobarida umumbashariy muammolarga ham katta o'rin beriladi. Boshqa dinga e'tiqod qiluvchi kishilarni kamsitish, la'natlash, so'kish va haqorat qilish musulmonchilikda katta gunoh hisoblanashi buning yaqqol isbotidir. Bu xususda Rasululloh (s.a.v.) aytadilar: «Kimki mo'minni la'natlag'aydir yokim kofirlikda ayblag'aydir, uni o'ldirgan barobarida gunohga qolg'aydir!»-deganlar<sup>1</sup>. Shuningdek, kimda kim birovni qarq'asa yoki la'nat aytsa, og'zidan chiqqan so'z osmonga qarab

---

<sup>1</sup> Qarang: Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buhoriy. Hadis. 4-kitob. Qomuslar Bosh tahririyati, 1997. 526 b. 95 b.



intiladi, undan chiqqan sassiq hidga osmon eshiklari bekilib, chiqib ketishga yo'l topa olmagach, qarg'ish yoki aytilgan la'nat haq bo'lsa, aytilgan kishiga borib tegadi, agar nohaq bo'lsa, aytgan kishining o'ziga uradi - degan hadislar mavjud. Bu Islom dinida muomala madaniyati insonparvar g'oyalar bilan yo'g'rilganligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, insonlarning bir-biriga la'nat aytib, qarg'ashlari nokomillik belgisidir. Odamlarning og'zidan chiqqan xunuk so'zlar bevosita haqoratlangan kishilarning jismi va ruhiga o'mashib pirovardida o'sha odamning qalbiga singib borishini bugungi zamonaviy fan va ta'limotlar isbotlamoqda (Bu borada ruhiy tahlil falsafasidagi fikrlarni misol qilib keltirish o'rindir).

«Shar'iy hukmlarda, Qur'oni Karim va hadislarda o'rta qo'yilgan ko'plab axloqiy fazilatlar tizimlari har bir musulmon rioya qilishi shart bo'lgan burch sifatida ko'rsatilgan - deb ta'kidlaydi faylasuf E.Yusupov, - Shariat qoidalariga iymon va e'tiqod bilan rioya qilish asrlar davomida jamiyatda adolat, halollik, insonparvarlik g'oyalari barqaror turishiga olib kelgan»<sup>1</sup>. Shu bois Islomda axloqiy taraqqiyot va muomala madaniyatining muhim omillaridan biri bekorchi so'zlar, g'iybat gaplar, yomon qiliqlardan uzoq bo'lishdir. Bu borada Islom dini yaxshi muomalani ro'yobga chiqarish uchun yaxshi hamsuhbat topish va uning vositasida muomalani mustahkamlashni taklif etadi.

Aytish mumkinki, Islom dinida ibodatning mohiyati ham yaxshiso'zlik va yaxshilik e'tiqodlariga qaratilgan. Til yaxshi-yomon gaplarni so'zlaydi, agar qalb shahvat va g'aflat bilan to'lgan bo'lsa, buni baxtsizlik alomati, deb bilish lozim. Chunki ibodatdan ko'zlangan maqsad — yomonlikdan xoli bo'lish. Bu esa o'zini til va so'z orqali namoyon etadi. Islom manbalarida ushbu masalaga tegishli bir rivoyat keltiriladi. Ya'ni, bir kuni bir yaxshi kishi ko'chadan o'tib borayotganida bir necha hayosiz kishilar orqasidan yomon so'zlar ila so'kib qoldilar. Bu kishi ularning so'zini eshitadi va qo'lini ko'tarib: «Yo Rab, bu nodonlarga o'zing aql bergil va to'g'ri yo'lg'a solg'il!»-deb duo qiladi. Bu holdan xabardor bir kishi so'raydiki, «Nima uchun siz ul kishilarning haqqig'a yaxshi duo qildingiz?»-deb. U kishi: esa «Ey birodar, har kim o'zida borini berur. Menda yaxshilik bor edi, shuni berdim, onlarda yamonlig' bor ekan, oni

---

<sup>1</sup> Ma'naviy kamolot omillari. T.: Universitet nashriyoti, 1995. 10 b.

berdilar. O'zingda yo'q narsani qaydan olib berursan, har kim qilganicha topar, yamonning yamonlig'i o'z boshiga etar», - deb javob berdi. Bu rivoyat Islom dinining iymon qalbda deb e'tirof etishining real isbotidir.

Darhaqiqat, islomiy manbalarda iymon qalbdadir deb ta'kidlanadi. Biroq uni so'z bilan ifoda qilmasa, foydasi yo'q. Vaholangki, namoz ham amaldir, u ham muqaddas so'zlardan tashkil topgan. Inson «so'zning ahamiyati yo'q» deyishi bilan o'z-o'zingni inkor etadi. Chunki shu fikrni ham so'z bilan ifoda qilayotganligini bilmay qoladi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, Islom dini insonlarni shirinso'z bo'lishga chaqirishi bejiz emas. Zero, Qur'onda «Bandalarimga aytgin, ular eng go'zal bo'lgan narsani aytsinlar. Albatta, shayton oralarini buzib turadi» (Al Isro surasi, 53 oyat)<sup>1</sup>. Olloh mana shu oyatda musulmonlarni o'zaro suhbatlarida, gap-so'zlarida shirinso'z bo'lishga buyuradi. Agar ular buyruqqa itoat etmay, yomon so'zlarni ixtiyor qilsalar, albatta, shayton oralarini buzadi va natijada yomonlik va dushmanlik sodir bo'ladi. Qur'onning Baqara surasi, 83-oyatida esa Olloh aytadiki, «Va odamlarga yaxshi gaplar ayting»<sup>2</sup>.

Bundan tashqari, Olloh taolo kishilarni huda-behuda baqiraverishlarini inkor etadi, aksincha, ularni past ovoz bilan so'zlashga undaydi. Shirinso'zlikning asosiy sharti ham shuni taqazo qiladi. Zero, garchi chiroyli maqtov bo'lsin, u baqirib aytilsa, xunuk so'zga aylanadi. Islom ovozini baralla qo'yib baqirib-chaqirib so'zlashni esa, eshakning hangrashiga o'hshatadi. Olloh kishilar bilan so'zlashayotganda, muomala qilayotganda ochiq yuzli bo'lishni buyuradi va qo'pollikdan qaytaradi. Olloh payg'ambarimiz Muhammd salollohu alayhi vasallamga qarata shunday deydi: «Ollohning rahmati ila ularga muloyim bo'ling. Agar qo'pol, qalbi qattiq bo'lganinggizda, atrofingizdan tarqab ketar edilar». (Oli imron surasi, 159-oyat).

Islom dini musulmonlarga har doimo hushmuomala, shirinso'z bo'lishlarini eslatadi, qo'pol va yomon so'zdan tiyilishni aytadi. Hatto

---

<sup>1</sup> Qur'oni Karim. T.: Cho'lpon nashriyoti, 1992. 199 b.

<sup>2</sup> Qur'oni Karim. T.: Cho'lpon nashriyoti, 1992. 12 b.

shirinsoʻzlikni ibodatdan ustun qoʻyadi. Bu borada qoʻyidagi rivoyat fikrimizni isbotlaydi.

Kunlardan bir kuni paygʻambarimiz ummatlaridan biri mahal-lasida istiqomat qiladigan bir ayoldan nolib soʻraydi «Yo, Rasululloh! Bizning mahallada bir xotin bor. Kunduzlari roʻza tutadi, kechalari uygʻoq, ibodat qiladi. Faqat qoʻshnilari bilan yaxshi muomalada emas. Ularga xunuk gaplar gapiradi. Bu ayolning feʻl-atvori xususida nima deysiz? - deydi. Shunda Rasuli Akram (s.a.v.): - U xotinda hech ezgulik yoʻq. U jahannamga borgʻuchidir, - deydilar. Odamlar orasidagi muomalada Qurʻon mana shu odoblarni oʻrgatadi. Bu narsalar hayotda tinchlik va baxt-saodat orzu qilgan har bir jamiyat uchun zarurdir.

Umumjahoniy dinlarda muomala madaniyatiga doir fikrlarimizni quyidagi jihatlar orqali xulosalash mumkin:

- muomala madaniyatining diniy-axloqiy asoslari mohiyatan insonparvar boʻlib, u ilmiy manbalarga tayanib ish koʻradi;

- muomala madaniyatining diniylik shakli dunyoviylik shaklini inkor etmaydi, balki uning koʻrinishlarini uygʻunlikda rivojlantirishni talab etadi.

- diniy-axloqiy asosga ega boʻlgan muomala madaniyatining shartlari bevosita axloqning mezoniy tushunchalari bilan hamohang boʻlib, ular bir-birini inkor etmaydi.

- yaxshi soʻz va yaxshi muomala oʻrtasida dialektik aloqadorlik mavjud boʻlib, uning hosilasi diniy manbalarning asosini tashkil etadi.

- diniy muomala madaniyatida soʻz va soʻzning kuchiga alohida eʼtibor qaratiladi, soʻz eʼtiqod qoʻyuvchilarning najot topishi uchun asosiy vosita vazifasini bajaradi.

- umumjahoniy dinlar iymonni qalbda deb eʼtirof qilishi barobarida, uni yaxshi soʻz, xushmuomala bilan ifoda etishni har tomonlama yoqlaydi.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Umumjahoniy dinlarning maʼnaviy madaniyat sifatidagi mohiyatini tahlil qiling?

2. Buddaviylik dinining yuzaga kelishiga sabab boʻlgan omillarni sanang?

3. Buddizm falsafasida diniy aqidalarning ma'naviy asaslari nimalarga tayanadi?
4. Injilda muomala madaniyatiga doir fikrlarni izohlang?
5. Islom dinida chiroyli muomala tarbiya asosi ekanligini bayon qiling?
6. Shirinso'zlik Islom dinida qanday talqin etiladi?
7. Umumjahoniy dinlarda muomala madaniyatining umumiy jihatlari nimada?

### **Amaliy mashg'ulot savollari:**

1. Din - ma'naviy madaniyatning muhim bo'lagi sifatida.
2. Buddizmda muomalaning maqsadi.
3. Xristianlikda cherkov aqidalari.
4. Injilda so'zning qudrati.
5. Islom dinida muomala madaniyatining diniy-axloqiy asoslari.
6. Shirinso'zlik, mo'minlik – muhim xususiyatlar sifatida.
7. Qur'on va Hadisda yolg'onchilik, chaqimchilik, la'natlash va haqoratning inkor etilishi.

## 4-BOB. SHAXS KAMOLOTLINING AXLOQIY VA ESTETIK XUSUSIYATLARI

### 4.1. Axloqiy fazilat va xulqiy go'zallik muomala madaniyatining muhim omili sifatida

Ma'lumki, eng qadimgi zamonlarda inson mohiyatini anglashga intilish haqidagi ilk tasavvurlar kosmologik yondashuv bilan bog'liq holda rivojlangan. Keyinchalik yuzaga kelgan antropologik ta'limotlar insonni o'rganish uchun e'tiborni avvalo, uning o'ziga, amaliy xatti-harakatiga, axloqiylikiga qaratdi. Natijada fanda insonni biologik, fiziologik hamda ijtimoiy mohiyat sifatida o'rganishga doir nazariyalar, g'oyalar, qarashlar yuzaga keldi.

Insonning amaliy xatti-harakati, axloqiyligi, nafosatga munosabati ayni paytda uning botiniy tuyg'ulariga, qalb kechinmalariga bog'liq. Bu kechinmalar, yuqoridagi bo'limlarda qayd etilganidek, fazilatlar va illatlarga bo'linadi. Inson mohiyatidagi bu xususiyatlar Mavlono Jaloliddin Rumi ta'kidlaganidek, «Inson gapiruvchi hayvondir. Uning xususiyati hayvonlikdan va gapirishdan iborat. Hayvonlik unda doimiydir, ayrilmasdir. So'z ham shundoq. Inson ko'rinishdan hech narsa demasa ham, ichida hamisha gapiradi. Bu hol go'yo loy qorishgan suv toshqiniga o'xshaydi. Toshqinning toza suvi insonning so'zi (nutqi), balchig'i esa hayvonligidir. Biroq balchiq unda o'tkinchi bo'lib, vaqt kelib ulardan asar ham qolmaydi. Yaxshi yoki yomon bo'lishiga qaramay so'zlar, hikoyalar va bilimlar qoladi»<sup>1</sup>. Mavlono Rumiyning inson mohiyatiga doir ushbu fikrlari achchiq bo'lsa-da, haqiqatdir. Chunki inson faqat ko'rinib turuvchi narsa emaski, uni bir qarashda fazilat yoki illat egasi ekanligi ayon bo'lsa. Zero, inson o'z borlig'i yordamida chinakam lazzatga intiluvchi aql, ixtiyor, tuyg'u sohibidir. U o'z maqsadiga chinakam haqiqatni anglash, muhabbatga to'g'ri munosabatda bo'lish, real voqelikni

---

<sup>1</sup> Rumi Jaloliddin. Ichingdagi ichingdadir. —T.: Yozuvchi, 1997. 73 b.

o'zlashtirish yo'llari orqali erishadi. Har bir risoladagidek odam yovuzlik bilan kurashishga, o'zidagi mavjud illatlarni bartaraf qilishga, tuyg'u va ehtiroslarini jilovlashga harakat qiladi; go'zallikni chinakamiga sevishga, haqiqatni o'z ko'zi bilan ko'rishga, aqli bilan mushohada qilishga, uni chin qalbdan ulug'lashga intiladi.

Axloqshunoslikda inson xatti-harakatlarining ikki qutbi – axloqiylik bilan axloqsizlik holatlari tahlil va tadqiq etiladi. Axloqiylik – fazilatlarida, axloqsizlik esa illatlarda namoyon bo'ladi. Bu ikki qutb – tushuncha kun-tun, oq qora singari bir-birini inkor va ayni paytda, taqozo etgani holda mavjuddir. Fazilat va illat shunday yirik hamda qamrovli atamalarki, ularning har biri o'z ichiga bir necha emas, o'nlab emas, balki yuzlab tushunchalarni oladi. Shu jihatdan axloqshunoslik barcha falsafiy fanlar ichida tushunchalarning ko'pligi va xilma-xilligi bilan alohida ajralib turadi.

Insonning botiniy olamiga daxldor bo'lgan go'zallik bevosita axloqiy fazilatlar va axloqiy munosabatlar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, xulq tushunchasi axloqning tarkibiy qismi sifatida inson kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mohiyatan axloqqa daxldor bo'lgan bir qator tushunchalar ham inson botiniy go'zalligini mukammallashuvida yuksak ahamiyatga ega. Muhabbat ana shu tushunchalarning ibtidosidir. Muhabbat bu-bilishning mahsuli bo'lib, inson bilgan, anglagan narsasiga o'zini butkul bag'ishlashi va undan lazzatlanishidir. Go'zallik kabi muhabbatning mohiyatida ham lazzat yotadi. Shu bois muhabbat go'zallik barobarida ulug'lanadi. Zotan, muhabbat Vatanga, Oллоhga, yorga, o'ziga nisbatan yaxshilik qilgan odamlarga, o'z kamolotini ta'minlovchi narsalar (buyumlar)ga nisbatan qo'llaniladi. Biroq o'zining shahvoniy xirsini, g'ayriaxloqiy istaklarini qondiradigan lazzatni muhabbat sifatida qabul qilish mumkin emas. Bunday tuyg'ular mohiyatan manfaatparastlikka qaratilgan bo'lib, yuksak tuyg'u sifatida e'tirof etishga arzimaydi. Muhabbatga ana shu jihatdan yondashilsa, uning insoniy go'zallik uchun g'oyatda dolzarb bo'lgan tushuncha ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Insonda axloqiy fazilatni takomillashuviga muhabbat bilan bir qatorda ezgulik ham ko'mak beradi. Ezgulik-ijtimoiy xususiyat kasb etuvchi axloqiy fazilat bo'lib, yuksak axloqiy tamoyillar darajasini

belgilaydigan hamda mohiyatan mutlaq ijobiylikka daxldor bo'lgan tushuncha. Shuningdek, ezgulik yaxshilik tushunchasiga nisbatan keng qamrovli va undan farqli o'laroq, hech qachon yovuzlikka aylanmaydigan axloqiy hodisadir.

Bu borada tasavvufdagi «Mavlaviya» tariqatining asoschisi Mavlono Jaloliddin Rumiyning inson va uning mohiyatiga doir fikrlari diqqatga sazovor. Rumiyni jamiki «yaratilgan»ni uch qismga bo'ladi. Birinchisi - malaklar; ular faqat aql egalari. Parvardigorga ibodat qilish, Unga qul bo'lish va Uni doimo zikr qilish ularning tabiatida mavjud. Ikkinchisi - hayvonlar; ularda shahvoniylik kuchli bo'lib, ularni yomonlikdan qaytaruvchi aqllari yo'q. Uchinchisi - inson. Inson yuqoridagi ikki yaratilganlikning xususiyatlarini, ya'ni, aql va shahvatni mujassam qilgan zavolli zot. Biroq Rumiyni insonni malaklardan ham, hayvonlardan ham ustun, deb biladi. Chunki insonda ikki yaratilganlik mavjud bo'lmagan ixtiyor erkinligi bor. Aytish lozimki, aynan ana shu ixtiyor erkinligi sabab inson fazilat va illat egasidir. Negaki, Malaklar aql egalari bo'lsalar-da, o'z xohishlaricha biror-bir faoliyatni amalga oshira olmaydilar; ular faqat Xudoning buyrug'inigina bajaradilar. Hayvonlar o'z faoliyatini aql bilan boshqarishdan ko'ra, ko'proq, mayllar (instinktlar), shartli va sharsiz reflekslar orqali amalga oshiradi. Inson esa ixtiyor erkinligi yordamida goh malaklarga, gohida hayvonga tenglashadi. Demakki, inson ikki qutbdan iborat: shahvat qo'zg'atuvchi narsalar uning hayvonlik tarafining oziqasi bo'lsa, insonlik tarafining oziqasi esa bilim, aqlidir.

Ma'lumki, insonning botiniy go'zalligi bevosita axloqiy fazilatlar va axloqiy munosabatlar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Chunki axloq, avvalo, ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida inson kamolotida muhim ahamiyatga ega. Bu xususda akademik E.Yusupov: «Axloq insonning konkret sharoitlarda bo'layotgan voqea va hodisalarga mustaqil baho berishi, ularga nisbatan o'z munosabatini bildirishi hamdir, - deydi. - Umuman, axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo'lgan insonlarning o'z-o'zini idora qilish shakllari va me'yori, o'zaro muloqot va munosabatda ularga xos bo'lgan ma'naviy kamolot darajasining namoyon bo'lishidir. Axloq yo'q joyda inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi. Faqat yetuk axloq zaminidagina kishilarda hayotning mazmuni va maqsadi, jamiyat oldidagi burchi va mas'uliyati, baxt, diyonat, yaxshilik va

yomonlik, yovuzlik, haqlilik va nohaqlikka nisbatan muayyan munosabat shakllanadi»<sup>1</sup>.

Ana shu jihatdan xulq tushunchasi axloqning tarkibiy qismi sifatida insonlararo muomala madaniyatining muhim mezonini tashkil etadi. Biroq xulq ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi. Birinchisi - yaxshi, chiroyli xulqlar. Bunga shirinsuxanlik, muloyimlik, halollik, iffat, diyonat, or-nomus, nafsni tiyish. vijdon, shijoat, sabr, ilmlilik, g'ayrat, riyozat, qanoat, sabr, intizom, munislik, haqiqatparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik va shu singari ijobiy tuyg'ular kiradi. Bular o'z navbatida insonda xulq go'zalligini namoyon qiladi va insonni axloqiy jihatdan yuksaltiradi.

Ikkinchisi - yomon, xunuk xulqlar. Unga xudbinlik, hasadgo'ylik, ta'magirlik, ikkiyuzlamachilik, firibgarlik, ig'vogarlik, badnafslilik, badniyatlik, badjahllilik, bachkanalik, dilozorlik, andishasizlik, bevafoqlik, berahmlilik, tovlamachilik, bexayollik singari illatlar kiradi. Bular insonni tubanlik sari yetaklaydi va ma'naviyatini qashshoqlashtiradi. Mazkur illatlarni odat qilgan kishilar umum tasavvurida jirkanch taassurot qoldiradi. Bu xususda ma'rifatparvar alloma Abdulla Avloniy shunday degan edi: «Bu sanagan yomon xulqlarning fanoliqlarini, yuqorida sanagan yaxshi xulqlarning go'zalligini insof muvozanasi ila o'lchab, vijdon muhokamasi ila ta'qiqlab, yaxshilarini tinglab, amal qilmak, yomonlarini anglab, hazar qilmak lozimdur. Zeroki, insonning izzati, dunyoning lazzati yaxshi so'zlarni eshitub va ko'rub hissa olmak, yomon va zararliklarini o'qub, bilub, o'zini tiymak, qo'ldan kelgancha xalq va millat foydasiga tirtishmak va bu fano dunyodan yaxshilik otini olub ketmaktadur»<sup>2</sup>.

Sharq odobida «Ulug'lar huzurida sergak bo'ling va o'zingizga loyiq so'z so'zlang» deyilishi bejiz emas. Bu umumiy tilni asrash barobarida o'z og'zimiz orasidagi tilni «ehtiyot» bo'lib, o'ylab ishlatish kerak demakdir. Chunki so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini ko'rsatadigan mezon bo'lib, aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so'zlagan so'zidan biladilar. Zero, so'z insonning qiymati qadar qadrliidir.

---

<sup>1</sup> Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T.: Yangi asr avlodi, 1998. 116 b.

<sup>2</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 tomlik. 2-t. T.: Ma'naviyat, 1998. 71 b.



Shirin soʻz ilonni inidan chiqarganidek, muloyim soʻz vahshiylarni ulfatga aylantiradi. Shuning uchun doʻstu dushman bilan muomalada ehson yoʻlini tutish lozimki, bunda doʻstlarning mehru-muhabbati ortadi, dushmanlarning adovati kamayadi.

Sharq hikmatlari durdonalarida yaxshi xulqning oʻnta belgisi alohida koʻrsatib oʻtiladi. Bular: 1. Boʻlar-boʻlmasga odamlar bilan janjallashmaslik. 2. Insoflilik. 3. Birovning aybini qidirmaslik. 4. Biror kishidan noloyiq ish sodir boʻlsa, uni yaxshilik yoʻliga solib yuborishlik. 5. Agar aybdor oʻz aybini boʻyniga olsa, uni kechirish. 6. Muhtojlarning hojati chiqarish. 7. Boshqalarga yordam qoʻlini choʻzish. Oʻz nafsini tiya bilishlik. Boshqalarga ochiq chehra bilan muomala qilishlik. 10. Doimo yaxshi soʻzlash.

Ushbu yaxshi xulqlar ichidagi uchta belgi yaʼni, «Boʻlar-boʻlmasga odamlar bilan janjallashmaslik», «Boshqalarga ochiq chehra bilan muomala qilishlik», «Doimo yaxshi soʻzlash» insonning xatti-harakati bilan emas, balki chiroyli, shirin soʻzi natijasida amalga oshadigan axloqiy hodisalardir.

Shuningdek, boshqaruvda, muloqotda soʻzga, ayniqsa, shirin-soʻzga eʼtibor Sharq odobining ziynati sanaladi. Bu borada «Qobusnoma»dagi fikrlar diqqatga sazovordir: «Har soʻzni haloyiqqa zohir qilsang, yaxshi yuz bila zohir qil, toki maqbul boʻlsun va haloyiq sening soʻz bila baland martabaga egaligʻingni bilsunlar. Nedinkim, kishining martabasini soʻz bila bilurlar, ammo soʻzning martabasini kishi bila bilmaslar, chunki har kishining ahvoli oʻz soʻzining ostida pinhondur, yaʼni bir soʻzni bir iborat bila aytsa boʻlur, eshitgʻon kishining esa koʻngli undin tiyra boʻlgʻay va yana oʻshal soʻzni bir ibrat bila aytsa boʻlurkim, eshitgʻon kishining oni undin rohatda boʻlgʻay»<sup>1</sup>. Shuning uchun odamlarga achchiq va dagʻal soʻzlamaslik lozim. Zero, dagʻallik misli olov, kuydirguvchi yoʻldir.

Umuman olganda, sharq xalqlari pandnomalarida, hikmatlarida shirinsoʻzlikning inson hayotidagi oʻrni beqiyos ekanligi mutafakkirlar nazaridan chetda qolgan emas. Biz ana shu anʼanalarni davom ettirishimiz, ulardan tegishli xulosalar chiqarishimiz maqsadga muvofiq boʻladi.

Hozirda «barkamollik» iborasi kundalik hayotimizda tez-tez tilga olinmoqda; «barkamol jamiyat», «barkamol inson», «barkamol

---

<sup>1</sup> Kaykovus. Qobusnoma. T.: Istiqlof, 1994. 98 b.

oila», «barkamol farzand» kabi iboralar shular jumlasidandir. Insonga nisbatan qo'llaniladigan barkamollik ko'z o'ngimizda ham ma'nan ham jismonan kamolotga yetgan, o'zida yetuk axloqiy fazilatlarini mujassam qilgan, zamonaviy bilimlar sohibi bo'lgan shaxsning sifati tarzida gavdalanadi.

Aytish kerakki, inson barkamolligi nisbiy bo'lib, zamon bilan hamnafas o'zgarib, yangilanib boradi. Jamiyat va inson munosabatlaridagi eng go'zal axloqiy fazilat o'sha davr uchun dolzarb bo'lgan muammo darajasiga ko'tariladi. Xususan, O'rta asrlarda barkamol inson diniy e'tiqodi mustahkam shaxs sifatida tasvirlanadi. Jumladan, tasavvuf nuqtai nazariga ko'ra, komil inson dunyoning foniy ekanligini anglagan va shunga yarasha turmush tarzini yaratgan, zebu ziynat, molu dunyoga xirs qo'ymaydigan, aksincha, ilohiy fazilatlarini suyuvchi va Ollohga ko'ngil bergan kishidir. Ana shunday martabaga erishgan kishilar esa «Valiulloh», «qibla», «g'avs», «qutb», «Avtod», «Abdol» deya ulug'langanlar. Bu borada, Aziziddin Nasafiy komil insonga ta'rif berib yozadi; «Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin; bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin; yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif»<sup>1</sup>.

Ayniqsa, Jaloliddin Rumiyning insoniyatni ezgu amallar qilishga undovchi «Ma'naviy masnaviy» nomli falsafiy asarida komil insonga qo'yiladigan talablar, bajarilajak vazifalar, inson buyukligining siri nimada ekanligiga doir qarashlari chiroyli tashbehtar orqali bayon qilinadi. Jumladan, Mavlono nay vositasi orqali komil inson shaxsiga e'tiborni qaratadi<sup>2</sup>. Zero, nay ruhiyatga oro berishi, insonni iztirob, g'ashlikdan xalos etishi va o'zi ham bu borada beg'araz ekanligi bilan komil insonga o'hshashdir.

XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib, mamlakatimizda erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish oldimizda turgan muhim vazifaga aylandi. Shuning barobarida inson barkamolligi degan tushuncha ham yangicha ma'no kasb etmoqda. Shu bois milliy istiqlob

---

<sup>1</sup> Iqtibos.: Komilov N. Tasavvuf. (Birinchi kitob). T.: Yozuvchi, 1996. b. 147 b.

<sup>2</sup> Qarang.: Rumiyl Jaloliddin. Ma'naviy masnaviy. T.: «Sharq» nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati, 1999. b. 35 b.

mafkrasida komil inson g'oyasiga jiddiy e'tibor qaratilganligi bejiz emas. Chunki «Komil inson g'oyasi nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma'naviy va ma'rifiy sohasida tengsiz yutuqqa ilhomlantirgan»<sup>1</sup>.

Bugungi kunda inson barkamolligi deganda avvalo, o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, tevarak-atrofdagi sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, o'zini jamiyatning ajralmas qismi deb his etadigan, zamonaviy bilimlarni mukammal egallagan, ma'naviy jihatdan yuksak, jismonan baquvvat erkin shaxs tushuniladi.

Ta'kidlash o'rinliki, inson barkamolligi barcha davrlarda dolzarb masala bo'lib kelgan. Bu borada faylasuflar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan. Xususan, Ovro'pa falsafasida barkamol inson iborasi «A'lo odam» iborasi tarzida qo'llanilib, u inson ruhiy olamida paydo bo'luvchi turli xil kechinmalarga qiyoslanadi.

Jumladan, rus ma'naviyotchi faylasufi Vladimir Solovyov (1853-1900) «A'lo odam» («Sverx chelovek») mohiyatini o'lim hodisasi orqali izohlashga harakat qiladi. A'lo odam mutafakkir nazdida, o'lim oldida o'z qolmaydigan, o'limga tik boqadigan, uni bardosh bilan eng olishga qodir bo'lgan shaxsdir. Faylasufning nazarida, insonning mana shu holatga nisbatan jasorati, o'z navbatida uni hayvonot dunyosidan farq qilishini ham anglatadi. Negaki, hayvon o'lim bilan ongli tarzda kurasha olmaydi, o'limga qarshi borishga hayvonning qudrati yetmaydi. Chunki hayvon hayoti davomida o'limi haqida emas, balki o'z ehtiyojini qondirish haqida ko'proq o'ylaydi. Shu bois o'lim uning uchun azob emas. Biroq inson mohiyatan tirik banda. U bu dunyoda abadiy qolmasligini biladi. Bilgani uchun ham o'limni engishga, unga chap berishga harakat qiladi. Shunday ekan, A'lo odam o'lim qarshisida ham o'zini yo'qotmasligi, uni mag'lub eta oladigan kishi bo'lishi lozim, degan g'oyani ilgari suradi, faylasuf<sup>2</sup>.

Mutafakkirning mazkur fikri insonda hayotga nisbatan chuqur ehtirom, qiziqish hissini uyg'otadi. Zero, a'lo odam yohud barkamol

---

<sup>1</sup> Iqtibos.: Milliy istiqlol goyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar kitobidan olindi. T.: Yangi asr avlodi, 2001.

<sup>2</sup> Qarang.: Соловьев В. Сочинение. М.: Мысль, 1990. Т.2. 225 с.

inson deganda mohiyatan tirik, real inson tushuniladi; inson tirik holidagina o'zining a'lo ekanligini, go'zalligini ko'proq namoyon qiladi. Go'zallikni yaratish uchun esa insonda avvalo, xotirjamlik, biror bir narsadan hadiksiramay yashash imkoni bo'lishi lozim. O'lim insonning ana shu imkoniyatiga xavf soladi.

Biroq boshqa insonlardan farqli o'laroq, go'zal fazilatli odam o'lim xavfini buyuk falokat deb emas, balki tabiiy holat sifatida qabul qiladi. Chunki o'lim undan hech narsani tortib ololmaydi; a'lo odamning achinishga arziydigan moddiy boyligidan ko'ra ma'naviy boyligi bisyor. U o'lim qarshisida faqat bir holat uchun cho'chiydi, biroq talmovsiramaydi, u ham bo'lsa, o'lim tufayli go'zalliklar yaratish imkoniyati tugaganiga achinadi. Ma'rifatparvar alloma Mahmudxo'ja Behbudiyning qatl oldidagi holati ana shunday a'lolikning yorqin timsolidir. U o'limi oldidan aytgan edi: «Biz o'z qismatimizni bilamiz, ammo bechora xalqimizga o'z hayotimizda nima qilishimiz mumkin bo'lsa, shuni qilganimizni his etish bilan faxrlanganimizdan o'limni xotirjam kutmoqdamiz... agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz... Mumkin qadar ko'proq maktablar ochish, shuningdek, maorif va xalq saodatini ta'minlash sohasida tinmay ishlash bizga eng yaxshi haykal bo'ladi»<sup>1</sup>.

XX asr G'arb falsafasi «A'lo odam» tushunchasini o'ziga xos tarzda talqin qildi. Jumladan, ruhiy tahlil falsafasining asoschisi Zigmund Freyd (1856-1936) inson ongi qa'ridagi kechinmalarni tahlil qilib, insonning «men»iga doir yangicha qarashlarni ilgari surdi. U inson ongining tubida yashiringan sirli dardini topishga va inson ruhiyatidagi juda ko'p mayda-chuyda farazlar, gumonlar, kechinmalarning «siniq» parchalarini birlashtirib, hosil bo'lgan tasvirda insonning yashirin ruhiy olamini ko'rishga intildi.

Inson faoliyatida «men»ning boshqaruvchilik ahamiyatini Freyd muayyan sharoitlarda insonning o'z istaklari ustidan hukmron bo'lishga intilishi, vaziyatga qarab xulosa chiqarish va baho berish xususiyatiga ega ekanligi bilan belgilaydi. Freyd «Men»ni xuddi asov ot mingan chavandozga o'xshatadi, ya'ni «Men» o'z xirslarini jilovlay

---

<sup>1</sup> Iqtibos: Qosimov B. Maslakdoshlar. T.: «Sharq» nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati, 1994. 39 b.

olishi va o'ziga bo'ysundirishi kerak. Shundaygina «Men» o'z faoliyati orqali o'zga bir «U»ning ixtiyorini ham o'zlashtiradi. Bu xususda u, shunday deydi: «Agarda «Men» faqat «U»ning idrok tizimida muhim ta'sirga ega hamda «U»ning biror bo'lagi yohud qalb olami tubida turib, zohiriy olamning rahnamosi bo'lganidami, unda barchasi oddiy tarzda kechardi. Biroq bu erda o'zga bir tushuncha paydo bo'ladi. Ana shu tushuncha «A'lo Men» deb ataladi»<sup>1</sup> (tarjima bizniki).

Freydning «A'lo Men»i insonni doimiy tarzda o'z ishiga ongli munosabatda bo'lishiga talabchanligi bilan ahamiyatlidir. Zotan, insonda boshqalar faoliyatini baholash va tahlil qilish barobarida o'z-o'zini ham tanqid qilish imkoni mavjud. Insonni o'z-o'ziga nisbatan bu tariqa yondashuvi doimo uni «zo'rlar zo'ri» bo'lishga undaydi. Bu, pirovardida, insonni o'z hayotini go'zallashtirishga mas'ul ekanligini hamda xunuklikdan xavotirlanish tuyg'ularini shakllantiradi. Havotirlanish tuyg'ulari esa, inson kamolotida xulqiy go'zallikning qaror topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni aytish lozimki, biz nazarda tutayotgan xavotir, avvalo qo'rquv, biror bir qilingan nojo'ya ishdan hadiksirash emas, balki o'z-o'zini so'roqlash, tanqid qilish va baholash natijasida yuzaga keladigan holatdir. Shuningdek, xavotir insonni inson uchun mas'ul ekanligini eslatib turadi. Ana shularni to'g'ri anglash orqali shaxs o'zini takomillashtirib boradi.

Inson dunyosini moddiy dunyodan farqlanadigan qadriyatlar yig'indisidan tashkil topgan dunyo sifatida talqin qilgan hayotbaxsh ta'limot — ekzistensiyachilik aynan ana shunday xavotirning inson uchun zarurligini qat'iy himoya qiladi. Bu borada mazkur ta'limotning yetakchi namoyandasi Jan Pol Sartr (1905-1980) insondagi «xavotir», «umidsizlik», «o'z holiga tashlab qo'yilganlik» tushunchalari zahirida insonni buyuk maqsadlarga da'vat etish mavjudligini o'zining «Ekzistensializm to'g'risida» asari orqali bayon qilib beradi.

Insonni xavotir deb bilgan Sartr, nimagadir qaror qilgan inson o'z xususiy mavjudligini tanlamasligini. balki u ayni paytda o'zi bilan birga butun insoniyatni ham tanlaydigan qonun chiqaruvchi zot ekanligini, to'liq va teran javobgarlik hissidan qochib qutula olmasligini xavotir tushunchasi orqali izohlashga harakat qiladi.

---

<sup>1</sup> Фрейд З. Психология бессознательного. М.: Просвещение, 1990. 439 с.

Darhaqiqat, xavotir har bir insonda mavjud. Biroq inson uni yolgʻon bilan xaspoʻshlashga urinadi. Kim boʻlishidan va qanday vazifani bajarishidan qatʻiy nazar, har bir inson oʻz xavotiri haqida qaygʻursa edi, u kimlar uchun masʻul ekanligini, qanday odamlar unga umid koʻzi bilan tikilib turganligini his etgan, oʻzidagi mavjud xunukliklardan tezroq xalos boʻlishga harakat qilgan boʻlur edi. Sartrning mana bu fikri esa biz aytgan gaplarni tasdiqlaydi; «Har bir inson uchun hamma narsa shunday sodir boʻladiki, goʻyoki butun insoniyatning nigohi unga qaratilgandek, goʻyo hamma oʻzi-ning harakatini uning qilmishlariga moslayotgandek. Zotan, har bir inson oʻz-oʻziga: «Haqiqatan ham qilmishlarimdan butun insoniyat namuna oladigan tarzda harakat qilishga mening haqqim bormi?», deyishi kerak. Agar u shu gapni aytmasa, demak, u oʻz xavotirini oʻzidan yashirgan boʻladi. Gap bu yerda kvietchilikka\*, harakatsizlikka olib boradigan tuygʻu haqida ketayotgani yoʻq. Bu qay darajadadir masʻuliyatni oʻz boʻyniga olgan har bir kishiga maʼlum boʻlgan xavotirdir»<sup>1</sup>.

Sartrning mazkur fikri bugungi kunning eng dolzarb vazifasi darajasiga koʻtarilgan: «Menga jamiyat nima berdi, deb emas, balki men jamiyat uchun nima qilyapman?» degan ichki talabni hayotning mazmuniga aylantirish borasidagi buyuk maqsad bilan hamohangdir.

Inson xavotiri borasida gʻarb faylasufi Erix Fromm (1900-1985) ham oʻziga xos fikrlarni oʻrtaga tashladi. Sartrdan farqli oʻlaroq, Fromm xavotir masalasida eʼtiborni texnologensivilizatsiyaga qaratdi; odamni robotga aylanib qolishidan xavotirlandi. Frommning nazarida, hozirgi zamon kishisi oʻzi barpo etgan ijtimoiy va iqtisodiy kuchlar qarshisida ojiz, u oʻz qoʻli bilan barpo etgan narsalarga sajda qiladi.

Darhaqiqat, jahon urushlari va mintaqaviy mojarolarning guvohi boʻlgan XX asrda yadroviy sinovlar, koinotni oʻzlashtirish, kompyuter texnologiyalari va shu kabi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot roʻy berdi. Biroq XX asrda ajdodlarimizning ming yillik tajribalari

---

\* Izoh. XVIII asrdan shakllana boshlagan diniy-axloqiy taʼlimot. Ezgulikka xam yovuzlikka ham Xudoning irodasidan, takdiri azaldan degan qarashni targʻib etgan va faollikdan chekinishga, ijtimoiy aloqalarni nihoyatda kamaytirish vositasida axlokiy poklikni saqlab qolishga chaqirgan.

<sup>1</sup> Sartr Jan Pol. Ekzistensializm toʻgʻrisida // Jahon adabiyoti jurnali. 1995. №5.

natijasida sayqal topgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar misli ko'rilmagan darajada e'tiborsizlikka mahkum etilganini, muhabbat, ezgulik, go'zallik deb atalgan buyuk tuyg'ular ma'lum ma'noda ermakka aylanib qolganini, ularga to'laqonli jiddiy munosabat bo'lmayotganini e'tibordan soqit qilmaslik zarur. Bunday holat ma'naviy inqiroz degani. Ana shu ma'naviy inqirozlar tufayli inson bir-biridan begonalashdi. Fromm esa ularni tahlil qilib, o'z oldiga «Inson kelajakdan nimani kutishi mumkin? Urushga va robotga qarama-qarshi qo'ysa bo'ladigan qanday muqobil narsa bor?» degan savolni o'rta tashlaydi. Bunga javoban: «U (inson-X.B) yangidan o'z-o'zini anglab olmog'i, yangidan sevishtirishga o'rganmog'i, o'z faoliyatini mazmunga to'ldirib, aniqlashtirmog'i talab qilinadi. U moddiylikka qaramlik chegaralarini tark etib, shunday bir darajaga ko'tarilmog'i lozimki, bunda muhabbat, haqiqat va adolat kabi ma'naviy qadriyatlar uning uchun chindan-da oliy ma'no kasb etadi. Ammo bizning hayotimizni xoh moddiy bo'lsin, xoh ma'naviy-faqat bitta tomoninigina o'zgartirishga intilish muqarrar tarzda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Darhaqiqat, faqat bir sohada taraqqiyot yuz bersa, bu boshqa sohalaridagi taraqqiyotni xarob etadi..., sotsializm esa faqat iqtisodiy rivojlanish to'g'risidagina o'ylagani uchun stalinizmni maydonga keltirdi»<sup>1</sup>.

Ko'rinib turibdiki, texnologiyalarning markazi hisoblangan, faqat ko'zga ko'rinib turgan, aql va idrokka asoslangan borliqigina tan olgan G'arbning ikki mutafakkiri ham inson xulqiy go'zalligini takomillashtirishda ko'hna Sharqning allaqachon tajribasidan o'tgan axloqiy muhit muammosiga e'tiborni qaratmoqda. Shu bois ular insonning tubanlashuvidan qutilish yo'lini axloqiy muhit – etikosferani yaratishdan iborat, deb bildilar.

Ho'sh, turli davlatlar, turli siyosiy kuchlarning bir-biriga zid bo'lgan manfaatlari o'zaro to'qnash kelayotgan bugungi murakkab jarayonda bu kabi muammolarni qanday hal qilish mumkin?

Biz, insoniy go'zallikni takomillashtirish yo'lida quyidagi tavsiyalarni maqsadga muvofiq, deb bilamiz;

Birinchidan, inson go'zalligining ma'naviy va jismoniy tomonlarini uyg'unlashtirishga erishish.

---

<sup>1</sup> Fromm Erix. Insonning hozirgi holati. // Jahon adabiyoti jurnali. 2000. № 1. - 109 b.

Bunda har ikki tomonning eng ilg'or qadriyatlariga e'tibor qaratilib, ular turli xil tadbirlar orqali insonning turmush tarziga singiriladi.

Ikkinchidan, tarbiyaning axloqiy, pedagogik, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy shakllarini tarbiyaning oliy shakli bo'lgan estetik tarbiya bilan hamohang tarzda olib borish.

Estetik tarbiya yohud tuyg'ular tarbiyasi shu ma'noda tarbiyaning eng oliy ko'rinishiki, inson tug'ilganidan boshlab, umrining so'nggi pallasigacha unga ehtiyoj sezib yashaydi. Chunki estetik tarbiya o'zining keng qamrovliligi bilan inson hayotiga san'at, adabiyot, matbuot, reklama, mehnat vositalari orqali ta'sir ko'rsatadi. Mazkur ta'sirning to'g'ri yo'naltirilishi o'z navbatida insonni;

- tug'ilib o'sgan ona zaminini sevishtga, uning qismatini o'z qismati deb bilishi, unga sidqidildan xizmat qilishga;

- mustaqil O'zbekistonning kelajagi buyuk ekanligiga va o'zbek nomini yanada keng tarannum etishga;

- taraqqiyotning umumbashariy qonuniyatlari va ularning ijobiy natijalarini o'zlashtirishga;

- jismonan va ruhan sog'lom bo'lish barobarida ilm-ma'rifatga, hunar va san'atga mehr qo'yishga;

- zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan tafakkuri ozod insonlar bo'lishga undaydi.

Uchinchidan, insonlarning estetik tafakkurini tubdan o'zgartirish, ijodiy fikrlashni shakllantirish, bunyodkorlikka intilish tuyg'ularini o'stirish lozim.

To'rtinchidan, har bir insonda tinchlik, osoyishtalik, ogohlik tuyg'ularini hayotiy zaruriyatga aylantirish, jamiyat rivoji uchun mas'ullik hissini uyg'otish zarur.

Bularning barchasi jamiyat hayotida, inson faoliyatida «yo hayot yo mamot» hisoblangan tarbiya masalasi bilan bog'liq tarzda amalga oshadi.

Bugungi kunda ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifaga aylangan. Chunki butun dunyoda globallashtirish jarayoni ketayotgan hozirgi davrda turli xil mafkuraviy kuchlarning ta'siriga berilish, bu kuchlarning g'arazli, g'ayriinsoniy maqsadlarni amalga oshirish jarayonida bilib-bilmay ishtirok etish holatlari tez-tez uchrab turibdi.



Endilikda mazkur bo'shliqni to'ldirish, xalqni turli xil tajovuzlardan himoya qilish zaruriy holga aylandi. Yosh avlodni ana shunday tajovuzlardan himoya qilish uchun xalqimizning azaliy an'analariga, dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanish hamda umuminsoniy va zamonaviy yutuqlarga tayanish zarur.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, go'zallik ma'naviy qadriyatlar tizimida muhim ahamiyat kasb etadigan va jamiyat hayoti uchun zarur bo'lgan dolzarb muammo sanaladi. Shuni inobatga olgan holda, ma'naviy qadriyatlar tizimida go'zallikning o'rnini-xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, ruhiyatiga asoslanib kelajakka ishonch va ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirish bilan belgilashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Zero, qadriyatsiz inson, jamiyat, tuzum bo'lmaganidek, ular go'zalliksiz ham yashay olmaydi. Qadriyatlarning go'zalligi inson barkamolligiga, jamiyat ravnaqiga, tuzumning insonparvarligiga xizmat qiladi. Aksincha, mohiyatan go'zallikka xizmat qilmaydigan qadriyatlar ustuvor bo'lgan jamiyat, inson, tuzum asta-sekin inqirozga yuz tutadi. Zotan, I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Biz barpo etayotgan yangi jamiyat yuksak ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Bu jarayon milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasiga, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanadi. Jamiyatni ma'naviy yanglishdan ko'zlangan bosh maqsad - yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligiga va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'p-ko'p masalalardan iborat»<sup>1</sup>.

#### **4.2. Shaxs kamolotida qalb go'zalligi va tashqi chiroy uyg'unligi**

XX asr bo'sag'asiga kelib, dunyoning siyosiy manzarasi tubdan o'zgardi. Bashariyat XX asr oxirida, qator muammolarga duch keldi: o'zaro nizolar, ma'naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorism, ekologik bo'hronlar shular jumlasidandir. Shuning bilan birga, kishilik jamiyati insonda oliyanob fazilatlarini shakllantirdi, rivojlantirdi, ayni paytda g'ayriinsoniylikning turli xil ko'rinishlarini ham o'z

---

<sup>1</sup> Karimov I. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga isho-naman.-T.: O'zbekiston. 2000. 10-bet.

boshidan o'tkazdi. Afsuslar bo'lsinki, insoniyatning butun tarixi davomida bunday illatlar unga hamrohlik qilib keldi va kelmoqda. Bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olayotganligiga e'tibor qaratgan holda aytishmiz mumkinki, insoniy go'zallikka doir estetik ideallarni yaratish masalasi hayotiy zaruriyatga aylandi.

Endilikda dunyo afkor ommasi inson go'zalligini mukammallashtirishda o'ziga xos yo'ldan bormoqda. Shulardan eng muhimi insoniy go'zallik masalasidir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, inson va go'zallik masalasi azaldan jamiyatning diqqat markazida turgan masalalardan hisoblanadi. Bu borada ilmiy manbalarda talaygina mulohazalar bildirilgan. Ayrimlar inson go'zalligini belgilashda uning tashqi qiyofasiga qarab baho berish kerakligini uqtirsalar, ikkinchi qarash tarafdorlari-inson go'zalligi uning axloqiy fazilatlarini bilan belgilanadi, degan g'oyani ilgari suradilar. Shulardan ikkinchi g'oya tarafdorlari ko'pchilikni tashkil qiladi. Biz esa mazkur ikki qarashni inkor etmagan holda, uchinchi qarashni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Ya'ni, inson kamolotida go'zallik zohiriy yoki botiniy tomonlardan birining ustuvorligi bilan emas, balki ikkala tomonning uyg'unligiga asoslanadi; birini ikkinchisidan ajratish inson go'zalligi haqida to'laqonli tasavvurni bermaydi. Zotan, axloqiy fazilatlar insonning botiniy go'zalligini mustahkamlasa, zohiriy (tashqi) ko'rinish ham insonga ijobiy tuyg'ular bahsh etadi.

Aksariyat hollarda insonning tashqi go'zalligiga nisbatan yuzaki munosabat bildiriladi; tashqi go'zallik shaxsning chinakam «Men»ini namoyon qilishiga to'sqinlik qiluvchi, o'tkinchi hodisa sifatida qaraladi. Jumladan, qadimgi hind hikmatnomasi «Kalila va Dimna»da yoshlarning go'zalligi dunyoda o'tkinchi bo'lgan narsalar sirasiga kiritilsa, XX asr turk mutasavvif allomasi Muhammad Zohid Qutqu esa «Tasavvuf axloqi» nomli asarida «Shubhasizki, ko'ngil go'zalligi, vujud go'zalligidan bag'oyat a'lo va afzaldir.» -deb uqtiradi<sup>1</sup>. Ko'r-kam xulqning go'zal yuz fazilatiga nisbatan ustuvorligini mazkur fikrlar orqali bilib olish qiyin emas.

Ammo bu fikrlar bir oz bahsli. Chunki insonning tashqi go'zalligi muayyan holatlarda shaxsning o'zigagina emas, balki boshqalarning

---

<sup>1</sup> Qutqu Muhammad Zohid. Tasavvufi ahlak. Kirilay-Ankara. SEHA. 1982. 154 b.

faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu borada buyuk donishmand G'iyosiddin Abulfath Umar Xayyomning «Navro'znoma» asarida bayon etilgan mana bu fikrlar diqqatga sazovordir: «Go'zallik barcha tillarda vasf etiladi va har qanday aqlga xush keladi. Dunyoda yaxshi narsalar ko'p, ularni ko'rib bahramand bo'lish odamlarni shod etadi va tabiatlarini pokiza qiladi, ammo hech narsa go'zal yuz o'rmini bosa olmaydi, chunki go'zal yuz shunday quvonch bahsh etadiki, boshqa hech qanday quvonch unga teng kelolmaydi. Aytadilarki, go'zal yuz dunyoga saodat sababchisidir. Agar go'zal yuz yana yaxshi xulq bilan uyg'unlashsa, baxt-saodatning eng yuqori darajasi bo'ladi. Agar odam ham tashqi ko'rinishdan, ham tabiati bilan yaxshi bo'lsa, Xudo va odamlar uchun sevimidir. Go'zal yuz to'rt fazilatga egadir. Ulardan biri shuki, go'zal yuz uni ko'rgan odamning shu kunini xayrli etadi, ikkinchisi, hayotdan bahramand bo'lish onlarini shirin qiladi, uchinchisi, u odamni ochiq ko'ngilli va oliyanob etadi, to'rtinchisi, boyligni ko'paytiradi va yuqori mansab ato qiladi»<sup>1</sup>. Allomaning mazkur fikri insonning zohiriy go'zalligiga doir mavjud munozaralarga oydinlik kiritadi.

Shuningdek, tashqi jamol va ichki jamolning uyg'unligi natijasida yuzaga keladigan ijobiy holatni alloma A. Fitrat «Oila» risolasida sodda qilib quyidagicha ifodalagan edi: «...Yuqorida zikr etilgan go'zallik (jamol) haqidagi so'zlarimiz zohiriy (tashqi) jamoldir. Agarda u botiniy (ichki) jamol bilan, ya'ni yaxshi xulq bilan bog'liq bo'lmasa, bir tiyinga qimmat. Kimki o'z ixtiyori tizginini hayvoniy shahvat qo'liga bermagan ekan, doimo ichki jamolini tashqi go'zalligi bilan, ya'ni husni ahloqini qora ko'zlar va kamon qoshlar bilan ziynatlaydi»<sup>2</sup>.

Bir so'z bilan aytganda, tashqi go'zallik inson go'zalligining mukammallashuvida o'ziga xos ahamiyatga ega. Biroq xunuklikning shunday unsurlari mavjudki (fikrimiz xunuk yuzga daxldor emas-X.B.), ular bevosita go'zal yuz fazilatlarining takomillashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur unsurlarni yuzaga kelishiga tashqi ta'sirdan ko'ra, ko'proq shaxsning o'zi sababchi bo'lib qoladi: bachkanalik, kaltabinlik, qo'rslik, husnni suiste'mol qilish, manmanlik, riyokorlik kabilar insonning tashqi go'zalligiga rahna soluvchi xunuklik unsurlari sanaladi.

---

<sup>1</sup> Umar Xayyom. Navro'znoma. T.: Mehnat. 1990. 54 b.

<sup>2</sup> Fitrat Abdurauf. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari.-T.: Ma'naviyat. 1998. 24 b.

Mazkur fikrlardan kelib chiqqan holda, aytishimiz mumkinki, soʻz, fikr, niyat, amal insonning axloqiy-estetik faoliyatida hamda xulqiy goʻzallikka erishish yoʻlidagi maqsad va intilishlariga asos boʻladigan, insonni toʻgʻri faoliyatga undaydigan maʼnaviy omillardir.

Bugungi kunda erkin fuqaro maʼnaviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan muhim vazifaga aylandi. Shuning barobarida inson barkamolligi degan tushuncha ham yangicha maʼno kasb etmoqda. Shu bois milliy istiqloq masalasida komil inson gʻoyasi muhim gʻoyalardan biri sifatida eʼtirof yetilganligi bejiz emas. Chunki «Komil inson gʻoyasi nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari etaklagan, ularni maʼnaviy va maʼrifiy sohasida tengsiz yutuqqa ilhomlantirgan»<sup>1</sup>.

Umuman olganda, yaxshi soʻz, shirin kalom, chiroyli muomala inson goʻzalligining sifatlaridan hisoblanadi. Aksincha, tili yomon odam xalq koʻnglini jarohatlaydi, oʻz boshiga ham ofat keltiradi. Soʻzda har qanday yaxshilikning imkoni bor, shuning uchun ham aytadilarki: «nafasning joni bor». Oʻzi xunuk, gapi bemaʼni, ovozi yoqimsiz odamdan yaxshilikni umid qilish befovdadir. Bu xususda Mavlono Avloniy deydilar:

*«Goʻzallik yuzda ermas, ey birodar,  
Soʻzi shirin kishi har kimga yoqar.  
Soʻzing oz boʻlsinu maʼnoli boʻlsun,  
Eshitganlar qulogʻi durga toʻlsun.  
Soʻzing boʻlsa kumush, jim turmak oltin,  
Misi chiqqay, soʻzing koʻp boʻlsa, bir kun.  
Koʻpaygan soʻzni boʻlgʻay toʻgʻrisi oz,  
Shakarning koʻpidan ozi boʻlur soz.»*

Zeroki, insonning izzati, dunyoning lazzati yaxshi soʻzlarni eshitub va koʻrub hissa olmak, yomon va zararliklarini oʻqub, bilub, oʻzini tiymak, qoʻldan kelgancha xalq va millat foydasiga tirtishmak va bu fano dunyodan yaxshilik otini olib ketmakdadur»<sup>2</sup>.

Tanishlar sonini koʻpaytirish va shaxslararo muvoffaqiyatli aloqa oʻrnatish sanʼatini egallash uchun bosiladigan birinchi qadam bu

---

<sup>1</sup> Iqtibos: Milliy istiqloq gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: Yangi asr avlodi. 2001.

<sup>2</sup> Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild. T.: Maʼnaviyat. 1998. 304 b. 61 b.

insonning borlig'i va uning haqiqiy mohiyatini anglashdir. Avvalambor, inson o'zgaga emas, o'ziga bo'lgan qiziqishni namoyon qiladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, uning o'ziga bo'lgan e'tibori boshqalarga e'tiboridan ming marta ustun turadi. Insonlar avval o'z-lari uchun g'amxo'rlik qilishadi» degan haqiqat alifbosi sizning boshqa odamlar bilan munosabatingiz asosini tashkil etadi. Shuningdek, u sizga boshqalar bilan muomala qilish uchun kuch va qobiliyat beradi.

Zardushtiylik falsafasida ta'kidlanishicha, inson iymon-e'tiqo-dining uchta yirik tayanchi bo'ladi: fikrlar sofligi, so'zdagi sobitlik hamda faoliyatning insonparvarligi.

Zardushtiylik qoidalariga ko'ra insonning barkamolligini belgilashda uning nafaqat tashqi qiyofasi, balki ma'naviy dunyoqarashi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun ham Axura Mazda tanalaringizga nisbatan qalbingiz haqida ko'proq qayg'uring deydi. Odamlar faqat jamiyatda inson bo'lib shakllanadilar, axloqiy mavjudot bo'lib tarkib topadilar. Muomala madaniyatini ham jamiyatda inson shakllantiradi. Demak, u axloqning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Insonning insoniyligini ifodalovchi fazilatlar, xislatlar, ayniqsa, inson ma'naviy qiyofasini ifodalochi asosiy mezonlarni aniqlash o'rta asr musulmon falsafasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri edi. Odobli-axloqli insonning ma'naviy madaniyati haqidagi ajoyib fikr-mulohazalarni o'rta asr Sharqining buyuk insonshunos olimlari Mahmud az-Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Pahlavon Mahmud qarashlarida yaqqol ko'rish mumkin.

Inson ma'naviy madaniyatining asosiy mezonini — axloqiy yetuklik hisoblanadi. Axloqiy etuklik esa, o'zida — halollik, insofilik, vijdoniylik, saxovatpeshalik, shafqatlilik, mehribonlik singari axloqiy fazilatlarini mujasaam etadi. Shunday ekan, muomala madaniyatining asosiy mezonini yaxshi xulq va go'zal fazilat uyg'unligi tashkil etadi.

Shuni qayd etish lozimki, insonni hayvondan farq qiladigan eng muhim xususiyatlaridan biri, uning o'zini yashashi, turmush uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish malakasiga ega ekanligidir. Bu malaka insonning insonlararo muomala madaniyatida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xulqiy go'zallikning estetik-axloqiy mohiyatiga ikki xil nuqtai nazardan yondashish mumkin. 1. Mavjudligi muayyan ichki va tashqi ta'sirlarga, vositalarga bog'liq bo'lmagan go'zallik. Bu ko'proq

insonning tashqi qiyofasiga daxldor xususiyat; insonning chinakam go'zal chehrasi har qanday soxta bejamalikkdan, «yasama go'zallikkdan» ustun turadi. 2. Muayyan ijobiy faoliyatlar, xatti-harakatlar, amallar, botiniy tuyg'ular orqali paydo bo'ladigan go'zallik. U ezgulik vositasida xulqiy go'zallikni takomillashtiradi.

Shu o'rinda e'tiborni adabiyotshunos olim Abdulla Ulug'ovning «Dunyoni ezgulik qutqaradi» nomli maqolasida («Jahon adabiyoti» jurnali. 2000 yil yanvar soni-X.B.) ilgari surilgan fikr-mulohazalarga qaratmoqchimiz. Muallif o'z maqolasida ulug' rus adibi Fyodor Dostoevskiy (1821-1881)ning «Telba» romanidagi knyaz Mishkin tilidan «Go'zallik dunyoni qutqaradi» degan fikrining mohiyatini tahlil qiladi. Qisqasi, maqolada muallif dunyoni faqat go'zallik orqali qutqarib bo'lmashligini, dunyoning taqdiri go'zallikka emas, balki insonning qalbiga bog'liq ekanligini o'zining mulohazalari orqali isbotlashga harakat qilgan. Maqolada tabiatning ko'rkam ko'rinishlari, odamlarning chiroyli yuz-ko'zlari, libosu uy-joylari zaminning qismat taqdiriga ta'sir qila oladimi? Ular fisqu fasod, hasad, ig'vo girdobida qolgan dunyoni bu chohdan qutqara oladimi? Turli-tuman gullar, sho'x-sho'x sayraydigan qushlar qabohatni qaytara oladimi? Yoki «gulchehra» qiyofalar shunday qudratga egami?-degan savollarni qo'yib muallif ularga qat'iy «yo'q» deb javob qaytaradi. Muallif, «Chaman-chaman gullar yoki osmono'par tog'lar o'zicha tubanlik botqog'iga botgan dunyo taqdirini o'zgartirmaydi. Bu chohdan dunyoni faqat pokiza qalb qutqara oladi. Negaki, u qalbdan chiqqan riyo tufayli qabohatga ko'milgan»<sup>1</sup>.

Mazkur fikrlar g'oyatda o'rinli va asoslidir. Chunki inson kamolotida go'zallikning faqatgina bir tomonigagina e'tibor berish unchalik ham to'g'ri bo'lavermaydi. Ammo maqolada ko'tarilgan masalaning ayrim jihatlarini to'ldirishni o'rinli, deb bilamiz. Bizningcha, dunyoni qutqarishda go'zallik va ezgulik bab-barobar xizmat qiladi, deyish to'g'ri bo'lardi. Chunki;

Birinchiidan - go'zallik ezgulikka nisbatan keng qamrovli tushuncha bo'lib, u tabiatda, jamiyatda va insoniy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Ezgulik esa faqat insoniy munosabatlar orqali yuzaga keladi.

---

<sup>1</sup> Ulug'ov A. Dunyoni ezgulik qutqaradi. // Jahon adabiyoti. 2000. № 3. 74 b.

Ikkinchidan - go'zallik mohiyatan insonning ham tashqi, ham ichki sifatlariga daxldor. Ezgulik esa insonning faqat botiniy ko'rinishinigina aks ettiradi.

Uchinchidan - go'zallik biror-bir harakatsiz yohud aksincha, muayyan xatti-harakat, faoliyat natijasida yuzaga keladi. Harakatsiz go'zallik ko'proq tabiatdagi go'zallikka daxldor bo'lsa, harakat orqali namoyon bo'ladigan go'zallik esa insonga xosdir. Tog'lar, chamanzorlar, bog'u rog'lar turg'un, biror-bir harakatsiz ham go'zallikni tarannum etishi mumkin. Bunday go'zalliklar, odatda, kishining ko'zini quvontiradi, tuyg'ulariga taskin beradi. Shu bois maqolada ta'kidlanganidek, go'zallikni faqat ko'zga ko'rinuvchi narsalar sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq emas. Inson o'z go'zalligini faqat ezgulikka yo'g'rilgan xatti-harakatlar orqaligina namoyon ettira oladi. Zero, ezgulik qilish faqat insonning zimmasida. Bunday mas'uliyat insondan boshqa biror-bir mavjudotga yuklangan emas, bu vazifani faqat va faqat inson bajara oladi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, ezgulik bu - axloqning ijtimoiylik xususiyatiga ega bo'lgan, faqat ijobiy ma'no kasb etadigan o'z-o'zicha, turg'un tarzda vujudga kelmaydigan, aksincha, insonning ijobiy xatti-harakatlari, faoliyatlari natijasida ro'yobga chiqadigan hodisadir. Ana shu hodisani ro'yobga chiqaruvchisi ham ezgulik sohibi bo'lgan inson hisoblanadi. Bu borada, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» kitobida ezgu inson haqida Elig tilidan quyidagi fikrlar bayon etilgan: «Oyto'ldi: Ezgu o'zi kim? U qanday odam bo'ladi? Ezguning fe'l atvori qanaqa bo'ladi?»

Elig aytdi: Ezguning barcha qilmishi va yo'riqlari xalqqa foyda va manfaat beradigan bo'ladi. Barchaga birdek yaxshilik qiladi, lekin evaziga ulardan mukofot minnatini qilmaydi. Ezgu o'z manfaatini ko'zlamaydi, boshqalarning keltirgan foydasidan o'ziga manfaat tilamaydi»<sup>1</sup>.

Bundan tashqari, ezgulikning yaxshilikdan farqi pirovardida biror-bir shaxsga yoki ijtimoiy taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi bilan belgilanadi. Yaxshilik esa bir paytning o'zida ham xursandchilik, ham noxushlik keltirishi mumkin; bir insonga qilingan yaxshilik o'zga bir odam uchun yomonlikka aylangan hollar ko'p bo'lgan.

---

<sup>1</sup> Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. T.: Fan, 1972. 70 b.

To'g'ri, chiroyli chehralar, xushmanzara bog'lar, ko'rkam maskanlar tabiat falokatlariga qarshilik ko'rsatolmasligi mumkin. Biroq ular insonda qabohat, razillik, tubanlikning yuzaga kelishiga izn bermaydi. Toki, inson go'zallikka manfaatparastlik, xirsni qondiruvchi vosita sifatida qaramasagina bunday salbiy hodisalar hech qachon yuzaga kelmaydi. Biz go'zallikni ezgulik bilan aynanlashuvi mana shunday holatlar orqali yuz beradi, deb hisoblaymiz. Go'zallikni ezgulikdan ajratib qo'yish, ayniqsa, insoniy munosabatlarda go'zallik masalasiga e'tiborsiz bo'lish uning mohiyatini bir tomonlama talqin qilish ijobiy natija bermaydi.

Ezgulik va go'zallik hamohang tushunchalar ekanligiga doir qarashlar g'arb faylasuflarining ham diqqat markazida bo'lgan. Jumladan, ingliz nafosatshunosi L.N.Skranton o'zining «Qadimgi san'atlarning estetik jihatlari» nomli kitobida go'zallikni mifologik tafakkur bilan bog'liq tarzda tadqiq qildi. Uning fikriga ko'ra, go'zallik ezgulikdan ajralmaydigan voqelik, inson kamolotida har ikkalasi bir-biri bilan bog'liq tarzda rivojlanadigan tushunchalardir<sup>1</sup>.

Ezgu o'y, ezgu niyat, ezgu so'z, ezgu amal singari hodisalar insonni kamolotga yetishuvi borasidagi muhim omillardir. Ularning inson xulqini go'zallashtirishdagi ahamiyati katta.

Ezgulikning go'zallik bilan qiyosiy tahlili borasida ilmiy manbalarda ko'plab fikrlar uchraydi. Jumladan, «Avesto»da insoniy go'zallikning uch muhim asosi - ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal to'g'risida gapiriladi. Zardushtiylk ta'limotining axloqiy-estetik mohiyatini tashkil etuvchi mazkur uch asos ayni paytda inson xulqiy go'zalligining mohiyati hamdir.

Shuningdek, xulqiy go'zallik mohiyatida inson xatti-harakatining sababi bo'lgan niyatning ahamiyati katta. Niyat bu - insonni faoliyatga, harakatga undovchi, biroq haqiqatga aylanmagan va aylanish ehtimoli bo'lgan axloqiy-estetik kechinma. Aytish lozimki, niyat insonning qalbida paydo bo'lib, asta-sekin harakat orqali reallikka aylanadi. Niyatning reallikka aylanishi uchun insonda avvalo, istak, xohish, maqsad bo'lishi shart. Chunki kishi o'ylagan har bir niyatiga erishishi uchun o'z oldiga maqsad qo'yadi. Shuningdek, niyat individuallik xususiyatiga ega. Shu jihatdan qaraganda, niyat ijobiy

---

<sup>1</sup> Qarang.: Scranton R. L. Aesthetic Aspects of Ancient Art.-Chicago and London, 1994. 14 b.



va salbiy ma'noga ega bo'ladi. Ijobiylik kasb etuvchi niyatning asosida go'zallikka muhabbat, ezgulikka e'tiqod yotadi. Aksincha, salbiy ma'nodagi niyat mohiyatan yovuzlikka daxldordir. Shu bois insonning oriyatli, nomusli ekani uning qilgan qilmishlari bilangina emas, balki ko'nglidagi niyati qandayligiga qarab ham belgilanadi. Zotan, niyati buzuq kimsalarning qilgan ishlari yaxshilik bo'lib ko'rinsada, mohiyatan yovuzlikka yo'naltirilgan.

Mazkur fikrlardan kelib chiqqan holda, aytishimiz mumkinki, so'z, fikr, niyat, amal insonning axloqiy-estetik faoliyatida hamda xulqiy go'zallikka erishish yo'lidagi maqsad va intilishlariga asos bo'ladigan, insonni to'g'ri faoliyatga undaydigan ma'naviy omillardir.

Shuningdek, mazkur omillar xususiylilik tabiatiga ega bo'lib, ularning har biri alohida holatlarda xulq go'zalligining u yoki bu tomonlarini aks ettiradi. Biroq insonning axloqiy-estetik munosabatlarida bular faqat bir-biri bilan chambarchas bog'langandagina chinakam go'zallikka aylanadi. Mazkur jarayonni oqilona boshqarilishi esa kishining iymoniga bog'liq.

Iymonga falsafiy-axloqiy tushuncha sifatida munosabat bildirib, akademik E. Yusupov, «Iymon shaxsning o'z e'tiqodiga tayangan holda boshqalarning niyati, qilmish-qidirmishiga, o'zining ishlariga, xatolariga munosabat bildirishidir. Iymon hayotda to'g'ri yo'l topishning mezoni hisoblanadi... Iymon e'tiqod asosida barqarorlashib borgach, insonning jamiyatdagi mavqeini, maqsad va intilishlarining yo'nalishlarini belgilab beruvchi asosiy ma'naviy omilga aylanadi»<sup>1</sup>.

Ta'kidlash lozimki, iymonning xoh diniy, xoh dunyoviy talqini bo'lsin, ular mohiyatan insonda ijobiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan. Zotan, so'z, fikr, niyat va qilingan chiroyli amallarni har ikki talqindagi iymon inkor etmaydi. Aksincha, iymon kishilarning bir-biri bilan chiroyli so'zlar orqali muomala qilishga, chiroyli fikrlar bilan maqsadga intilishga, chiroyli niyat asosida yashashga va ularni go'zal amal orqali mujassam qilishga undaydi. Bordi-yu inson chiroyli so'zlasa-yu, iymoni bo'lmasa, illat shuki bu yolg'onchilikka olib keladi; chiroyli fikrlarga ega bo'lsa-yu, iymonsiz bo'lsa, illat shundaki, bu ikkiyuzlamachilikka olib keladi; chiroyli niyatlar qilsa-yu, iymon bo'lmasa, illat shundaki, bu boqimandalikka, dangasalikka olib keladi va hokazo.

---

<sup>1</sup> Yusupov Erkin. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. -T.: Universitet, 1998. 51 b.

Ma'lumki, har qanday jamiyat, davlat poydevorining mustahkamligi ma'naviy va moddiy asoslarga bog'liq. Biroq davlatning kuchi, qudrati va hatto, iqtisodiy salohiyatini ma'naviy barkamol bo'lgan kishilar belgilaydi. Shuning uchun sog'lom jamiyat deganda, avvalo, fuqarolarning aql-idrokli, dunyoqarashi keng, axloqiy jihatdan etukligi nazarda tutiladi. Ijtimoiy hayot bilan ongli tarzda hamnafas bo'lgan kishilar kundalik ehtiyojlarini qondirish maqsadida - moddiy ne'matlarga, kecha, bugun va ertaning ma'naviy qadriyatlari to'g'risida o'ylaganda esa - ma'naviy ne'matlarga e'tibor qaratadilar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, inson paydo bo'lgandan buyon unga doimo ikki ehtiyoj hamrohlik qilib kelgan: biri - moddiy, ikkinchisi - ma'naviy. Agar moddiy ehtiyoj inson paydo bo'lgandan keyingi davrlarda birlamchi ahamiyat kasb etgan bo'lsa, shunday davrlar ham bo'ldiki, moddiylikka qaramlikdan ko'ra ko'proq ma'naviy qadriyatlar oliy maqomda e'tirof etildi. Bugungi kunga kelib, hayotni faqat bir tomoninigina o'zgartirishga intilish, e'tiborni faqat bir sohaga qaratish bilan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmasligi ayon bo'lmoqda. Inson kamolotida xulqiy go'zallikning estetik va ahloqiy mohiyatini ham shunga qiyoslash mumkin. Zotan, insonning faqat ma'naviy go'zalligiga e'tibor berish, uning jismoniy go'zalligiga putur etkazadi. Ayni paytda, ma'naviy go'zallik hisobiga jismoniy go'zallikni ulug'lash insoniyatni muqarrar tanazzulga olib keladi. Biz hozirda insonning ma'naviy va jismoniy go'zalligini uyg'unlashtirish masalalari dolzarb bo'lgan davrda yashayotganligimizni unutmasligimiz kerak. Ana shuni teran his qilganimizdagina ko'zlangan maqsadlarimizga etishishimiz mumkin bo'ladi.

Hayot jadal rivojlanmoqda. Hayot sur'atining juda tez o'sib borishi - yangiliklar, kashfiyotlarning ko'payishiga olib kelmoqda.

Tarixiy tajriba yana shuni ko'rsatadiki, asrlar, mingyilliklar almashish davrida odamlarga o'tmish, hozirgi kun va kelajak haqida o'ylash uchun imkoniyat yaratilar ekan. Biz ham asr va mingyilliklar almashinayotgan hozirgi davrda o'tmishimizdan saboq olib, istiqbolimiz haqida qayg'urishimiz zarur.

Faylasuf olim U.Qoraboev madaniyat kelajagi haqida ilmiy farazlarini o'rtaga tashlar ekan, XXI asrda koinotni o'zlashtirish, kosmik energiyadan foydalanish, tabiatni qadrlash, biosferani saqlash, toza havo va ichimlik suvi muammosi kabi hodisalar inson hayoti bilan birga, uning madaniyatiga jiddiy ta'sir qilishini uqitiradi.

«Jumladan, - deydi faylasuf,-fazoviy madaniyat, fazoviy kemalarda va yangi sayyoralarda insonning o'zini tutish odobi, kosmik energiyadan foydalanish madaniyati, asl tabiatni qadrlab, yangi tabiiy muhit yaratish madaniyati, ona er, toza havo, ichimlik suvini e'zozlash odatlari tiklanadi va uning yangi shakllari paydo bo'ladi»<sup>1</sup>.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Axloqiylik va axloqsizlik holatlarini tahlil qiling?
2. Inson botinini go'zalligining mukammallashuvida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tushunchalarni ko'rsating?
3. Xulqning inson kamolotidagi o'rni nima bilan belgilanadi?
4. Barkamollik tushunchasining zamonaviy talqinini izohlang?
5. Go'zallik va ezgulik tushunchalari o'rtasidagi o'xshash jihatlarda nimada?
6. Xulqiy go'zallikning axloqiy-estetik mohiyatiga doir yondashuvni tahlil qiling?
7. Inson tashqi ko'rinishining shaxs kamolotidagi o'rni nima bilan belgilanadi?
8. Niyat va iymonning axloqiy faoliyatdagi ahamiyati nimada?

### **Amaliy mashg'ulot savollari:**

1. Axloqiy fazilatlar va xulqiy go'zallik.
2. Insonning axloqiy xatti-harakati va axloqiyligi.
3. Shaxs kamolotining axloqiy mohiyati.
4. Xulq va uning ko'rinishlari.
5. "Barkamol inson" tushunchasining mohiyati.
6. Inson go'zalligi va estetik tarbiya vositalari.
7. Qalb go'zalligi va tashqi chiroy.
8. Xulqiy go'zallik omillari.

---

<sup>1</sup> Qoraboyev U. Madaniyat kelajagi yohud XXI asr madaniyati haqida ilmiy farazlar. // Ijtimoiy fikr, inson huquqlari, 2002. №2. 107 b.

## **5-BOB. MUOMALA MADANIYATINING MILLIY XUSUSIYATLARI**

### **5.1. So‘zlashuv madaniyatining milliy xususiyatlari**

Ma'lumki, har bir talaffuz qilingan jumlada talaffuz qiluvchining ruhiy-aqliy olami aks etib turadi. Ya'ni, u so'zni qanday va qay tarzda qo'llay olishi bilan suhbatdoshiga o'zi mansub bo'lgan ichki olam, uni qonun-qoidalari haqidagi xabar mazmunini ham, etkazadi. Avvalo, so'zlovchi ongida olam haqidagi biror xabar, fakt mavjud bo'ladi. Qaerda tovush obrazi talaffuz qilingan ongdagi tushuncha bilan uyg'unlashsa, o'sha erda ko'ngildagidek muloqot yuzaga keladi. Aksincha, tovush obrazi tinglovchi ongida biror tasavvur-tushunchani uyg'otmasa, bundan muvoffaqiyatsiz muloqot yuzaga keladi. Shu bois nutqiy muloqotda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabat g'oyatda muhim hisoblanadi. Agar so'zlovchining ham, tinglovchining ham so'zi ko'cha-jargon so'zlar bilan to'lib-toshgan bo'lsa, fikrini qiynalib, poyma-poy gapirsa, talaffuzi noto'g'ri bo'lsa, bu holatda eng mazmundor suhbat ham o'z mohiyatini yo'qotadi.

So'zlashuv madaniyati har bir til birligini sharoitga qarab, yillar mobaynida qabul qilingan me'yorlar asosida qo'llash san'ati hisoblanadi. Masalan, so'rashish, salomlashish madaniyatini olaylik. So'rashish barcha xalqlarning muomala madaniyatidagi muhim vosita bo'lib, u har bir xalqning milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos ko'rinishga ega. Ta'kidlash zarurki, so'rashish bilan salomlashish aynan bir tushunchalar emas. Salomlashish barcha xalqlarda salom berish odobi qoidalariga asoslanadi, u faqatgina qo'l berib ko'rinishdan iborat emas. So'rashish esa so'z, imo-ishora, mimika va xatti-harakat orqali ham amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, u inson madaniyatining barcha jihatlarini qamrab oladi.

So'zlashuv madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etgan olim F.Xolmurodova bir qator qiziqarli ma'lumotlarni bayon etadi. Xususan, mashhur so'z ustasi V.Dal o'zining «Rus xalqi maqollari» deb nomlangan kitobida qadimda rus xalqida qo'llanilgan salomlashish

uslublariga ko'plab misollar keltiradi. Masalan, qadimgi Rusiyada salomlashish paytida nafaqat qarindoshlik aloqalari yoki jinsi, balki kunning qaysi vaqti, suhbatdoshning kasbi va suhbat paytida so'zlashayotganlar, nima bilan mashg'ul ekanligi ham nazarga olingan. Jumladan, g'alla yanchuvchilar bilan salomlashganda «Po stu na den, po to'syache na nedelyu» («Kuniga yuzlab, haftasiga minglab») kabi so'zlar bilan murojaat qilishgan<sup>1</sup>.

O'zbeklarda ham nutqiy muomala madaniyatida shu kabi munosabat ko'zga tashlanadi. Jumladan, jamoa, odamlar bilan hamjihatlikda bajariladigan hashar, obodonlashtirish ishlarida ishtirok etayotganlarga «Hormanglar» deyiladi va ular tomonidan «Salomat bo'ling» yoki «Bor bo'ling» degan javob qaytariladi. Hosil yig'im-terimi paytida xirmon teppasida ko'rishganda esa «Hirmonga baraka» deyiladi va ular tomonidan «Umringizga baraka» degan javob qaytariladi. Mazkur so'rashish madaniyatiga e'tibor bersangiz, murojaat ohangi ham, javob ohangi ham mantiqiylik, nafosat hamda kishiga xush yoqadigan tarzda ifoda etiladi. Bu so'zlarning qudrati shundaki, ularni jahl ustida, g'azab bilan aytasangiz ham birovga og'ir botmaydi.

Tariximizga nazar solar ekanmiz, o'zbek tili o'tmishda naqadar boy, so'rashish uslublari xilma-xil va katta e'tiborga ega bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Masalan, ajdodlarimiz mehmonni «Hush kelibsiz, qadamlaringizga hasanot!» deb kutib oladi. Agar mehmon aziz, muhtaram va orziqib kutilgan bo'lsa, u bilan so'rashganda nihoyatda latif va sog'inch so'zlarni ishlatishga harakat qilingan. E'tiboringizni O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining «Ulug' saltanat» nomli tarixiy romanidagi Qutlug' Turkon oqa xonadoniga tashrif buyurgan Sohobqiron Amir Temur va temuriyodalarni kutib olish jarayonidagi so'zlashish madaniyatiga qaratmoqchimiz. «Saroymulxonim darvozadan kirgani hamon:

- Assalomu aleykum, g'amguzorim, mehribonim egachim! - deya ta'zim bajo ayladi va o'zini qutlug' Turkon oqaning quchog'iga otdi.

Oллоhga shukr! Oллоhga shukr! - egachi ardoqli kelinini bag'riga bosgancha uzoq vaqt qo'yib yubormadi...

---

<sup>1</sup> Qarang: Xolmurodova F. So'zlashuv madaniyati. // Til va adabiy ta'lim. 2001. №2. 66 b.

Umarshayx Mirzoning onasi To'lun oqa, Mironshoh Mirzoning onasi Mengli bika va Tog'ay Turkon oqalar nim tabassum ila muhtarama egachining katta xonim bilan ko'rishishayotganini kuzatib turardilar.

- Marhabo, xonadonimizga xush kelibsizlar! — uyga taklif etdi egachi quvonchi cheksiz, mehmonlar bilan ko'rishib bo'lgach... Malikalar shohona bezatilgan dasturxon atrofiga tiz cho'kishdi. Duoi fotiha tortildi.

- Barchangizga podshohliq qutlug' bo'lsun, ardoqli kelinlarim!- dedi qutlug' Turkon oqa qo'llarini ko'ksiga qo'yib.

Kelinlar va kanizaklar o'rinlaridan turdilar davoz bilan egachiga bosh egdilar:

-O'zingizga ham qutlug' bo'lg'ay, ey bonuyi kubro hazrati oliyalari!..»<sup>1</sup>.

Mazkur muloqotni so'zlashuv madaniyatining o'ziga xos namunasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, "g'amguzorim", "mehribonim", "muhtarama", "ardoqli", "qo'llarini ko'ksiga qo'yib", "bonuyi kubro" iboralari bilan qilinadigan har qanday murojaat o'zining nafasati bilan kishi dilini xushnud qiladi, insonga xush yoqadi.

Har qanday muloqotda so'z asosiy vosita hisoblanadi. Ayniqsa, bu so'zlashuv madaniyatida ko'proq namoyon bo'ladi. Salomlashish ham so'zlashuv madaniyatining bir ko'rinishi sifatida inson odobining mahsulidir.

Salomlashish - insonga nisbatan hurmat belgisi bo'lib, u odamlar orasidagi o'zaro muomala munosabatining boshlanishi hamda muloqotning debochasidir. Salomlashish odobini mazmun-mohiyatiga ko'ra turli xalqlar turlicha o'zlashtirganlar. Olaylik, Evropa xalqlarida bosh kiyimni echib salomlashish madaniyatilik belgisi hisoblansa, Sharq xalqlarida qo'lni ko'ksiga qo'yib salom berish hurmat belgisi sanaladi.

Har qanday axloqning, xulqning va odobning mezonlari davrlar o'tishi bilan o'zgarib, takomillashib (yoki zaiflashib) boradi. Bu jarayon muhit, munosabat, an'ana va odat kabi bashariyat tomonidan shakllangan omillar bilan bog'liq. Salomlashish ham bu jarayonlardan

---

<sup>1</sup> Qarang: Muhammad Ali. Ulug' saltanat. Tarixiy roman. Birinchi kitob. Jahongir Mirzo. T. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003. 336 b. 174-177 betlar.

xoli emas: u ham o'zgaradi. Shuni aytish kerakki, salomlashish faqat so'z bilan emas, balki xatti-harakat orqali ham amalga oshiriladi. Bunday holatni bugungi kunda turli xil ko'rinishlari mavjud: qo'l berib, quchoq ochib, o'pishib, boshni boshga urib (bu, ayniqsa, o'smir yoshdagilar o'rtasida urf bo'lib bormoqda) ko'rishib salomlashish shular jumlasidandir. Biroq doimo «Kim birinchi bo'lib salomlashishi kerak?», «Qo'l berib so'rashish qoidalari qanday?», «Salomlashganda qanday murojaat qilinadi?», «Suhbatlashish qanday qoidalarga asoslanadi?» degan savollar ko'pchilikni qiziqtirishi shubhasiz. Quyida ushbu masalalarga tegishli ayrim qoidalarni bayon etamiz:

### **Salomlashish odobi.**

Kichik yoshdagilarning katta yoshdagilarga salom berishi odobdan sanaladi.

Erkaklarning ayollarga birinchi bo'lib salom berishi ularga nisbatan hurmat belgisidir.

Xonaga kirib kelgan odam xonada o'tirganlarning barchasiga salom berishi bugungi kundagi salomlashish odobining o'ziga xos ko'rinishlaridandir.

O'quv binolaridan farqli o'laroq ishlab chiqarish korxonalaridan, zinadan chiqayotgan kishi zinadan tushayotgan kishiga salom berishi lozim. Lekin ustozga shogird doimo salom berishi shart.

Yoshi va mansab lavozimiga ko'ra teng mavqedagi kishilar uchrashganda birinchi bo'lib salom bergan odam madaniyatli hisoblanadi.

Mehmonga kelgan odam eshikni ochgan mezbonga salom berishi kerak.

Ko'pchilik oldiga yaqinlashganda kamchilik salom berishi ham go'zal xulq namunasidir.

### **Qo'l berib so'rashish qoidalari.**

Qo'l berib salomlashish madaniyatning bir qismi sifatida shakllangan jarayondir. Qo'l berib so'rashish, odatda, erkaklarga xos xususiyat hisoblansada, hozirda u barcha yoshdagi va jinsdagi insonlar uchun ham birdek amal qilmoqda. Chunki qo'l berib so'rashish orqali inson insonning kayfiyatini, sog'ligini, hatto fe'l-atvorini ham bilib olishi mumkin. Qo'l berib salomlashishning ushbu xususiyatlari ikkitomonlama muloqotning boshlanish belgisidir. Qo'l berib so'rashish, asosan, tanishish va tanishtirish marosimida, shartnoma va bitim imzolaganda, g'oliblik va mag'lublikni tan olganda,

2 p  
1 k  
minnatdorchilik izhor etganda, tabriklaganda, xayrlashganda va hokazo holatlarda qo'llaniladi. Quyida e'tiboringizga havola qilinadigan tavsiyalar qo'l berib so'rashishning odobiga tegishlidir:

1. Sizga uzatilgan qo'l, albatta, olinishi shart. Muallaq qolgan qo'l insonning izzat-nafsini yerga urish bilan barobardir.

2. Qo'l berib so'rashganda sherigingizning qo'lini engil siqib qo'yishni unutmang. Qo'lni qattiq siqib, ozor berish madaniyatsizlik va farosatsizlik belgisi sanaladi.

3. Qo'l berib so'rashganda munosabatingizni "Salomatmisiz", "Yaxshi yuribsizmi", "Ishlaringiz yaxshimi", "Omonmisiz", "Uydagilar salomatmi" kabi iliq so'zlar orqali ifodalashga harakat qiling.

4. Qo'l berib so'rashish tez va qisqa bo'lishi lozim. Ayniqsa, ayol kishi bilan so'rashganda, uning qo'lini uzoq ushlab turish mumkin emas. Chunki bu holat ayol kishini noqulay vaziyatga solib qo'yishi mumkin.

5. Qo'l berib so'rashganingizda ozgina egilib qo'yishingiz so'rashayotgan insonga nisbatan hurmatingizni bildiradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, qo'l berib so'rash jarayonidagi ayrim illatlar kishining nafsoniyatiga tegishi, ularni ranjitishi, hatto oraga sovuq munosabatni olib kelishi mumkin. Bu ayniqsa:

- 3 p  
2-k
- uzatilgan qo'l muallaq qolganda;
  - qo'l uzatilganda teskari qarab qo'l uzatilsa;
  - qo'l uchida so'rashilsa;
  - qo'lni juda qattiq siqib yuborilsa;
  - uzatilgan qo'lni turli qiliqlar bilan qabul qilsa;
  - qo'l uzatganda uzrsiz bilak, tirsak, musht, barmoqlar uzatilsa va hokazo.

### **Murojaat qilish odobi.**

Murojaat insondan axloqiy, estetik, madaniy me'yorlarni belgilangan qoidalar asosida amalga oshirishni talab qiladi. Murojaat ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan munosabat turi bo'lib, ular og'zaki yoki yozma ko'rinishga ega. Murojaat insonning qanday tarbiya ko'rganligini, o'zgalarga nisbatan hurmatini, did-farosatini, izzat-nafsini bilish mumkin bo'lgan axloqiy xatti-harakatlar majmuasidir. Murojaat qilib aytilayotgan so'zlar nafaqat hurmat belgisi, balki maqsadga erishish vositasi hamdir. Murojaat vaziyatga, sharoitga, jamoaga, muhitga qarab yakka



shaxsga yoki jamoaga yo'naltirilgan bo'ladi. Biroq barcha murojaatlar axloq me'yorlariga bo'ysingandagina ijobiy natija berishi mumkin.

Murojaat qilish bir necha turlarga bo'linadi. Ularni, asosan, rasmiy murojaat va norasmiy murojaatlarga ajratish mumkin.

Rasmiy murojaatlar, asosan, qat'iy tartib va belgilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi. Rasmiy murojaatlar mehnat jamoasida rahbarga, ishlab chiqarish korxonalarida yetakchi mutaxassisga, ta'lim muassasalarida ta'lim beruvchi ustozga, harbiy va huquq tartibot organlarida unvoni katta zobitlarga, davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda jinsga qarab yoki barchaga rasmiy murojaat qilinadi. Masalan, «Honimlar va janoblar», «Muhtaram elchi janobi oliylari», «O'rtoq boshliq yoki o'rtoq komandir», «Janobi direktor», «Ustoz Muzaffar Ahmedovich» va hokazo.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, rasmiy murojaatlarda faqat sizlab murojaat etish maqsadga muvofiq. Chunki "sen" degan murojaat oradagi munosabatlarning samarali natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Odatda, zamonaviy muomala madaniyatida 9 yoshdan yuqoridagilarga nisbatan "siz" deb murojaat qilish maqsadga muvofiq sanaladi. "Sen" deb murojaat etish esa, faqat oilada, yaqin qarindoshlar, do'stlar orasida aytilishi o'rinlidir.

Norasmiy murojaatlar rasmiy murojaatlarga nisbatan kengroq va doimiy ravishda qo'llaniladi. Norasmiy murojaatlar, asosan, kundalik hayotda, o'zaro muloqotda ishlatiladi. Murojaatning bu turini umumiy ma'noda yaqin insonlarga qilinadigan murojaatlar, intim murojaatlar hamda nomsiz murojaatlarga ajratish mumkin. Xususan:

Yaqin kishilarga qilinadigan murojaatlarda ishonchlilik, do'stona va samimiy munosabat ustuvor ahamiyatga ega. "Hamkasaba", "Og'ayni", "Amaki", "Xola", "Kelinoyi", "Og'a" kabi murojaatlar bunga misoldir.

Intim murojaatlarda shaxsga nisbatan chiroyli, yoqimli, erkalash ma'nosidagi so'zlardan foydalangan holda, murojaat etiladi: "Azizim", "Mehribonim", "Jonim", "Begim" kabi so'zlardan o'rnida va samarali foydalanish zarur. Murojaatning bu turi insonning didli va farosatli ekanligini ham belgilaydi. Biroq ushbu so'zlarni bemavrid ishlatish insonni bachkanalikka olib keladi. Ayniqsa, «jonim» so'zini barchaga nisbatan ishlatish aslo mumkin emas, bu so'z faqatgina nikohdan o'tgan, hayotini bir-biri bilan bog'lagan kimsalarga nisbatan ishlatilsa, maqsadga muvofiq.

Nomsiz murojaatlarda shaxsni kim ekanligini yaqindan bilish katta ahamiyatga ega emas. Bunday murojaat qisqa mazmunda bo'lib, biror noma'lum obekt yoki subyektni aniqlash, u haqda muayyan ma'lumot olish uchun qo'llaniladi. Masalan, "Kechirasiz, Nukus ko'chasini ko'rsatib yuborsangiz?" "Ma'zur tutasiz, sizning manzilingiz men boradigan joydan uzoqroqda ekan", "Xonadoshingiz siz haqingizda yaxshi fikrlar bildirdi» singari murojaatlarda shaxsning aniq ismi ko'rsatilmasa-da, u haqdagi ma'lumotlar va aytiladigan fikrlar tushunarli bo'ladi.

### **Suhbatlashish odobi.**

Suhbatlashish muomala madaniyatini shakllantirishning muhim vositalaridan biri sanaladi. Har qanday suhbat, avvalo, ma'lumotlar almashinuvidir. Suhbatlashish orqali insonlar bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar, bir-birlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar, bir-birlarini tushunib boradilar va muomala madaniyatlaridagi ayrim bo'shliqlarni to'ldiradilar. Zero, shoir Chustiy ta'biri bilan aytganda:

*Orttirur mehringni hardam mehribonlar suhbatlari,  
Jonga jon bahsh aylagandek, jonajonlar suhbatlari.  
Sira oson bo'lmagan mushkul tugunlarni echar,  
Fikr qiling qirq yoruvchi nuktadonlar suhbatlari<sup>1</sup>.*

Suhbatlashish odobida quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

\* suhbatlashayotgan kishilarning gapini bo'lmaslik lozim. Agar zarurati bo'lsa, albatta, uzr so'rab, murojaat etish kishining madaniyatli ekanligini bildiradi;

\* suhbat mavzui haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmay turib, suhbatga aslo aralashmang, zero, oqibatda bemavrid fikringiz uchun uyalib qolishingiz ehtimoli mavjud;

\* suhbatlashayotganlarga qarata luqma tashlamang. Bu o'rinsiz qilg'ingiz suhbatlashayotganlardan birini ranjitishi mumkin;

\* suhbatdoshga og'ir botadigan, uni xafa qiladigan, noqulay vaziyatga solib qo'yadigan hamda suhbatdoshingiz xohlamaydigan

---

<sup>1</sup> Chustiy. Ko'ngil tilagi. Chust matlubot jamiyati uyushmasi. 1994. 37-bet.

mavzu bo'yicha suhbat qurmang. Bu borada zehnlil va farosatli bo'lish kishi uchun doimo muvoffaqiyat olib kelgan;

\* suhbatdoshingizni haddan ziyod maqtab yubormang. O'rinsiz maqtoV do'stona munosabatga putur yetkazadi. Shuningdek, suhbatlashayotganda "men"ingizni markaziy o'ringa qo'ymang. Chunki bunday suhbatlar aksariyat hollarda zerikarli bo'ladi;

\* suhbatdoshingizning kimligi, mavqei, qiziqishi, ijtimoiy kelib chiqishi va hokazo shu singari xususiyatlarini avvaldan bilishga harakat qiling. Shunda u bilan bo'ladigan suhbatlingiz mazmunliroq bo'ladi;

\* suhbatdoshingizni hurmat qilishga o'rganing, hatto uni fikrini siz noto'g'ri deb bilganingizda ham oxirigicha eshiting;

\* tanimagan yoki endi tanishgan odamlar bilan suhbatlashishdagi asosiy mavzular, albatta, sport yoki seriallar bo'ladi. Biroq bunday suhbatlarda oilaviy masalalar, shaxsiy hayotdagi kelishmovchiliklar, ish joyidagi muammolar haqida suhbatlashish o'rinsizdir. Shuningdek, suhbatlashayotganlar uch va undan ortiq kishini tashkil qilsa-da, ikki tanish odam bir-biri bilan o'zlari bilgan mavzuda suhbatlashishlari boshqalarga nisbatan hurmatsizlikni bildiradi;

\* suhbatga qo'shilishni istasangiz, albatta, suhbat mavzusini, suhbatlashayotganlarning kayfiyatini hisobga oling. Yaxshi kayfiyatda suhbatlashayotganlarga qo'rqinchli, vahimali, ko'ngilsiz holatlar haqida gapirmang. Ayniqsa, bemor bilan suhbatlashganda juda ehtiyotkor bo'ling, bemorning ko'nglini yaxshi, muloyim hamda kasalligidan biroz bo'lsa-da, chalg'ituvchi so'zlarni topib gapirish maqsadga muvofiq;

\* suhbatlashishning asosi faqat gapirishdan iborat emas, balki tinglash hamdir. Ammo tinglash faqat eshitib o'tirish degani ham emas. Yaxshi suhbatdosh suhbatdoshining fikrini tinglaydi, gapining mag'zini chaqishga harakat qiladi, fikrlaridan mantiqiy xulosalar chiqaradi, qo'shilmagan taqdirda "Darhaqiqat, manabu fikringizda jon bor, biroq avvalgi gapingiz biroz mubolag'ali» yoki "Kechirasiz, menimcha shu fikringizni boshqacharoq ifoda etganingizda yanada tushunarliroq bo'lar edi», yoki "Fikringizni bo'lganligim uchun uzr, lekin men buni boshqacha tasavvur qilaman» va hokazo. Zinhor "Bo'lishi mumkin emas", "Gapingiz mutlaqo noto'g'ri", "Bu haqda hech narsani bilmaysiz", "Siz aytayotgan gaplarni yosh bola ham

biladi” degan iboralarni ishlatmangki, bu suhbatdoshingizning izzati, nafsoniyatiga tegadi;

\* suhbat paytida hadeb soatga qarash, yon-atrofga alanglash, boshqa birovga pichirlab gapirish hurmatsizlik va madaniyatsizlik belgisi sanaladi. Bu holat suhbat olib borayotgan kishiga nihoyatda salbiy ta’sir ko’rsatadi. Natijada suhbat samarasiz yakunlanadi.

Bugungi voqelik olamning ko’p ishlari va haqiqatlariga yangicha qarash, ularni butun murakkabliklarini yangicha idrok qilish va yangicha siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy mezonlarda baholashni talab etadi.

Milliy ma’naviyatimiz va qadriyatlarimizning qayta tiklanishi, o’zligimizni anglay boshlaganimiz tufayli bugun har birimizning ongimiz, tafakkur tarzimizda muhim ijobiy o’zgarishlar ro’y bermoqda. Hayotiy o’zgarishlar odamlarimiz qalbi va ongiga singib, ularda kelajakka ishonch tuyg’usini, Vatanga muhabbat, erkinlik hissini tarbiyalamoqda. Mazkur jarayonlar so’zlashuv madaniyatini takomillashtirishda, uni yanada go’zallashtirishda har bir kishidan e’tiborli bo’lishni talab etadi.

## **5.2. Turmush tarzi madaniyatining milliy xususiyatlari**

Jahonning ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-madaniy sohalaridagi chuqur o’zgarishlar hayotimizga shiddat bilan kirib bormoqda. Olib borilayotgan tub islohotlar dunyoning avvalgi manzarasini o’zgartirib yubormoqda. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o’z taraqqiyot yo’lini, davlatni mustahkamlashning insonparvar asoslarini izlaydi, shuning barobarida yangi jamiyat barpo etishda o’z andozasi, o’ziga xos va o’ziga mos yo’lni tanlaydi. Zero, ijtimoiy-madaniy va ma’naviy vaziyat, odamlar o’rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, jumladan. turmush madaniyati, axloq me’yorlari, milliy an’analar shuni taqozo etadi.

Mamlakatimizning chinakam mustaqillikka erishishdan iborat o’z yo’li respublikani rivojlantirishning bir qator o’ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanishini ta’kidlab, Islom Karimov «Avvalo, u aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an’analar va urf-odatlarini

dan kelib chiqadi”, - degan fikrni aytgan edi<sup>1</sup>. Darhaqiqat, chuqur ildizi o‘tmishdagi an’anaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan jamoaviylik asoslari O‘zbekiston xalqiga tarixan xosdir. Bu borada xalqimizdagi mehmondo‘stlik, saxovatpeshalik, millatidan qat’iy nazar odamlarga xayrixohlik, mehr-muruvvatlilik, o‘zgaralar qayg‘usiga hamdard bo‘lish, o‘zaro yordam tuyg‘usi, kishilar o‘rtasidagi madaniy-axloqiy munosabatlarning asosiy me‘yorlaridan hisoblanadi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosida ham, shuningdek, odamlarning turmush tarzida, kundalik hayotida, ruhiyatida hamda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda ana shunday ma’naviy omillar sezilarli ta’sirga ega. Zero, mamlakatimizda boshlanadigan har bir yil insonni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan nom bilan atalayotganligi “Inson islohot uchun emas, islohot inson uchun” tamoyiling amaldagi ifodasi bo‘lib bormoqda.

Shuni ta’kidlash zarurki, so‘nggi yillar mobaynida kishilarning ijtimoiy ongida muayyan o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Endilikda qadriyatlarni yangicha baholash, ularni takomillashtirish, ilg‘or milliy an’analarni saqlagan holda umuminsoniy qadriyatlarni hurmatlash tuyg‘usi shakllanmoqda. Respublikamizning yangilanish va ijtimoiy taraqqiyot yo‘li ijtimoiy turmushining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’rifiy, ma’naviy-madaniy va boshqa sohalarini qamrab oladi. Bu yo‘l mustaqil O‘zbekiston ichki va tashqi siyosatining umumiy strategiyasini belgilab beradi. Shu bois yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishini kafolatlaydi. Shu bois, mamlakatimizning ijtimoiy-ma’naviy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarda ma’naviyat va axloqlikni qayta tiklash, ma’naviy-madaniy merosga ijobiy munosabatda bo‘lish, xalqning milliy madaniyati va o‘ziga xosligini ifoda etuvchi an’analarni rivojlantirish, uning go‘zalligini ro‘yobga chiqarish muhim ahamiyatga ega.

Kishilarning turmush tarzi va madaniyatini, maishiy hayotini takomillashtirish, shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamma vaqt jamiyatning muhim va asosiy maqsadi bo‘lib kelgan. Axloqiy fazilatlar, ularni shakllantirishning milliy jihatlari har doim saqlanib qoladi va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga moyil bo‘ladi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. O‘zbekiston, 1993. 40 b.

Xalqimizning milliy ma'naviyati, o'ziga xos axloqiy fazilatlari, turmush tarzi madaniyati bugungi kundagi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridandir. Shuningdek, turmush tarzi madaniyatining milliylik xususiyatlari xalqning an'analari va urf-odatlarida, kundalik hayoti va ma'naviy turmush sohalarida o'z aksini topadi. Ana shulardan biri bo'lgan mehmondo'stlik va uning xalqimiz madaniy hayotida tutgan o'rni haqida fikr yuritamiz.

Mehmondo'stlik xalqimiz turmush tarzining bir qismi bo'lib, ko'p asrlar davomida tarkib topib, hayot tajribasidan o'tgan axloq va nafosat maktabidir. Mehmondo'stlik tushunchasi umumiy ma'noga ega bo'lib, mehmondorchilik, mehmonnavozlik, mezbonnnavozlik, mehmon bo'lmoq kabilar mazkur tushunchaning tarkibiy qismiga kiradi. Shuningdek, mehmondorchilik insoniy fazilatlardan hisoblanadi. Chunki mehmondorchilik nafaqat ulfatchilik. qorin to'y-dirish yoki dasturxon bezatib, tansiq taomlarni odamlarga berish, balki kishining holidan xabar olish, ulug' insonlarni ziyorat qilish maqsadida, ularning uyiga borish ham mehmondo'stlikning bir ko'rinishidir. Zero, mehmon "atoyi Xudo" sifatida qadrlı ekan, uyingizga ochiq ko'ngil va yaxshi niyat bilan qadam ranjida qilgan har bir kishi siz uchun mehmon kabi azizdir. Mehmondorchilik o'ta nozik fazilat bo'lib, u insondan yuksak did, farosatni va axloqiylikni talab etadi. Bu jarayon gohida oriyatga ham aylanadi.

Mehmondorchilik - ko'rishuv, muloqot, muomala uchun subyekt vazifasini bajaradi. Unda takalluf, mulozamat, hurmat, tavoze kabi ko'rinishlar ustuvor bo'lib, ular mehmonning kayfiyatini ko'tarishga, ko'nglini olishga yo'naltiriladi. Mehmondo'stlikning ijtimoiy-ma'rifiy, ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatiga doir ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan faylasuf olim Karim Mahmudov bu borada g'oyatda qimmatli ma'lumotlarni to'plagan. Xususan, olimning «Mehmonnoma» kitobida mehmondorchilik marosimining odobi, fazilati, qoidalari, tartibi va milliy xususiyatlari bayon etilgan. Olim mazkur kitobda mehmondorchilikni qadriyat darajasida talqin etishi barobarida, uning nazariy va amaliy tomonlarini ham e'tibordan chiqarmaydi. Ayniqsa, mehmon va mezbon odobiga doir nasihatlar, mehmondorchilik qoidalari, mehmon toifalari, mehmonga munosabat, mehmonga taklif, mehmondorchilik turlari kabi mavzularda mehmondorchilik nafaqat marosim, ayni paytda, milliy madaniyat ko'rki sifatida gavdalantirilgan. Mehmondorchilikning chiroyli o'tishi,

asosan, mezbonning kayfiyati, fe'l-atvori, axloqiy tarbiyasi hamda mehmonga nisbatan bo'ladigan munosabatiga bog'liqligini K.Mahmudov bir necha hayotiy misollar va rivoyatlar orqali ko'rsatib beradi. Ayniqsa, "Uyiga mehmon kelmay qolsa, odamlardan o'pkalay bermay, har kim o'ziga, odob-axloqiga nazar tashlamog'i joiz", "Mezbonning ko'pchilikka malol keladigan odati bo'lsa, bundaylardan ham mehmon yuz o'giradi", "Mehmonni malol ko'radigan odam o'zi ham mehmon bo'lganda, malol kelishini o'ylashi kerak"<sup>1</sup>, - degan fikrlari mehmondorchilik marosimi botin va zohiriga ko'ra axloqiy-estetik jarayon ekanligidan dalolatdir.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, Sharqni deyarli barcha allomalarining axloqiy-tarbiyaviy pandnomalarida xalq turmush tarziga oid o'g'itlar, kundalik faoliyatiga doir nasihatlar davr nuqtainazaridan tahlil qilingan. "Qutadg'u bilig", "Devoni lug'atit turk", "Qobusnoma", "Axloqi Muxsiniy", "Makorim ul-axloq", "Guliston", "Bo'ston", "Mahbub ul qulub" kabi pandnomalarda insonning jamiyatdagi o'rni, turmushdagi kechmishi, kundalik faoliyatidagi harakatlar axloqiy-estetik tizim orqali ifodalanadi. Jumladan, Kaykovus qalamiga mansub "Qobusnoma"ning "Mehmon olmoq va mehmon bo'lmoq zikrida" deb nomlangan bobini o'qir ekansiz, mehmondorchilik qoidalari, fazilat va illatlari nimalarga bog'liq va nimalarda ko'rinishini anglab etasiz<sup>2</sup>.

Bu borada chiqargan xulosalarimiz shundan dalolat beradiki, mehmondorchilik qoidasi va fazilatlarini ushbulardir:

\* har kuni mehmon chaqirgandan ko'ra, ularni bir marta chaqirish lozim, toki dasturxonga qo'yilgan ne'matlar bodastir va aybsiz bo'ladi.

\* uyingizga qadam ranjida qilgan odamning oldiga peshvoz chiqing va ular bilan chiroyli muomala qilingki, ular sizning duoningizni qilsin.

\* zinhor mehmondan yuqoriga o'tirmang. Agar mehmon sizni o'tirishingizga rozilik bildirsagina ular bilan birga bo'ling. Yo'qsa, uzingizni so'rab, «mezbonlik» ishlaringizni davom ettiring.

\* mehmonga «Undan oling, bundan oling. Nega hech nima emayapsiz, bularning bari sizlar uchun qo'yilgan. Agar dasturxonda

---

<sup>1</sup> Mahmudov Karim. Mehmonnoma. . T.: "Yosh gvardiya" nashriyoti, 1989. 26 b.

<sup>2</sup> Qarang: Kaykovus. Qobusnoma. T.: Istilol, 1994. 53 b.

etishmovchilik bo'lsa, uzr, boshqa kelganlaringizda batafsil qilamiz», degan mulozamatni hadeb aytayvermang. Bunday so'zlar, ayniqsa, tarbiyali insonlarga yarashmaydi.

\* mehmon garchand og'ir botadigan so'zlarni gapirsa ham, unga qattiq gapirmaslik, uni hurmat qilish zarur.

Mehmondorchilikdagi *illatlar* quyidagilarda namoyon bo'ladi:

\* mehmonga ta'na qilish, dasturxondagi ne'matlar va taomlarni maqtayverish;

\* huda-behuda kulaverish;

\* ochko'zlik qilib, oldidagi narsalarni eb tugatish;

\* mehmonlar oldida xonadon a'zolariga (xotini, farzandlari va xizmatkorini) tanbeh berish, ularni so'kish va haqoratlash.

Biz «Qobusnoma»da keltirilgan o'g'itlarning matnini soddalashtirib, ushbu holatda tavsiya etishimizdan maqsad, ularning bugungi kundagi ahamiyati biroz bo'lsa-da, kamaymaganini ko'rsatish hamda uning mazmuni hozirgi mehmonlik martabasi va mezbonlik amallaridagi go'zallikni namuna qilib ko'rsatishdan iboratdir.

Mehmondorchilikning o'zbek xalqiga xos xususiyatlarini ilmiy – aksiologik – axloqiy - estetik tizimda ko'rib chiqish mumkin. Ya'ni, mehmonnavozlik - fazilat sifatida, mehmon - hurmatli kishi sifatida, mehmondo'stlik – qadriyat sifatida, mehmondo'stlik – go'zal san'ati sifatida o'rganish maqsadga muvofiq.

*Mehmonnavozlik fazilat sifatida.* Bu insonning fe'l-atvori, xulqi, odobi bilan bog'liq jarayondir. E'tibor bersangiz, ochiq ko'ngil, keng fe'li, xushmuomala, samimiy insonlarning uyidan odam arimaydi. Ular biror-bir tadbir qilsalar eshigini tagida xizmatiga kamarbasta kishilar ko'plashib turishadi. Aksincha, yomonlarning uyiga mehmon bormaydiki, bu o'sha kishi fe'lining yomonligidandir.

*Mehmon hurmatli kishi sifatida.* Xalqimiz mehmonni e'zozlashining sababi shundaki, mehmonning kelishi yaxshiliklar ramzi ekanligi, mehmon dilxushliklarni keltiruvchi, araz va ginalarga barham beruvchi ekanligidadir. Darhaqiqat, mehmon kelganda, er-xotin o'rtasidagi janjal ham, bolalarning harxashasi ham to'xtaydi, ovoqimiz o'z-o'zidan sekinlashib, muloyim bo'lib qolamiz. Shuningdek, uyimizga mehmon kelishi ozodalik va pokizalik sababchisi hamdir. Shundan bo'lsa kerak, onalarning «Qizim, o'tirishingni qara, uyni supurib qo'ysang bo'lmaydimi. Shu holatda



biror kishi kelib qolsa, o'ylamaydimi isqirt yashar ekan deb?!" koyiishlari shundan bo'lsa kerak. Hatto uyimizda yotgan bemor ham biroz bo'lsa-da, kasalini unutil mehmon bilan suhbat qurgisi keladi.

*Mehmondo'stlik qadriyat sifatida.* O'zbek xalqi o'zining og'zaki ijodi bilan dunyo adabiyotida munosib o'ringa ega. "Go'ro'g'li", "Alpomish", "Kuntug'mish", "Ravshan" kabi qahramonlikning gultojisi sanalgan dostonlarni yaratib, madaniyat xazinasiga salmoqli hissa qo'shgan millatimiz. Xalqimiz og'zaki ijodiga mansub, asrlar davomida yaratilgan mehmondo'stlik va mezbannonavozlik to'g'risidagi hikmatli so'zlar, iboralar. maqol-matallar, rivoyatlarda odamiylik fazilatlariga undovchi jihatlar talaygina. Jumladan, «Alpomish» dostonidan olingan quyidagi muloqot fikrimizni isbotlaydi: "Kunlardan bir kun Hakimbek kitob o'qib o'tirib, baxildan, saxiydan gap chiqib qoldi. Boybo'ribiy shunda o'g'li Alpomishdan: - Kishi nimadan baxil bo'ladi, nimadan saxiy bo'ladi?-deb so'radi. Unda o'g'li turib aytdi: vaqti-bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joyi bor bo'lsa, ko'nglini xushlab jo'natsa, bul ham saxiy; agar joyi bor turib, joy yo'q, deb qo'ndirmay jo'natsa bul odam baxil"<sup>1</sup>.

Bulardan tashqari, «O'zi kelgan mehmon Atoyi Xudo, Chaqirib kelingan mehmon baloyi Xudo», Baxil mezbon mehmonini o'g'ri ko'rar, Berganini minnat qilib yuzga urar», "Mehmon kelsa o'tqazgil hordiq olsin, Oti ham arpa-bug'doy, somonga to'ysin" kabi hikmatlar donishmand xalqimiz ijodiga tegishli.

*Mehmondo'stlik – go'zal san'ati sifatida.* Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mehmondorchilik mezbondan o'ta nozik did va farosatni talab etadi. Mehmon kutishdan tortib, uni kuzatishgacha, dasturxonni bezashdan tortib, narsalarni joylashtirishgacha, taomlarning mazasidan tortib. mehmon bilan bo'ladigan suhbatgacha – barcha-barchasi go'zallik qonuniyatlari asosida bo'lishi zarur. Jumladan, mehmondorchilikning muhim subyekti bo'lgan pazandalik san'atida taom tayyorlash jarayoni, uni bezash, taomlarni tartib bilan tortiq qilishning o'ziga xos xususitlari bor. Milliy xususiyatlarimizdan kelib chiqqan holda, bugungi kundagi mehmondorchiliklarning aksariyatida dasturxonga yengil taomlar

---

<sup>1</sup> Qarang: Alpomish. T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1998. 18 b.

(somsa, go'shtli salatlar), so'ngra birinchi va ikkinchi taomlar tortiladi. Birinchi taom suyuq (sho'rva, mampar, lag'mon, tiftil va h.k), ikkinchi taom quyuq (palov, qovurdoq, dimlama, manti, norin va h.k)lardan iborat bo'ladi. Mazkur jarayonni go'zal tashkil etishdagi asosiy unsurlar - idishlarning chiroyliligi, tozaligi, qulayligi, joylashtirishning nafosati hamda taomning mehmonga xush yoqadigan xilini tanlay bilishdadir. Zero, mehmonga xush yoqmagan taomni taqdim qilish mehmondorchilikdagi nafosat mezonlarini buzib yuborishi mumkin. Shuni ta'kidlash zarurki, ko'nglimiz tilamagan taomni mehmon dasturxoniga qo'yish yoki o'zimizga ravo ko'rmagan narsani mehmonga sovg'a qilish - mehmonni mensimaslikdir.

Har bir inson o'z turmushini rohat-farog'atda o'tkazishni, umrni zoe ketmaslikni istaydi. Agar o'tkazgan umrimiz oz bo'lsa-yu ko'rkam bo'lsa, bunday umr uzoq umr ko'rgan kibidir. Ko'rkam turmush esa, insonning xulqi, odobi, madaniyati, o'ziga e'tibor berishi bilan bog'lanadi. Chiroyli xulq va go'zal muomalaga ega bo'lgan kishilarning turmush tarzi ham go'zal bo'lishini hayotimizda ko'p uchratganmiz. Shu boisdan turmush tarzi madaniyati insondan hayot bilan hamnafas bo'lishni, ilg'or an'analarni turmushga joriy etishni, maishiy turmushni doimo o'zgartirib, yangilab borishni hamda chiroyli turmushdan ibrat olishni talab etadigan jarayondir. Zero, Mirzo Abdulqodir Bedilning quyidagi hikmatli ruboiysi yuqoridagi fikrlarimizni xulosalash uchun kifoya qiladi:

*Har ko'zki, agar olmasa ibrat, ko'rdir,*

*Har luqma, agar bermasa lazzat, sho'rdir.*

*Har to'n, agar o'zgarmasa, to'nmas, u kafan,*

*Har xonaki, birdek turaversa, go'rdir.*

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. So'zlashuv madaniyatining milliy xususiyatlarini ko'rsating?
2. So'zlashuv madaniyati ko'rinishlarini izohlang?
3. Nutqiy muomala qanday ma'noga ega?
4. Muloqotda so'z asosiy vosita ekanligini isbotlang.
5. Salomshahish odobi qoidalarini sharhlang?
6. Murojaat qanday turlarga bo'linadi?

7. Turmush tarzi madaniyatida anʼanalarning oʻrni nimalarda koʻrinadi?

8. Turmush tarzi madaniyatining milliy xususiyatlari nimada?

### **Amaliy mashgʻulot savollari:**

1. Soʻzlashuv madaniyatida qabul qilingan meʼyorlar.

2. Soʻrashish muomala madaniyatining muhim vositasi sifatida.

3. Salomlashish va uning axloqiy mohiyati.

4. Murojaat qilish va uning turlari.

5. Turmush tarzi tushunchasi.

6. Turmush tarzi madaniyatining ijtimoiy-maʼnaviy sohalardagi oʻrni.

7. Mehmondoʻstlik milliy madaniyatimizning muhim qismi sifatida.

8. Turmush tarzi madaniyatining shaxs kamolotidagi oʻrni.

## 6-BOB. SHIRIN SO‘Z VA CHIROYLI MUOMALA – INSON KO‘RKI SIFATIDA

### 6.1 Shirinso‘zlik va uning shartlari

Ma’lumki, «Avesto»da Axura-Mazda dunyoga haqiqat, go‘zallik va ezgulikni o‘rnatish uchun kelgan Iloh sifatida ulug‘lanadi. Buni «Asha alqovi»dan o‘rin olgan quyidagi misralarda yaqqol ko‘rish mumkin:

*Quvonsin Axura-Mazda-  
Eng loyiq haqning irodasi ro‘yobga chiqib,  
Axriman daf bo‘lsin.  
Ezgu o‘y, ezgu so‘z va ezgu ishlarni alqayman,  
O‘zimni butkul ezgu o‘y, ezgu so‘z va ezgu amallarga  
baxshida etaman,  
Qabih o‘y, yomon so‘z va yomon ishlardan tiyaman»<sup>1</sup>.*

Shuni ta’kidlash lozimki, mazkur fikrlar oddiy fikr, oddiy so‘z, oddiy amal emas, balki tamoman xunuklikdan, yovuzlikdan xoli bo‘lgan ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amaldir. Bu holat «Avesto»da jon va tana tafsiloti bilan bog‘liq bo‘lgan XXII Yashtda batafsil bayon etiladi. Ya’ni, insonlarning bu dunyoda qilgan ezgu a’mollari, yaxshiliklari, ulug‘vor ishlari unmg oxiratda go‘zal ruh timsolida namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. «Yorug‘ dunyoda yaxshi amallar qilgan yigitning joni, ruhi go‘zaldir. Yigitning ruhi qiz siymosida «Muloyim edim yanada muloyimroq qilding, chiroyli edim yanada go‘zal qilding, baland edim, ezgu fikrat, ezgu kalom va ezgu amallar bilan meni yanada balandroq ko‘tarding» deydi...» Gunohkor joni hayot chog‘ida ko‘rmagan xunuk, badbashara bir qizni uchratadi. «Ey qora yurak, zahar tilli munofiq gunohkor,-deydi u,- men qiz emasman, sen hayotda qilgan yomon amallaringman. Chunki sen hayotda Xudoga e’tiqod qo‘yganlarni ko‘rib turib, devlarga

---

<sup>1</sup> Avesto. Asha alqovi // Sog‘lom avlod uchun jurnali. 1996. №5-6. 12-bet.

sig'ingansan. Yaqin-uzoqdan kelgan musofir odamlarga boshpana berganda, mehnat qilganda, xayr-sadaqa ulashganda yaxshi odamlarni kamsitib, haqorat qilgansan, eshigingni yopib qo'ygansan. Haqqoniy hukm chiqarilganda, pora olinmaganda, to'g'ri guvohlik berilganda va to'g'ri gapirganda, sen ko'rib turib, adolatsizlik, nohaqlik qilib, yolg'on so'zlar aytgansan. Ol! Men sen o'ylagan, aytgan va qilgan yomon fikrat, yomon kalom va yomon amallaringman. Nomussiz edim, sen tufayli battar o'rnimni yo'qotdim, jirkanch edim, yanada nafratli bo'ldim, sharmanda edim, battar rasvo bo'ldim»<sup>1</sup>.

«Avesto»dagi mazkur fikrlar asotir (mifologiya) sifatida aks etsa-da, uning inson xulq go'zalligini kamol toptirishdagi ahamiyati beqiyos. Bu borada faylasuf olim T. Mahmudov quyidagi fikrni bildiradi: «Zaratushtra ta'limotiga qanchalik chuqur kirib borsak, unda inson go'zalligi qanchalik yuksak axloqiy-estetik nuqtai nazardan talqin etilganligini ko'ramiz. Inson fikri, so'zi va ishi bilan go'zaldir degan g'oya «Avesto»ning boshdan oxirigacha asosiy falsafiy-estetik g'oya bo'lib o'tadi. Xuddi mana shu fazilatlarining mushtarakligi inson qalbi va amallarining go'zalligini belgilaydi»<sup>2</sup>.

So'z kundalik hayotda fikr almashuv quroli hisoblanadi. Odatda, o'zimiz aytayotgan yoki eshitayotgan so'zlarning butun mohiyati haqida ko'p o'ylab o'tirmaymiz. Bunga hojat ham yo'q. Bizni gap zamiridagi natija qiziqtiradi, xolos. Darhaqiqat, so'z ham jonli narsa. Uning qudrati insonda hayajon qo'zg'ab, yuragida ezgu hislar tug'dirishida. Xalq bunday so'zlarni ardoqlab kutib oladi: u endi ma'naviy boylikka aylanadi.

Olamga odamzod sara mavjudot sifatida keldi, u salohiyat, bilim va zakovatga ega bo'ldi. Unga tabiat aql va ong ato qildi, so'zlash qobiliyatini berdi, uni andisha, xushxulq va go'zal fe'l bilan ta'minladi.

«So'z san'atining sirli-sehrli mo'jizakor qudrati shundaki-deb ta'kidlaydi adabiyotshunos olim U.Normatov, -u faqat go'zal shaxslar, buyuk daho siymolar timsoli emas, oddiy odamlar, afandi tabiat, dovdir, ziddiyatli kimsalar obrazi orqali ham milliy sha'ni, dovrug'ini olamga ko'z-ko'z qilaverishi mumkin»<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Iqtibos. T. Mahmudovning «Avesto» haqida risolasidan olingan.

<sup>2</sup> Mahmudov T. Avesto haqida. T.: Sharq, 2000. 41 b.

<sup>3</sup> Normatov U. Tafakkur yog'dusi (adabiy-tanqidiy esselar). T.: O'zMU. 2005.

Oilada yoki jamiyatda sodir bo'ladigan katta—kichik janjallarni diqqat bilan kuzatilsa, barchasining sababi, ko'pincha, qo'pol so'z yoki yomon muomalaga borib taqalishi muqarrar. Bir kishi o'ylamasdan gapirib qo'ysa, boshqasiga shu gap yoqmaydi va natijada bekordan bekorga janjal kelib chiqadi. Shirinso'z ko'pgina muvoffaqiyatlarning omilidir, aytish joiz bo'lsa, u taraqqiy etgan jamiyat tashkil etishning asoslaridandir. Shuning uchun ham bu narsaga barcha tarbiyachilar va islohchilar katta ahamiyat beradilar. Ular doimo boshqalarga yaxshi so'zlarni aytish, muloyim gaplarni tanlashga undaydilar. Yaxshi, muloyim gapni ishlatish insonning obro'sini orttiradi, do'stlarini ko'paytiradi, hammaning hurmatiga sazovor qiladi.

Adabiy-tarixiy yodgorliklarimizning har bir zarvarag'ida, keksalarimizning ikki gapining birida ibratli so'zlarga duch kelaveramiz. Chunki turmush tajribalari asosida shakllangan shirinso'zlik, suhbat ododi va tarbiya masalalarida hamisha muhim o'rin tutgan. Bugun esa qalin-qalin kitoblarda ham, zamondoshlarimiz nutqida ham ular juda kam qo'llaniladigan bo'lib qolgan.

Amir Xusrav Dehlaviy suhbat odobiga ko'p e'tibor qaratgan. Shoir yomon niyatli, fikri buzuq, sovuq muomala odamlardan yiroq yurishni maslahat beradi:

*Suhbati on kass, ki ba sidqu safost,  
Domani o'gir kaz ahli vafost.*

Ya'ni, sadoqatli, safoli odam bilan suhbat qur, vafo ahlidan bo'lgan kishining etagini ushla, deydi shoir. Shuningdek, Amir Xusrav manmanlik va takabburlikni qoralaydi. Birovga salom bersang, ammo u alik olmasdan o'tib ketsa, unday odamlardan yaxshilik chiqishi gumon: «Salomingga javob bermagan kishidan tosh yaxshi, chunki toshni savob yo'lida ishlatish mumkin». Qo'pol, qo'rs odamni shoir devga o'xshatadi. O'z boyligi, shavkati bilan kerilib yurganlar esa, bamisoli o'tkinchi shamol, «shamol miyani to'ldirgan bo'lsa, undan umid yo'q», uni hamsuhbat qilib bo'lmaydi — Amir Xusravning pandi shunaqa. Ulug' shoir «Matla'ul anvor» dostonining to'qqizinchi maqolotida «boli takabbur» kallasini to'ldirgan kimsalarning ko'pini ko'rdim, ular vaysab-vaysab o'tib ketdilar, deydi. Umuman, Amir Xusrav bir tomondan, yaxshi xulq, odobni, ezgulikni targ'ib etadi, yaxshi xislatlarni egallashga da'vat qiladi. Boshqalarga lutf ko'rgazish barobarida o'z yaqinlariga — turmush

o'rtog'i, farzandlariga ham mehribon, shirinso'z bo'lish zaruriy talab ekanligini e'tirof qiladi:

*Lutf ba joest, ki do're buvad,  
Bar zanu farzand zaruriy buvad.*

Bugungi kunda insonlararo muloqotda, odamlar orasida andishasiz so'zlar, behayo gaplar, tuturuqsiz fikrlar, mantiqsiz mulohazalar va shallaqlik ko'payib borayotganligi achinarli holdir. Ayniqsa, bozorlarda, jamoat transportlarida, ko'cha-kuyda bunday illatlar tez-tez ko'zga tashlanmoqda. Eng achinarlisi shundaki, yomon so'zlar bilan murojaat qilish, so'kinib gapirish ziyo maskanlari hisoblanmish ta'lim muassasalarida, madaniyat o'chog'i bo'lmish san'at saroylariga ham kirib borayotganligini kishini tashvishga soladi. Ayrim qizlarimiz va o'g'il bolalarimizning bir-biriga aytayotgan gapini, muomalasini ko'rib, dahshatga tushasan. Hatto shunday holatlar bo'ladiki, biri ikkinchisini so'kib (so'tak, naynov, tirroqi kabi so'zlar) chaqiradi, u esa bunga beparvo. «Nega uning gapiga munosib javob bermaysan yoki tanbeh qilmaysan!?» desangiz, «Qo'yavering u bolaning o'zi shunaqa qo'rs, gapi sovuq» deb javob beradi. Bunday beparvolik va g'urursizlik sekin-asta jamiyatga yoyilishi, insonlararo muomala madaniyatida tobora ommalashishiga olib keladi. Natijada inson ziynatiga putur etadi, so'z va muomala go'zalligi yo'qolib boradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, shirinso'zlik faqatgina chiroyli gap, erkin fikr bilan belgilanmaydi, har qanday chiroyli so'z va erkin fikrda inson ziynati namoyon bo'lavermaydi. Gohida chiroyli so'zlarga o'ralgan yolg'onlar, erkin fikrga asoslangan riyolar ham mavjudligini unutmash zarur. Shu bois qo'yida shirinso'zlikning ayrim shartlarini e'tiboringizga havola etamiz.

1. Xushtabassum bo'lish lozim. Ya'ni boshqalar tasavvurida yaxshi taassurot qoldirishimiz uchun so'zlashganda chehramizni ochiq qilish g'oyatda zarur. Bu borada alloma Yusuf Xos Hojib shunday degan edi: «O'zing seni sevuvchilar ko'proq bo'lishini istasang, tuz va non yedir, chehrangni ochiq qil... Odamni maftun qiluvchi mana shu ikki qiliqdir, men bulardan bo'lagini topmadim, topilsa, sen uni ista».

2. So'zni obdon mushohada qilib, oxirini o'ylab, manmanlikka berilmay, fikr qilib so'zlash lozim. Aksariyat hollarda, o'ylamay aytilgan har qanday ma'nili so'z ham pirovardida xunuk oqibatlariga

olib kelganligi barchamizga ma'lum. Masalan, o'zbek xalqi qahramonlik dostoni «Alpomish»da o'z ukasi Boybo'ning huzuriga zakotchilarni jo'natib, «Zakot qilinglar, bersa zakotini olib kelinglar», deb yuborgani, bu so'zni mahramlardan Boysari eshitib achchiqlangani, ko'ngli og'rib ularga «Ey, bizning molimiz shu vaqtgacha zakot bo'lmagan, endi akamiz o'g'illi kishi bo'lib, darrov bizning molimizni zakot qiladigan bo'libdi-da!» deydi. Manmanlik, kibr va oxirini o'ylamay aytilgan so'z natijada xalq boshiga qanchalik tashvishlarni keltirganligi ma'lum.

3. So'z qo'llash maromini bilmoq lozim. Shirinso'zni o'rnida gapirish zarur, garchand u omma tilida kam uchrasa ham. Zero, topib gapirilgan so'z jonga malham bo'ladi. Buyuk shoir, hazrat Navoiy o'z ijodida 1 million 378 ming 660 ta so'z, shu jumladan 26 mingta betakror so'z ishlatganligi haqida ma'lumotlar qayd etilgan<sup>1</sup>. Sho'irning zabardastligi, xalqning unga bo'lgan mehri ham shunda bo'lsa kerak.

4. Shirinso'z mas'uliyatini anglamoq darkor. Busiz so'zning qadri tushib ketishi, kishining ensasini qotirishi mumkin. Demakki, shirinso'zning mas'uliyati ham boshqa so'zlarning mas'uliyatidan bir qadar ortiqroqdir. Zero, yaxshi gapirish, oddiy qilib aytganda, ovoz chiqara turib, yaxshi o'ylash demakdir.

5. Shirinso'zlik va muloyimlikning shartlaridan biri ovozni pastlatib, mayin gapirishdir. Shirin so'zda ohang va uning go'zalligiga, so'zning ta'sirchanligiga e'tibor qaratish lozim. Zero, «azizim», «mehribonim», «suyanchig'im», bo'talog'im» kabi erkalash, yupatishga xos so'zlar baland ovozda aytilsa, bunday so'z o'zining xususiyatini yo'qotadi. Bu borada Qur'oni Karimning «Luqmon» surasi 39-oyatida ovozni pastroq qilib gapirishga chaqirib, qattiq, baqirib gapirishni xuddi eshakning hangrashiga o'hshatiladi: «So'zlaganda ovozingni pastroq tushirgin, zero, eng yomon ovoz – eshakning ovozidir» - deyiladi.

6. So'z aytishdan avval, har daqiqada so'z ortidan keladigan oqibatni o'ylash kerak.

Xulosa qilib aytish mumkinki, shirinso'zning inson kamolotidagi o'rni va husni latofatidagi ahamiyati bisyordir.

---

<sup>1</sup> Ma'lumotlar O'.Hoshimovning «Daftar xoshiyasidagi bitiklar» kitobidan olindi. T. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2006. 142 b.



## 6.2. Chiroyli muomalaning qudrati

Muomala axloq ko'rki sanaladi. Har bir kishining qanday dunyoqarashga egaligi, bilimliligi, uning boshqalarga qilayotgan muomalasidan ma'lum bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, muomala insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa vositasi hisoblanadi. Bir-birimizga bo'ladigan muomalamiz, munosabatimizning zamirida ham chiroyli muomalaning shartlari yotadi.

Muomalada asosiy vosita til hisoblanadi. Shuning uchun ham til aloqa quroli deyiladi. Insonning tili shirin, muomalasi madaniyatli bo'lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida obro'-e'tibor topadi. Aksincha, sergaplik hech qachon kishiga obro' keltirmaydi. Ayniqsa, mahmadonalik yosh bolaga xos xususiyat bo'lib, kattalar uchun bu qusur insonni doimo obro'sizlantirgan. Shuning uchun ham o'tmishda yashab o'tgan mutafakkirlarimiz tilga, so'zga hurmat bilan yondoshishi ta'kidlaganlar.

Do'st bilan dushmanga qiladigan eng chiroyli muomala yo'li shundayki, muomaladan so'ng do'st dilida muhabbat oshishi, dushman dilidagi adovat susayishi lozim. Xalq og'zaki ijodida, ayniqsa, ertaklarda mushkulini oson qilish uchun panoh so'rab, huzuriga tashrif buyurgan odamning bir og'iz salomi tufayli unga bo'lgan munosabat, yaxshi kutib olishi barobarida: «Gar saloming bo'lmasa, ikki yamlab bir yutardim» jumalari turli personajlar tilidan bayon etilgan. «Muqbil toshotar», «Uch og'ayni botirlar», «Urto'qmoq» singari o'zbek xalq ertaklarida yaxshi so'zning xislatiga oid g'oyalar yuksak badiiylik bilan ifodalangan.

Aytish lozimki, inson o'zining omonligini istasa, tilidan yaramas so'zlarni chiqarmasligi kerak. Chunki bilib, tushunib aytilgan so'z donolikdan dalolat beradi, aksincha, nodon-johilning so'zi esa, o'z boshini eydi. Donishmandlarning «So'zni ko'p so'zlashdan biroz oz so'zlagin, ming so'zli chigalni bir so'z bilan yechgin. Haddan ortiq so'zlaganlarni ezma deyiladi, shuningdek, hech so'zlamaganlarni gung deb ataladi», degan pandlari tarbiya jarayonida ijobiy natija berib kelmoqda. Darhaqiqat, uzoq va ko'p so'zlash, gapirish hech kimga foyda keltirmagan. So'zning xayrlisi dalolati ko'p bo'lganidir va eng yaxshi so'z ko'p bo'lgani emas, balki foydalidir. Qur'oni Karimning 112-surasi 1-oyatida «U-Oллоh birdir», deyiladi. Ko'rinishdan garchi bu suraning so'zlari oz bo'lsa-da, biroq uzun

bo'lgan «Baqara» surasidan ifoda va bayon nuqtai nazaridan ustun. Nuh payg'ambar insonlarni rosa ming yil dinga da'vat qildi va bor-yo'g'i qirq kishi unga bo'ysundi. Muhammad mustafo (sav)ning da'vat vaqti va qancha odamning unga itoat etganligi ma'lum. Undan zuhur etgan avliyolar sonining sanog'iga yetish ham mushkul.

Sharqning buyuk notiqlaridan biri Husayn Voiz Koshifiy so'z qadri, kamgaplik to'g'risida ibratli fikrlarni bayon etgan: «Har zabon tig'i haq g'uzorlikda noqildur ango tez-tez tig' zaboni birla sazo bermak kerak» yoki «Haq vaqtiki so'zlar aytursizlar yaxshi so'zdin bo'lakni aytmangizlar va ko'p so'zlamak ko'ngilni qaro qilur, xor aylar» yoki «Mumkin ersa, yaxshi so'z qil oshkor, yaxshi so'zdin xo'b yo'qtur yodgor», «Nasihatni shirin so'zu muloyimlik birla ibtido qilgay, chunki bu zamonda yumshoqlik va xushho'ylik ko'rguzmayin nasihat korga kelmas», -deydi va inson har doim yaxshi so'zni so'zlashi lozimligini uqtiradi. Koshifiy bunday kishilarni hech bir so'zida qadr-qimmatini yo'q, og'zidan nima chiqayotganini bilmaydigan kishilardir, deb baholaydi. Ular e'tiborsiz so'z so'zlovchilardir. Bu kishilar jununga sherga ittifoqchi sanaladi.

Ko'p gapirmaslik, so'zni mensimaslik, qolaversa, faqat yaxshi gapni aytib, yodgorlik qoldirish kerakligini ko'p bor ta'kidlaydi.

Ulug' bobomiz Alisher Navoiy chiroyli muomalaning qudrati, madaniyati hamda shirinso'zlikning ahamiyati haqida purhikmat fikrlar bayon qilganki, ular bugungi kunimiz uchun ham ahamiyatini yo'qotgan emas. «Til shirinligi - ko'ngilga yoqimlidir, muloyimlik esa foydali. Shirin so'z sof ko'ngillar uchun asal kabi totlidir», -deydi hazrat Navoiy. Aksincha, voizning elga safsata so'zlashi uning g'ofilligidandir. Yomon, bema'ni, qo'pol so'z kishini ranjitadi, yoqmaydi, yucusini keltiradi:

*Fasona boisi g'aflatdur elge voizdin,  
Nedinki keltirur afsonavash kalom uyqu<sup>1</sup>.*

Darhaqqat. so'z inson qalbini ilitadi va jarohatlaydi ham. Shu bois xalqimizda «Tig' yarasi ketar, so'z yarasi ketmas», degan maqol bekorga aytilgan emas. Chunki so'zning qudrati benihoya katta. Husn jamoli yo'q odam shirin so'z bo'lsa, go'zal va shirin so'zi bilan barchani qo'lg'a oladi, aksincha, tili yomon odam xalq ko'nglini jarohatlaydi.

---

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Shohbaytlar. T.: Fan, 2007. 102 b.

«Muomala» soʻzi zamirida butun insoniyat taqdiri mujassam» ekanligini eʼtirof etgan adabiyotshunos olim N. Bekmirzaev muomala va shirinsoʻzlikning inson hayotidagi oʻrni, ahamiyati, qimmatiga doir gʻoyatda qiziqarli maʼlumotlarni keltiradi. Ayniqsa, sansirab murojaat qilish odobsizlik ekanligi, doʻq-poʻpisa betayinlik va beburdlik nishonasi ekani haqida taʼkidlab, «Har bir odam oʻzining shaklu-shamoyil goʻzalligiga vaqt va pul sarflash hisobiga erishadi. Agar odamlardagi shakl goʻzhalligiga maʼnaviy – axloqiy goʻzallik, muomala madaniyati ham qoʻshilsa bormi, nur ustiga aʼlo nur boʻlardi. Bundaylarni komillikka intilish yoʻlidan borib, odamlarga shirin soʻzlari bilan ruhiy madad beradiganlar safiga kiritish lozim»<sup>1</sup> - deydi.

Darhaqiqat, chiroyli muomalaning qudrati inson bilimi bilan ham belgilanadi. Zero, oqilonalik soʻz, nutq bevosita tafakkur mahsuli, tafakkur esa bilimsiz vujudga kelmaydi. Shu bois, bilimsizlik oʻzaro muloqotda, insonlararo munosabatda pand berib qoʻyishi, aksincha, oqil kishining tili soʻzda erkli, mushohadali boʻlib, koʻplarga naf keltirganligi haqida pandnomalarda bitilgan. Chiroyli muomalaning fazilatiga doir fikrlar va qarashlarimizning isboti sifatida Yusuf Tovasliyning «Hikmatlar xazinasi» risolasidan olingan qoʻyidagi hikoyada insondagi oqilonalik chiroyli muomala bilan uygʻunlashgan holda, oʻzining yuksak qudratini namoyon etganligi uchun ham toʻlaligicha havola qilishni maqsadga muvofiq deb bildik.

«Bir vaqtlar Uskudorda istiqomat qiluvchi oʻrta yoshlardagi bir zot birinchi xotini vafot etgach, yosh xonimga uylandi. Bu zotning axloqi, goʻzal odati, tabiatini hamma yaxshi koʻrar edi. Bul odam dinni yaxshi bilardi. Ayni zamonda fikri tiniq, qarashlari qatʼiy, ilm-irfon sohibi edi.

Avvaliga yosh xonim xojasining feʼl-atvorini juda yaxshi koʻrar, unga qoʻlidan kelgan barcha hurmati, iltifotini koʻrsatar, xojasiga nisbatan oʻz vazifalarini chiroyli bajarardi. Xojasiga oliy darajada hurmat izhor qilardi. Yosh xonim qisqa vaqt ichida barcha qoʻshnilari bilan tanishdi, qoʻshnilar uni, u esa qoʻshnilarni hurmat qilardi. Ammo oʻsha mahallada yomon feʼlli, hasadgoʻy bir xotin bor edi. Bu yosh xonimning xojasiga nisbatan hurmati boʻlgani va shirin turmushlari ul xotinning rashkini keltiradi. Yosh xonim bilan qoʻshni boʻlganlardan biri uni xojasiga nisbatan itoatsizlikka tashviq qilardi:

---

<sup>1</sup> Bekmirzaev N. Notiqlik sanʼati asoslari. T. Universitet. 2005. 14-bet.

- qizim, sen juda yoshsan, go'zalsan, shunday katta yoshdagi kishiga turmushga chiqqansan. Sen yosh. o'zing kabi chiroyli yigitga turmushga chiqmabsan, - deb juvonning boshini aylantirardi. Yosh xonim «men xojamdan juda mamnunman, fe'li, axloqini sevaman» desa ham yomon ayoldan qutula olmaydi. Bir kun, ul juvon tashviqotlar ta'siridanmi, «erimdan ajralishaman» deydi. Yomon fe'lli hasadgo'y ayol:

- qo'lingdagi qimmatli ashyolaringni asta-sekin sotsang, xojangaga yomon ko'rinasan, uning sendan ko'ngli soviydi, - deb ko'nglini buzadi.

Yosh ayol uyidagi qimmatli narsalarini bir-bir sota boshlaydi. Har kuni eri oqshomda uyiga kelganida, bugun qimmatli falon narsani, ertasiga – bugun bunday qimmatli narsani sotdim deyaveradi, nihoyat uyda hech narsa qolmadi. Ammo xushfe'l, chiroyli xulqli, ilm-irfon sohibi bo'lgan ul zot xotiniga: «joning sog' bo'lsin, yangisini olarmiz», der edi. Xonim uyida sotiladigan ashyo qolmaganidan keyin, hojatxonadagi har kuni foydalaniladigan, o'ttiz yillik obdastani toshga urib sindirdi. Kechqurun eri kelganida, ul xonim:

- Hojatxonadagi obdastani toshga urib sindirdim, parcha-parcha qilib tashladim, - dedi.

- Ana xalos! Bu nimasi! - deb xojaning ko'zlariga yosh keldi.

- Men sizga xayronman, - dedi xonim. –Uydagi shuncha qimmatli narsalarni yo'qotganimda jahlingiz chiqmay, «o'zing sog' bo'lsang bas», degan edingiz. Endi hojatxonadagi oddiy ko'za singanida ko'zingizdan yosh to'kdingiz, nega?

- Xonim, ul ko'za o'ttiz yildirki. mening eng mahram erlarimni ko'radi. Hozir yangi bir ko'za olib unga mahram erlarimni qanday ko'rsataman? – deb javob berdi xoja yosh ayoliga.

Yosh xotin bir onda g'aflatdan uyg'ondi va kechirim so'rab erining qo'llarini o'pdi, oyog'i ostiga yiqildi. «Meni avf eting, sizning amringizdan hech chiqmayman, sizga nisbatan ozgina bo'lsa-da, itoatsizlik qilmayman», deb yolbordi<sup>1</sup>.

Shuningdek, diniy adabiyotlarda axloq - «adab» tushunchasi bilan uzviy bog'langan. Biroq axloqdan farqli o'laroq, adab nisbatan tor, ya'ni xulq ma'nosida ishlatilgan. Uning ko'pchilik shakli odobdir. Qadim zamonlarda buddaviylarda ziyofatga taklif ma'nosini bildirgan

---

<sup>1</sup> Yusuf Tovasliy. Hikmatlar xazinasi. T. Navro'z, 1994. 16 b.

adab soʻzi keyinchalik maxsus tushunchaga aylanib, shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi yaxshi xulq-odoblilik, xushmuomalalik maʼnolarini anglata boshladi. Buning yaqqol misolini Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriyning «Hadis» kitobida koʻrishimiz mumkin. Jumladan, mazkur kitobning «Adab kitobi» deb nomlangan boʻlimida xushmuomalalik, muruvvat, mehr-oqibat, sadaqa, yaxshilik va yomonlik, badxulqlik, gʻiybatchilik, tuhmat, arazlashmoq, kibr, rostgoʻylik, gʻazablanish, sharm-hayo va bexayolik kabi koʻplab axloq tushunchalari xususida oʻgitlar bayon qilingan<sup>1</sup>. Bu oʻgitlar maxsus risola tarzida «Al-adab al-Mufrad» («Adab durdonalari») nomi bilan mashxur. Hozirgi zamon arab tilida adab tushunchasi gʻoyat keng maʼnoda, asosan, diniy axloq kategoriyasi oʻrnida ishlatilgan.

«Avesto», «Qutadgʻu bilig» va «Hadis»larda xushmuomalalikka doir rivoyatlar koʻp uchraydi. Bular shirinsoʻz, shirinsuxan, yumshoq muomalalik kabi soʻzlar tarzida ifodalangan.

Xushmuomalalik – insonlar bilan munosabatlarda shirinsoʻz, chiroyli muomalali boʻlish demakdir. Bunday fazilatga ega boʻlish kishini madaniyatli va chiroyli xulqqa ega ekanligidan dalolat beradi. Xushmuomalalik suhbatdoshlarning dilini ravshan qilish, kayfiyatini xushnud qilish, koʻngliga taskin berish uchun xizmat qiladi: manzur va maʼqbul muomala samimiylikning ifodasidir. Mavlono Navoiy chuchuk (shirin) soʻz tavsifini va qattiq (qoʻpol) soʻz ozorini qoʻyidagicha ifodalagan edi:

*Har kimki chuchuk soʻz elga izhor aylar,  
Har nechani agʻyor durur yor aylar.  
Soʻz qattigʻi el koʻngliga ozor aylar,  
Yumshogʻi koʻngillarni giriftor aylar.*

Xushmuomalalikning aksi qoʻpollik, dagʻallik, badjahllik va dilozorlikdir. Bunday nuqsonlar insonning axloqiy sifatlariga koʻrk bagʻishlamaydi, aksincha, insonni yanada tubanlashtiradi. Shu bois xushmuomalalikning insonlar, jumladan, moʻminlar uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligi Imom al-Buxoriyning «Hadislar» toʻplamida keng va atroflicha tilga olinib, rivoyatlar orqali bayon qilingan.

Inson koʻrinishidan hech narsa demasa ham, ichida hamisha gapiradi. Bu hol goʻyo loy qorishgan suv toshqiniga oʻxshaydi.

---

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis.4-jild. T.: Qomuslar bosh taxririyati, 1997. 528 b.

Toshqinning toza suvi insonning soʻzi (nutqi), balchigʻi esa hayvonligidir. Biroq balchiq unda oʻtkinchi boʻlib, vaqt kelib ulardan asar ham qolmaydi. Yaxshi yoki yomon boʻlishiga qaramay, soʻzlar, hikoyalar va bilimlar qoladi...Odamlarning yomonliklariga sabr qilmoq, goʻyo oʻz nopokligini ularga surtib tozalangan kabidir. Sening feʻli-xuying tahammul bilan yaxshilanadi. Ularniki esa zulm va yomon muomala sababli buziladi. Buni eslab olding va endi oʻzingni pokla»<sup>1</sup> - deyдилar Mavlono Jaloliddin Rumiy.

Oiladagi va umuman, jamiyatdagi xatarli muammolarni sinchiklab oʻrganilsa, koʻpincha ularning kelib chiqishi – oʻylamasdan, ehtiyotsizlik bilan aytilgan qoʻpol soʻzga borib taqaladi. Chiroyli soʻz esa, yaxshi muomala, mehr-oqibat kalitidir.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Shirinsoʻzlik va uning shartlarini koʻrsating?
2. Soʻzning kundalik hayotda fikr almashuv vositasi sifatidagi ahamiyati nimada
3. Yolgʻonning shaxs kamolotiga salbiy taʼsiri nimalarda koʻrinadi?
4. “Yaxshi gapirish” maʼnosini tushuntiring?
5. Chiroyli muomalaning qudrati nimada?
6. Axloq va odobning oʻzaro bogʻliqligi nimada?
7. Xushmuomalalikning shaxs kamolotiga taʼsiri nimalarda koʻrinadi?
8. Xushmuomalalik va shirinsoʻzlikning aksi boʻlgan tushunchalarni sharhlang?

### **Amaliy mashgʻulot savollari:**

1. Shirinsoʻzlikning tarixiy-ilmiy manbalari.
2. Insonlararo muloqotda shirinsoʻzlikning ahamiyati.
3. Andishasiz va behayo soʻzlar muomala madaniyatidagi illat sifatida.
4. Shirinsoʻzlikning masʼuliyati.
5. Chiroyli muomala insoniy fazilat sifatida.
6. Chiroyli muomalani paydo qiluvchi omillar.
7. Muomalada bilimning ahamiyati.
8. Chiroyli muomalaning shaxs kamolotiga taʼsiri.

---

<sup>1</sup> Mavlono Jaloliddin Rumiy. Ichingdagi ichingdadir. T.Yozuvchi, 1997.  
67 b

## **7-BOB. NUTQ – INSONLARARO MULOQOTDA MUOMALA MADANIYATINING MUHIM VOSITASI**

### **7.1. Yozma nutqda muomala madaniyatining ahamiyati va zaruriyati**

Jahonga Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiylarni bergan Movarounnahr allomalari orasida munosib o'ringa ega bo'lgan Muhammad Abu Homid G'azzoliy o'zining «Ixyou ulumid-din» asarining «Hasad mazammati bayoni»da xat va noma orqali hasadning axloqiy illat ekanligini bir rivoyat misolida ko'rsatib bergan edi. Rivoyatda keltirilishicha, podshohning oldiga kelib yuradigan bir kishi doimo unga «Senga yaxshilik qilganga, yaxshilik qil, yomonlik qilguvchiga esa, yomonlik qilma, chunki qilgan yomonligi o'ziga qaytgusidir» der ekan. Bu kishining podshoh huzuridagi obro'-e'tiboriga bir kimsaning hasadi kelib, uni podshohga yomonlaydi: «U odamlar orasida «Podshohning og'zi badbo'y» degan gap tarqatib yuribdi. Agar so'zimga ishonmasangiz uni oldingizga chaqirib, yaqinroq gapiring, shunda u og'zini berkitadi» deb ig'vo qiladi. Hasadgo'yning gapiga ko'ra, podshoh uni huzuriga chorlaydi va unga yaqinroq turib gapiradi. Bir kun oldin to'yib sarimsoqpiyoz egan haligi odam, o'z og'zidan kelayotgan sassiq bo'ydan uyalib, og'zini berkitadi, podshoh ig'vogarning gapi «haqiqat» ekanligini anglaydi.

Bu shohning shunday odati bor edi: birovga hadya yoki mukofot bermoqchi bo'lsa, unga o'z qo'li bilan xat yozib berardi. Bu gal ham xuddi shunday qildi. Podshoh «Xatimni olib borgan kimsani so'yib, terisini shil va ichiga somon tiqib, mening oldimga jo'nat» degan mazmunda noma bitib, xatni u kishining qo'lga tutqazadi. Xat esa taqdir taqozosi bilan hasadgo'yga hadya qilinadi va yaxshi odam qoilib, hasadgo'y o'limga mahkum bo'ladi.

Garchand qayg'uli bo'lsa-da, ushbu rivoyatni keltirishimizdan maqsad shuki, noma va maktublar madaniy inson kashf etgan muloqotlarning eng go'zal, eng ta'sirchan va eng qulay vositasidir.

Sharqda noma yozish Evropadagidek keng urf bo'lmagan, lekin Sharq adabiyoti nomaning go'zal shakllarini yaratgan. O'rta Osiyo adabiyotlarida nomalar garchi mustaqil janr sifatida shakllangan bo'lsa-da, lekin umuman yozishmalar oddiy xalq o'rtasida keng tarqalmadi. Noma, maktub va yozishmalarning jahon adabiyotida, xususan, Sharq adabiyotidagi mavqei xususida g'oyatda e'tiborli fikrlarni ilgari surgan adabiyotshunos olim I.G'afurov deydiki, «Yozishmalar ham davrlar, ham davr odamlarining qiyofalarini kelajak nasllar oldida ravshan qiluvchi shahodatlardir. Xatlarda yozuvchi, ijodkor, uning shaxsi ichki dunyosi shakllanadi. Sharq adabiyotlari bu shahodatning inson hayotida qanchalar muhimligini hammadan ilgari angladi. Yozishmalarni asarlar ichiga turli shakllar va turli mundarija yo'nalishlarida olib kirdi»<sup>1</sup>.

Maktub madaniyati – yozuv madaniyati, yozma madaniyatning bebaho bo'lagi. Maktub madaniyati e'tiborsiz joylarda yozma adabiyot qiloch yozib rivojlanmagan bo'ladi. Maktub, avvalo, fikrlashga, atrofga razm solib qarashga, yaxshi-yomonni tanishga, har narsaga mustaqil baho berishga, o'z fikriga ega bo'lishga, kuzatuvchanlikka o'rgatadi. Shular barobarida maktub yozish inson ijtimoiy faolligining eng yorqin ko'rinishlaridan biridir.

Kamolot keltirmagan, saodatni yaqinlashtirmagan, marhamat tuyg'usini uyg'otmagan har qanday so'z puch so'zdir. Puch so'zlarga o'rganib qolgan xalq qashshoqlik va razolatlardan qutulishda qiynaladi. Puch so'zlar har narsadan yomondir. Atrofimizga e'tibor bersak, o'zaro muloqotda siyqasi chiqqan, tuturuqsiz, bachkana so'zlar bilan to'lib-toshganligining guvohi bo'lamiz.

Daholarning bir-birlari bilan bo'lgan yozishmalariga nazar tashlasak. Ular mazmun va mohiyat jihatidan yuksak darajadagi insonparvarlik, vatanparvarlik, sadoqat tuyg'ularining go'zal madaniy namunasini ko'rishimiz mumkin. Bu borada Abu Rayhon Beruniyning Ibn Sino bilan yozishmalari, Ibn Sinoning Bahmanyor al-Ozorbayjoniya bitgan maktublari va hokazo xiradmand va donishmand kishilarning bir-birlari bilan ilmiy, ma'rifiy va maishiy sohalarga doir maktublari xalqimizning madaniy yodgorligi sifatida qadrlidir. Ayniqsa, Hazrat Navoiyning «Munshaot» deb nomlangan

---

<sup>1</sup> G'afurov I. Hayo - xaloskor. T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2006. 232 b.



asariga jamlangan maktublar o'zining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hamda jamoatchilik manfaatlariga ko'ra yuksak ahamiyatga ega. Navoiyning maktublari ko'proq saltanat valiahdlariga bitilganligi qayd qilinadi. Xususan, Badiuzzamon Mirzoga yozgan insholaridan Navoiyning o'z zamonasining fozil, hokisor va mehribon hukamo kishisi bo'lganligini ilg'ash qiyin emas. Navoiyning shahzodalarga maktublari bu — shahzodalarga maktublarga emas, ular o'sha davrning barcha yoshlariga, barcha el-yurt yo'lida xizmat qiluvchilarga qaratilgan pandlar, deb tushunmoq kerak. Navoiy o'z xatlarida davr nuqtai-nazaridan turib, bebosh shahzodalarni tartibga, shafqatga, adolatga va hamkorlikka chaqiradi: bu xatlar Navoiyning ijtimoiy va insoniy qarashlarini ifodalaydi.

Bu borada adabiyotshunos olim I.G'afurovning yuqoridagi kitobiga murojaat etmoqchimiz. I.G'afurov Navoiy maktublarining mazmun-mohiyati, maqsadi va uning ahamiyatini atroflicha ko'rsatib bergan. Jumladan, Navoiyning Badiuzzamon Mirzoga bitgan xatidagi «Bu faqiri hoksor va hokivashi bee'tiborkim, bu davlatlig' eshik ostonasig'a tufrog'dek tushib erdimu xayolimda bu erdikim, magar ajal sarsori tufrog'imni bo'sag'adin sovurg'ay va o'lim sayli hoshokimni bu eshikdin surgay va lekin xayol botil (bekorchi) ekandur va muddao otil (behuda)» so'zlardan Navoiy shoh xonadoni a'zolarining fe'l-atvorlari, xatti-harakatlari, el-yurtga, saltanatga munosabat va muomala yo'llarini juda yaxshi bilishi va xatda shahzoda Badiuzzamonga og'ir botmaydigan so'zlarni topib yozishga harakat qilgan: «O'zini davlatlik xonadon ostonasidagi tuproq deb tanitadi»<sup>1</sup>, shoh xonadoniga eng yaqin kishi ekanligini ta'kidlaydi. Bunday munosabat Navoiyning nafaqat buyuk shoir, so'z ustasi, balki kim bilan qanday muomala qilishni o'rgatadigan, muomala madaniyatida o'ta nozik shaxs ekanligidan dalolatdir.

Buyuk alloma Mahmudxo'ja Behbudiyning asrimiz boshlarida yozib qoldirgan o'quvchilar uchun tuzilgan «Kitobal-ul atfol» darsligi va unda bayon etilgan xat yozish shartlari va maktub odoblarini xalqimiz muomala madaniyatining ziynati sifatida qadrlashi mumkin. Chunonchi, mazkur darslikning «Xat yozmoq shartlari»da «Yozilaturgon so'zlar ichig'a har kim bilmayturgon lug'at mumkin

---

<sup>1</sup> G'afurov I. Hayo - xaloskor. T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2006. 884 b. 235 b.

qadarincha yozmasg'a va inchunin, avomcha va ko'chagi iborat va ayb sanalaturgon kalima va laqablarni yozmaslikni aytadi. Shuningdek, «Maktubg'a haqorat, ta'na, hazil, fisq va gunohga taluq so'zlar aslo yozilmasun» deb uqtiradi. Behbudiy taklif etgan maktub odobining go'zalligini qo'yidagi matnlar orqali bilishimiz mumkin:

Farzandning otaga yo'llaydigan maktubida:

*«Mehribon otajonim xizmatlarig'a!  
Tangrim soyai davlatingizni boshimdin eksik etmagay, aziz qiblagohim!*

*Bu aqshom uyg'a janobi xalifamni ziyoratg'a taklif qildim. Onajonim dedilarki, go'sht va birinj yo'qtur, marhamat aylab, taomg'a kerakli nimasalarni olib xizmatkordan yuborsalar, xursand bo'lur edim, afandim.*

*qulingiz...»* deya murojaat qilish kerakligi uqtiradi.

Farzandning onaga yo'llaydigan maktubida esa:

*«Sevikli onam huzuri sharifalarina!  
Parvardigorim doim sizni eson saqlasun.*

*Onajon!*

*Mehribon opamni uyig'a borganingizga o'n kun bo'ldi. Men sizni ko'b sog'indim. Boray desam, maktabdan qolurman. Ani uchun iltimos qilarmanki, emdi uyg'a kelsangiz, yo'lingizg'a ko'z tutarman, validajonim!*

*Mushfiq opamg'a salom aytarmen.»* degan samimiy fikrlar bildirilishi maqsadga muvofiq.

Shogirdning ustoziga yo'llaydigan maktubining odobi quyidagicha aks etishi talab etiladi:

*«Janobi ustodi kiromim huzuri anvorlarina!  
Parvardigorim fayzu muhabbatu ustodonalarini bizdin eksik etmagay.*

*Boisi donish va saodatim, janobi mavlom!*

*Hazrati vohib-al-atoyi o'tgan aqshom bandangizg'a bir o'g'ul birodar ato etdi. Shul sababli bukun janobi validam xizmatlariga*

*turmog'im lozim bo'ldiki, maktabg'a borolmag'animga janobingizdan afu tilarman, afandim!»<sup>1</sup>.*

Mavlono Mahmudxo'ja Behbudiyning mazkur qaydlari xalqimiz azaldan so'zga, matnga, matn mazmuniga jiddiy e'tibor bilan qaraganligidan dalolatdir. Afsuski, keyingi paytlarda, yozayotgan maktublarimizda poyintar-soyintar so'zlarning ko'pligi, bachkana, mantiqsiz iboralarning uclirashi, xato va savodsizlarcha qarashlarning mavjudligini ko'rib, yozma nutqda saviyamiz o'tmaslashib borayotganligidan taajjubga tushasan kishi. Vaholangki, nutqni yozma ravishda bayon etish qadimdan qo'llanib kelingan: munshiylar, kotiblar va allomalar bu san'atni yuqori darajaga ko'targanlar. Yozma va og'zaki nutqning yuksakligi tafakkurni go'zallashtirgan. Og'zaki va yozma nutqning uyg'unligi xususida so'z yuritib, adabiyotshunos olim Nusratullo Atoullloh o'g'li Jumaxo'ja yozadi: «Yozma nutq bilan shug'ullanmagan notiq nutqining rivoji sust. sayqal topishi qiyin kechadi. Uning so'z boyligi, ifoda imkoniyatlari cheklangan bo'ladi»<sup>2</sup>.

Hozirgi kunda kompyuter taxnikasining imkoniyatlari qog'oz orqali maktublar yozish uchun deyarli ehtiyoj qoldirmadi. Endilikda bir-birimizga qiladigan yozma muloqotimiz elektron pochta, E.mail, SMS orqali amalga oshirilmoqda. Ammo texnikaning bunday imkoniyati insonning yozma nutq madaniyatini yuksaltirdi, desak biroz mubolag'a qilgan bo'lamiz. Chunki bugungi kunga kelib, kundalik faoliyatimizda ishlatilayotgan so'z boyligimiz shunchalik nochoriki, yozma matn haqida gapirmasa ham bo'ladi. Vaholangki, yozma nutq madaniyatimizga ta'sir ko'rsatuvchi vosita va omillarning o'zi tahrirga muhtoj. Ko'chadalarda yoki OAV orqali aytilayotgan ayrim reklama roliklarining matni tushunarsiz va mantiqsiz. Hatto oilaviy, jamoaviy o'tkazadigan tadbirlarimiz uchun chiqaradigan taklifnomalarimizning matnidagi pala-partish so'zlarga e'tiborsiz bo'lib borayapmiz.

Shuni ta'kidlash lozimki, yozma matndan ommaviy axborot vositalari xodimlari, o'qituvchi-muallimlar o'rinli foydalana bilishlari lozim. Qachon matnga qarash va qachon mustaqil gapirish

---

<sup>1</sup> Ushbu matnlar Begali Qosimovning «Karvonboshi» nomli maqolasida keltirilgan matndan ko'chirib olindi. // Yoshlik, 1990. №1. 66 b.

<sup>2</sup> Qarang: Nusratullo Atoullloh o'g'li Jumaxo'ja. Istiqlo'l va ona tilimiz. T.: Sharq, 1998.

mumkinligini yaxshi o'zlashtirishlari zarur. Shu bois yozma nutqning samarali bo'lishi va uning og'zaki nutqda ifodali bayon etilishi uchun qo'yidagilarni inobatga olish zarur:

1. Yozmoqchi bo'lgan narsangizning maqsadini tushunib, aniqlab oling. Yo'qsa nimadan boshlashni bilmay, boshingiz qotadi.

2. Nomani imkon darajasida o'zingiz yaxshi tushunadigan, layoqatingiz yetadigan tilda bayon eting. Zero, tushunmasdan qo'llangan bitta so'z ham qator noqulayliklar olib kelishi mumkin.

3. Tushunilishi qiyin va murakkab bo'lgan so'zlardan kamroq foydalaning. Toki, xat borib yetadigan kishi nima demoqchi ekaningizni tushunishi oson bo'lsin.

4. Xatning mazmuni va kinga yo'nalayotganligini his qiling. Sof ilmiy asosga qurilgan noma o'quvchini zeriktirib qo'yishi mumkin.

5. Xatda iloji boricha latif, chiroyli va madh etuvchi so'zlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

6. Xatni qisqa, lo'nda va mazmunli yozishga harakat qiling. Bu sizning qanday saviyaga ega ekaningizni ko'rsatadi.

7. Maktubingizda haqorat, so'kinish va jargon so'zlarni ishlatishdan tijiling. Bu sizga nafaqat foyda keltiradi, balki bu dushmaningizni sizga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirishi ham mumkin.

8. Xatda fikringizni (agar o'rni bo'lsa) hayotiy misollar orqali bayon eting. Shunda yozgan maktubingiz tushunarli bo'ladi.

## **7.2. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati**

Bir vaqtlar nutq yuksak san'atlar qatoriga ko'tarilgan, uning sirlarini maxsus maktablarda yillar mobaynida o'rganishgan. Notiqlik san'atining mashaqqati shu darajada bo'lganki, nutqidagi nuqsонni yo'qotish uchun, hatto quduqlarga tushib o'tirib nutqni mashq qilishgan. Buyuk notiqlar Demosfen va Sitseronning hayoti bunga misoldir.

Ma'lumki, madaniy meros, ya'ni o'tmish davrlar madaniyati keyingi avlodlar madaniyatiga asos bo'lib, uni rivojlantiradigan qismi hisoblanadi. Shu jihatdan olganda mustabid davrda qadsizlantirib yuborilgan insonparvarlik axloqi xalqlarimizning adolatsizlarcha va takabburlarcha nazardan chetda qoldirilgan o'tmishi, ilg'or axloqiy merosining yutuqlari, qadriyatlari, afzalliklari bilan boyitilishi,

ayniqsa, muhim. Zero, O'rta Osiyo xalqlarining tarix xosligi, ularni jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan ulug'. Notiqlik va notiqlik san'ati borasida ham S Mavorounnahr va Xuroson maktabi namoyor madaniyatining gultojisi sifatida ajralib turadi. Bu b san'atida o'ziga xos maktab yaratgan Husayn Voiz K (1505) butun Xuroson diyorida Husayn Bayqaromning voizi, ta'birchisi, maslahatchisi sifatida mashhur edi. U musulmon xalqlarining muqaddas kitobi Qur'oni Karimga oddiy xalq tushunadigan qilib, soddalashtirib, to'rt kitobdan iborat sharh yozgan. Koshifiy o'z zamondoshlaridan farqli o'laroq, yuzni o'qish san'ati bo'yicha ham ibratli fikrlarni bayon qilgan. Voiz Koshifiy insonning chehra, soch, quloq, tishiga qarab axloqini, fe'l-xuyini aytib berish iste'dodiga ega bo'lgan ajoyib xislat sohibi edi. Uning nomi, ismi hozir ham tillardan tushmaydi.

Notiqlik san'atining nodir namunalarini yaratishda yozuvchi, shoir, san'atkor va boshqa madaniy-ma'rifiy soha vakillarining xizmatlari katta. Hatto Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Shayhzoda kabi allomalarning ayrim nutqlari teran mazmuni, ijtimoiy salmog'i, emotsional ko'tarinkiligi bilan ma'naviyatimiz tarixida chuqur iz qoldirgan. G'afur G'ulomning qozon shahrida o'tgan Abdulla To'qay yubileyida so'zlagan nutqining dovrug'i Tataristonning eng olis ovullarigacha borib yetgandi. Abdulla Qahorning 60 yillik tavallud kunida so'zlagan nutqini eslaylik. Adibning «men partiyaning soldati emas, ongli a'zosiman, to'g'ri kelgan har bir kimsaga chest bermayman» degan so'zlari bir zumda «katta og'alarning» qulog'iga yetib borgan va katta idoralarda o'tirganlarni zir titratgandi.

Shuni alohida aytish kerakki, notiqlik faqat chiroyli so'zlarni qo'llay olishdangina iborat emas, balki notiq so'zning ta'siri, uning ijtimoiy ahamiyatiga ham katta e'tibor berishi kerak. Zero, notiqning saviyasi, iqtidori, salohiyati va insoniyliги u so'zlagan matnning nechog'li ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Ayrim nutqlar badiiy tafakkur rivojiga ta'sir ko'rsatibgina qolmay, ijtimoiy taraqqiyotning ham muhim omiliga aylanishi mumkin. O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning SSSR xalq deputatlari qurultoyining minbaridan turib aytilgan nutqida «...o'zbeklarga ham beqiyos baxtu saodat, farovonlik, to'qlik bahsh

...ni, har chorrahada ayyuhannos urib maqtanuvchi kommunistik partiya va sho'ro hukumatining riyokorligi, munofiqligi, tili boshqayu dili boshqa ekanligini ayovsiz fosh qilingan»ligi o'zbekning chinakam qahramonligi edi. Bu ba'zan katta-katta kitoblar qilolmagan ishni kichkina va qisqagina bir nutq qilishi mumkinligiga, minbardan turib aytilgan so'z yurakdan otilib chiqsa, boshqa odamlar qalbida ham unutilmas iz qoldirishi mumkinligini isbotlaydi Bu kabi nutqlar nafaqat badiiy tafakkur rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda, ijtimoiy taraqqiyotning ham muhim omiliga aylanishi mumkin. Kommunistik partiyaning munofiqligini, amalda avvalgilarning hammasidan mudhishroq va shafqatsizroq mustamlaka siyosati yurgizganini baralla aytgan Odil Yoqubov nutqini akademik Andrey Saxarov o'sha qurultoyda o'rnidan turib olqishlagan, qurultoy deputatlari o'zbeklar ichida haqgo'y, adolatparvar, erksevar odamlar borligidan, ularni yuksak darajada tafakkur qila olishlariga yana bir bor amin bo'lgandilar. «Xudo haqi, Odilning shu nutqidan keyin, - deya xotirlagan edi qahramon munaqqidimiz Ozod Sharafuddinov, - men olis-yaqin yurtlarga borganimda qaddimni g'oz tutib, bo'ynimni egmay, indamay, qisinmay «men o'zbek ziyolisiman» deydigan bo'ldim..., Odil o'sha nutqi bilan o'zbek publitsistikasini rekord yuksaklikka ko'tardi»<sup>1</sup>.

Sobiq Sho'rolar davrida majlislarda, katta-kichik yig'inlarda gapiriladigan nutqlarning ichki qurilishi muayyan qolipga tushib qolgandi. Nutqning muqaddimasi partiyaga hamdu sanodan boshlanishi, avvalo partiyaga ta'zim, shon-sharaf va qulluq qilinar, so'ng erishilgan yutuqlarning olamshumulligi haqida gapirish talab qilinar edi. Shulardan keyingina, agar vaqt qolsa, asosiy masalaga o'tilar edi.

Nutq qaysi mavzu doirasida bo'lishidan qat'iy nazar nutqda notiqning hayot yo'li, yillar mobaynida kechirgan jamiki murakkabliklari, chekilgan iztiroblar aks etmog'i va shunga o'xshash hodisalar hayajon bilan bayon etilmog'i kerak. Shuning uchun ham odamlar yubileyini nishonlayotgan insonga oxirida so'z berganlarida uning so'zini butun vujudlari bilan eshitishga harakat qiladilar, nutqni gulduros qarsaklar bilan olqishlaydilar. Boisi, yubilyarning nutqida uning hayoti, hayajoni va samimiy mulohazasi aks etgan bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Sharafuddinov O. Ijodni anglash baxti. T. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2000.

Uzoq davrlardan buyon kishilarning o‘zaro munosabatlarida, ular bir-birlarini tushunishlarida, fikr almashishlarida nutq, nutqiy munosabatlar hamisha muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Bugun zamon talabiga mos ravishda tilning kommunikativ-funksional tamoyiliga, asosan, nutqiy faoliyatga e‘tibor kuchaydi. Nutqiy faoliyat til va nutq dialektikasiga muvofiq tarzda ro‘yobga chiquvchi hodisa bo‘lib, uning har qanday turi so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat vositasi hisoblanadi.

Nutqning mohiyati uning madaniyligi, ommaviyligi va ijtimoiy qimmatini bilan belgilanadi. «Madaniy nutq», «nutq madaniyati», «notiqlik» degan iboralar bor. Nutqning xarakteri ana shularning mohiyatini bilish bilan izohlanadi. Ularning lingvistik birlik sifatida o‘z xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular insonlarning o‘zaro fikr almashishdagi nutqiy jarayonning bosqichli shakllari deyish mumkin. Anashu shakllar to‘g‘ri nutq, nutq madaniyati – notiqlikdir.

*To‘g‘ri nutq* - hozirgi adabiy til me‘yorlariga rioya qilib tuzilgan nutqdir. Yuqori nutq madaniyati - fikrlarni til vositalari bilan to‘g‘ri, aniq va ta‘sirchan qilib bera olish mahorati. Notiqlik esa og‘zaki nutq madaniyatining yuqori darajasi, yetuk nutqiy san‘atdir. Nutq madaniyati aslida, adabiy til mezonlari asosidagi, nutqiy faoliyat, nutqiy malaka, nutqiy ko‘nikma birligidan iborat. Adabiy tilsiz nutq madaniyatini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Adabiy til nutq madaniyatining to‘g‘ri so‘zlash va yozishning o‘lchovi va mezonidir.

Nutq madaniyati, nutqiy mahorat va notiqlik san‘atiga doir qator ilmiy ishlar muallifi, zamonamizning ajoyib notig‘i Rahimboy Jumaniyozov nutqiy faoliyatning bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi, o‘ziga xos turlari hamda og‘zaki nutq va yozma nutq haqida talaygina ijobiy fikrlarni bayon etadi<sup>1</sup>.

Og‘zaki nutq yozma nutqqa nisbatan ancha faol, jonli jarayon. Og‘zaki nutq qo‘llanish usuliga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1. Oddiy so‘zlashuv nutqi. Bu kundalik hayotimizda o‘zaro muomala jarayonida ishlatiladigan nutq. 2. Adabiy so‘zlashuv nutqi. Bu muayyan shaxslar doirasida tilning me‘yoriy mezonlarini qo‘llash orqali ro‘yobga chiqadi.

Og‘zaki va yozma nutqning o‘zaro bog‘liqligi ularning shakllanish jarayonidagina emas, balki taraqqiy etishida, sayqal topishida

---

<sup>1</sup> Qarang: Jumaniyozov Rahimboy. Nutqiy mahorat. T.: Adolat nashriyoti, 2005.

ham muqimdir. Notiq aytmoqchi bo'lgan fikrini, maqsadini to'raligicha bo'lmasa-da, maqsadining xomaki, qoralamasini, qog'ozga tushiradi, rejalashtiradi. Nimadan nimaga o'tish, qancha to'xtalish, nimalarni aytish yoki aytmaslik haqida chizgilar notiq so'zlayotgan paytda ham uning ko'z oldida xuddi qog'ozdagidek xayoliy su'rati namoyon bo'lib turadi. Aks holda, nutq me'yori buzilib, vaqt cho'zilib ketishi, notiqni auditoriya yaxshi qabul etmasligi mumkin.

Muloqot vositasi kommunikatsiya nutqiy (og'zaki va yozma), paralingvistik (tovush ohangi, gap tezligi, ovoz tembri), kinetik (xatti-harakat, mimika, harakatning boshqa shakllari) va narsa belgili (haykal, rasmlar) vositalar tarzida amalga oshiriladi. Nutqiy malakaga, ko'nikmaga ega bo'lmagan o'qituvchi yoki talaba tilimizning sofligini ham, boyligini ham namoyish eta olmaydi. Chinakam notiq nutq texnikasi - ovoz, nafas, to'xtalish, ohang kabi nutqning ifoda vositalari, mashqiy jarayon bilan chegaralanib qolmasdan, balki nutqiy mahorat, nutqiy faoliyat qirralarini egallashga intilishi, nazariy ma'lumot va amaliy mashg'ulotni uyg'unlashtira olishi zarur. Ifodali o'qish matn mazmunini yetkazishga daxldor texnik va nazariy vositalarni bilish va unga amal qilish har doim ahamiyatlidir.

Zamonamizning e'tiborli notig'i Rahimboy Jumaniyozov notiq va voiz tushunchalari bir xil ma'noga ega emasligi, ular mohiyat e'tibori bilan alohida san'at ekani, ularning bir-biridan farq qiluvchi tomonlari haqida ta'kidlaydiki, «Notiqlik qo'llanish o'rni, mavzu doirasi va ma'no qamrovi jihatidan birmuncha keng. Voizlik ham nutqiy mahorat orqali o'z ro'yobini ko'rsatadi. Unda diniy, didaktik va hayotiy mazmun ustuvorlik qilgan, notiqlik dunyovilik bilan hamma davr va makonlarda har xil g'oya va maslaklarga xizmat qilgan. Shunday ekan, voizlik notiqlikning bir ko'rinishi degan fikr haqiqatga yaqin»<sup>1</sup>.

Agar o'xshatishimiz o'rinli bo'lsa, bugungi kunda voiz-va'xon ataluvchi kishilar diniy bayramlar va marosimlar — Ramazon va Qurbon hayitlari, Amri ma'ruf, Mavlud an-nabiy, Xatmi Qur'on kabi islomiy marosimlarda diniylik bilan zamonaviylikni uyg'unlashtirgan holda ilm, ma'rifat, shariat va axloq masalalariga doir mavzular asosida suhbat quruvchilardir.

---

<sup>1</sup> Jumaniyozov Rahimboy. Nutqiy mahorat. T.: Adolat nashriyoti, 2005. 17 b.



Voizlik san'atiga suxandonlik san'ati yaqin turadi. Suxandonlik mohiyatan so'z ustasi, so'zga chechan degan ma'nolarni anglatadi va u diktor so'zidan farq qiladi. Xalqimiz O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist O'tkir Siddiqovni suxandon, so'z ustasi sifatida qadrlaydi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Nasiba Ibrohimovani esa mohir diktor sifatida yaxshi ko'radi.

Amir Unsurulmaoniy Kaykovus «Qobusnoma» asarining «Suxandonlik bila baland martabali bo'lmoq zikrida» deb nomlangan ettinchi bobida suxandonlikning mohiyati, zarurati, shartlari va xususiyatlari bilan bog'liq muhim fikrlarni ilgari suradi. Suxandonlikning muhim shartlari – rostgo'ylik hamda nomaqbul rostni aytishdan tiyilishda, so'zni g'oyatda ulug'ligini his qilish hamda so'zni uvul qilmaslikda, so'zning o'rni qo'llay olish hamda undan oqilona foydalanishda deb biladi<sup>1</sup>.

Kaykovusning fikridan xulosa qiladigan bo'lsak, suxandon nafaqat chiroyli so'zlashi, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham tarbiyali bo'lishi zarur.

Nutqiy mahorat bu oddiy nutq emas, balki fikmi sodda va chiroyli ifoda eta olishdir. Shu bois nutq madaniyati notiqlik bilan bevosita aloqador bo'lsa ham, ular aynan bir tushunchalar emas. San'at ma'nosidagi notiqlik nutq madaniyatining eng yuqori nuqtasidan boshlanadi. Xalq orasida «so'zga chechan», «gapni do'ndiradi», «gapni qotiradi, kiyvoradi» degan iboralar yuradi. Bu notiqlik alomatlarini bor kishilarga nisbatan qo'llaniladi. Darhaqiqat, ular nutqiy mahoratning ilmiy asoslaridan, uning sir-asrorlaridan voqif emas. Muayyan ma'rifiy maqsad yoki mavzuni umumlashtirish, kompozitsion yaxlitlikda taqdim eta olish salohiyati ularda unchalik shakllanmagan bo'ladi. Biroq har qanday holatda – ulfatchilikda, gap-gashtaklarda, guzarlardagi suhbatlarda so'z, nazmga va askiyaga moyilligi yuksakligi bilan «uloqni» olib ketadi.

Notiqlik tinglovchi e'tiborini tortish asnosida chiroyli gapirish va mahliyo etish san'atidir. Ammo nutqning faqat chiroyli bo'lishi notiq uchun kifoya qilmaydi: bema'ni safsatalarni ham juda chiroyli qilib gapirish mumkin. Bu esa notiqlik emas, vaysaqilik sanaladi. Notiqlik nutq vositasida kishilarga muayyan g'oya va maqsadlarni yetkazishni, ularni ma'lum maqsadlarga yo'naltirishni nazarda tutadi.

---

<sup>1</sup> Kaykovus. Qobusnoma. T.: Istiqlol, 1994. 36 b.

Notiq nutqi 1-2 kishi uchun emas, keng auditoriyaga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan birga, unda nutqning mazmuni, mantiqiy asoslariga, mundarijaviy tuzilishiga diqqat qilinadi. Notiqlikda notiq, oldindan qanday so'zlash, nimadan boshlab, nimada tugatish rejalarini tuzib olishi rasm emas. U go'yo tayyorgarlik ko'rilmagan nutqqa o'xshaydi. Unda badihago'ylik, hozirjavoblik ustunlik qiladi. Nutq madaniyati tugal fikr, go'zal ifoda demakdir. Izchillik bilan bir-biriga mantiqan bog'lanmagan tugal fikr va uning ta'sirli ifodasi bo'lmasa, u kishi qalbi, ongiga sig'maydi, qabul qilinganda ham chuqur anglashilmaydi.

Nutqning to'g'riligi deganda, dastavval uning adabiy til me'yorlariga mos kelishi tushuniladi. Busiz boshqa aloqaviy sifatlar bo'lishi mumkin emas.

Bir tilga xos xususiyatlarni yoki so'zlarni ikkinchi tilga qo'shib so'zlash yoki adabiy til me'yorlariga mos bo'lmagan so'z va iboralar (jargon, ko'cha gaplari)ni qo'llash nutqning tozaligiga zid. Demak, nutqning tozaligi, uning adabiy til mezonlariga mos kelish-kelmasligi, g'ayriadabiy til unsurlaridan xoli bo'lishidir. Ba'zi hollarda kishilar muloqot mavzuini chuqur bilmasdan, fikr ifodalashda qiynaladilar va odatga aylangan «Xo'sh», «haligi», «anaqa», «o'sha», «nimaydi», «deylik» kabi so'zlarni ishlatadilar. Bular tilshunoslikda «parazit so'zlar» deyiladi.

Nutq tozaligiga salbiy ta'sir etuvchi holatlardan biri vulgar (qo'pol) so'zlarni istifoda etishdir. Qarg'ish, haqorat ma'nolarini anglatuvchi bunday so'zlar oynai jahon orqali namoyish etiluvchi badiiy film va spektakllarda qahramon qiyofasini, saviyasini, ruhiyasini, ruhiy holatini ochishda ba'zan qo'llaniladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan nutqiy sifatlar bilan bevosita daxldor bo'lgan omillardan biri nutqning ta'sirchanligidir. Nutq ta'sirchanligi, asosan, og'zaki nutq jarayoniga tegishli. So'zlayotganingizda eshituvchining ko'z o'ngida tasviriy manzara hosil qila olsangiz, obrazli fikr yuritsangiz, o'z so'zingizga ishontira olsangiz, qiziqtir-sangiz, nutqingiz ravn bo'ladi va ta'sir darajasi oshib boraveradi.

O'xshatish yuzasidan o'quvchilar ongiga singdirilgan bilim keyingi darslarda to'ldirilib, mustahkamlab boriladi.

Eng muhimi esa, ifodali o'qish jarayonida shoshilmaslik, o'qilayotgan matn mazmunini to'la ochib berish va tinglovchilarga etkazishni, darsda o'tilgan g'oyaviy-badiiy omillarga e'tibor berish

lozim. Toki, bu o'qish shunchaki tez o'qish, umuman o'qish yoki formalistik o'qishga aylanib ketmasin. Buning uchun esa har bir ifodali o'quvchini butun borlig'i bilan ana shu asarga mahliyo etish, unda ifodali o'qish uchun zavq va rag'bat uyg'ota olish lozim. Bu har bir o'quvchining mahoratiga bog'liq. Biroq ifodali o'qish uchun ana shu katta ishtiyoq bo'lgandagina asarning estetik fazilati yaqqolroq ochilib borishi va adabiyot darslarining estetik badiiy yuqori bo'lishi har bir o'quvchining diqqat markazida turishi zarur.

Shunday qilib, «nutqiy obraz» haqidagi tushunchani o'quvchilar ongida shakllantirishning prozaik asarni o'rganishda imkoniyat katta. Ammo «nutqiy obraz»ning poetik asarda roli katta ekanligini nazarda tutish kerak. Nutqiy obrazlar haqidagi tushunchani shakllantira borish orqali o'quvchida hayot to'g'risidagi tasavvur o'stirib boriladi. O'quvchilar istiora-o'xshatishni ongli ravishda tushunib yetmoqlari uchun poetik obraz orqali konkret predmet va hodisalarni yaxshi bilib oladilar. Nutqiy obraz mazmunini ochishda konkret misollardan foydalanish lozim, albatta. Bunda har bir shoir yoki yozuvchi ijodidagi originallikni yoritib berishga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarni ifodali so'zlarga qiziqish va e'tibor uyg'otish uchun shu so'zlar mazmunini tushuntirish, so'zlayotgan kishi fikrini anglatishdagi buyoqdorligini anglatish lozim. Badiiy nutq g'oyat ta'sirchan bo'ladi. Undan kim qanday so'zlayotganini, uning g'azab yoki shodlik bilan, qayg'u yoki quvonch bilan fikr bildirayotganini payqab olish oson.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, nutq yorqin va ta'sirchan bo'lishi uchun quyidagilarni unutmaslik tavsiya etiladi:

- nutq yolg'ondan yiroq bo'lishi, nutqqa yolg'on aralashmasligi zarur;

- nutq kuchli mantiqqa asoslangan haqiqat asosiga qurilishi kerak;

- nutq dalil-isbotli, faktlarga boy bo'lishi lozim;

- nutq mazmunidan kelib chiqib, fikr hayotiy misollar orqali yoritilishi maqsadga muvofiq;

- eshituvchi uchun noma'lum bo'lgan ma'lumotlarni keltirmagan ma'qul;

- nutq hayajon va jo'shqinlik tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan bo'lishi darkor;

- nutqda har bir so'zning salmog'iga e'tibor berish, uning ta'sirini ko'ra bilish zarur;

- nutqda zimmaga yuklangan mas'uliyatni chuqur his qilish lozim;
- har bir nutqda hayotning biror-bir dolzarb masalasi ko'tarilishi kerak;
- nutqda mavzu bilan bog'liq biror rivoyat. latifa, xotira yoki obrazli iboralar bo'lishi maqsadga muvofiq;
- nutqda bildiriladigan muammo tinglovchi va jamoatchilikka tanish bo'lishi lozim.

Fazilatlarini ikki turkumga bo'lar ekan, alloma Abu Nasr Forobiy uni «Nutqiya» va «xalqiya»ga ajratadi. Nutqiya fazilatlarini - ruhning gapiruvchi quvvatiga taalluqli bo'lib, ular hikmat, aql, ajin (peshonadagi), fahm afzalligi va zakovatdan iborat. Bilish vositalari va omillarini esa qo'yidagilardan iborat, deb ko'rsatadi, - nutq. tasavvur, his. Narsalar to'g'risidagi bilim nutq quvvati hamda tasavvur orqali, shuningdek, his-tuyg'u vositasida paydo bo'ladi. Har vaqt bilim hosil qilishga iroda ko'rsatilsa, uning idroki nutq quvvatining sha'nida, ya'ni markazidadir. Fozillar shahrining asoschisi bo'lgan birinchi Rais 12 ta xislatga ega bo'ladi. Uchinchi o'rinbosar bo'lgan shaxsga ushbu xislatlardan birinchi oltitasigina shart bo'ladi. Bu shartlarning biri — gapirayotgan gapining salmoqdor va kam bo'lsa ham, ta'sirchan bo'lishidir<sup>1</sup>.

Til, nutq hamda yozuv o'zaro bir butunlikni hosil etibgina qolmay, og'zaki va yozma nutqning asosiy manbai hamdir. Nutqiy bo'linishlar sirasidan o'rin olgan telenutq va radionutq ommaga muayyan tilning jozibasi va boyligini namoyon etuvchi, yetkazuvchi asosiy vositalardandir. Ma'lumki, so'z va nutq vositasida yakka shaxs va jamoa bilan muomalada bo'lishga qaratilgan ixtisosliklar ibtidoiy ko'rinishlarda bo'lsa-da, qadimdan mavjud. Hozirda esa uning rang-barang, zamonaviy texnika vositalari orqali muloqotda bo'lish shakllari ommalashib bormoqda. Garchi shunday esa-da, so'z, nutq ijtimoiy til birliklariga munosabat hamma davrlarda bir xil bo'lgan. Ajdodlarimiz so'zni, nutqni ilohiy ne'mat, hikmat deb qarashgan. Uni to'g'ri va o'rinli qo'llay bilish nozikta'b notiqlarga, suxanvarlarga nasib etgani rost. Yurtboshimizning Oliy Majlis minbaridan turib, «O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda

---

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt, saodat va kamolot haqida. T.: Yozuvchi, 2002. 16-27 b.

eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin»-deb ta'kidlashlari bejiz emas<sup>1</sup>. To'g'ri ta'kidlanganidek, gap so'zning soni yoki sifatida emas, balki ularni bilish va o'z o'rnida qo'llay olishdadir.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Yozma nutqda muomala madaniyatining ahamiyati nimada?
2. Sharq adabiyotida noma yozishning go'zal namunalaridan misollar keltiring?
3. Behbudiyning xat yozmoq shartlariga doir fikrlarini izohlang?
4. Notiqlik san'atining nodir namunalarini misollarda ifodalang?
5. "Madaniy nutq", Nutq madaniyati" iboralarini sharhlang?
6. Oddiy so'zlashuv nutqining adabiy so'zlashuv nutqidan farqi nimada?
7. Muloqot vositalarini ko'rsating va izohlang?
8. Nutqning ta'sirchanligi nimalarga bog'liq?

### **Amaliy mashg'ulot savollari:**

1. Yozma nutqning tarixiy ildizlari.
2. Maktub yozish madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari.
3. O'zaro yozishmalarning muomala madaniyatiga asoslanishi.
4. Yozma nutq samarasining muhim shartlari.
5. Nutq madaniyatining asoslari.
6. Nutq madaniyati yuksak san'at sifatida.
7. Notiqlik san'atining badiiy tafakkur rivojiga ta'siri.
8. Notiqlik san'atida nutqiy mahoratning o'rni.

---

<sup>1</sup> Karimov I. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: O'zbekiston, 1998. 9 b.

## 8-BOB. ETIKET MUOMALA MADANIYATINING ZAMONAVIY KO'RINISHI SIFATIDA

### 8.1. Etiket turlari

Etiket - axloqiy madaniyatda yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlarning ko'rinishlaridan biri. U ko'proq insonning tashqi madaniyati, o'zaro munosabatlaridagi o'zini tutish qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondashsa, ya'ni bir holatda, bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo'lsa, etiket muayyan holat uchun qoidalashtirib qo'yilgan xatti-harakatni taqozo etadi. Etiket keng qamrovli tushuncha bo'lib, u ma'lum ma'noda, umumbashariy miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o'z ichiga oladi.

Etiket - "etika" so'zining o'zagi sifatida bevosita axloqiy me'yorlar, tamoyillar va mezonlarning «yukini» ko'tarishga qodir bo'lgan axloqning amaliy ko'rinishidir. Har bir sohada etiket ko'rinishlari mavjud bo'lib, uni buzish atrofdagilarda hayrat va istehzo uyg'otadi. Shu bois etiketni odat tusiga aylantirilgan, qatirlashtirilgan muomala odobi deyish ham mumkin.

Etiket takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishining ko'zini quvontiradigan muomala hodisasi. Lekin ayni paytda, u asl axloqiy asosini yo'qotgan majburiy mulozamat tarzida ham namoyon bo'ladi: etiket qoidalarini bajarayotgan kishi aslida o'z xohish-ixtiyoriga qarshi ish ko'rayotgan bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, umuman olganda, etiket shaxsni muayyan tartib-qoidaga, qanday ichki ruhiy sharoitda bo'lmasin, bosiqliqqa, muloyimlik va sabr-toqatga o'rgatishi bilan ahamiyatlidir. Quyida bugungi kunda kishilar hayotiga chuqur singib borayotgan so'zlashuv, muloqot madaniyatiga doir jarayonlardagi etiketning ayrim turlari va bu boradagi tavsiyalarni e'tiboringizga havola etamiz.

**Tanishish va tanishtirish etiketi.** Tanishtirish, odatda, kichik yoshdagilardan boshlanadi, agar vaziyat taqozo etgan hollarda kichiklar o'zlarini kattalarga tanishtiradilar. Jamoat joylarida ham,

shuningdek, kichiklar kattalarga o'zini tanishtiradi. Biroq bu jarayon jinslar o'rtasida biroz boshqacharoq ko'rinishga ega, ya'ni ayol kishi yoshi va mavqeidan qat'iy nazar, hech qachon erkak kishiga o'zini birinchi bo'lib tanishtirmaydi. Bu yagona holatda istisno qilinadiki, u ham bo'lsa, qiz bola agar o'qituvchisi erkak kishi bo'lsa, unga o'zini tanishtirishi mumkin.

Shuningdek, siz biror kishini tanishtirayotganingizda yoki aksincha, sizni biror odam bilan tanishtirishayotganda tabassum qilishni unutmang. Bu tabassum iljayishdan farq qilishi, ko'proq samimiylikka asoslanishi shart. Chunki do'stona tabassum bilan boshlangan tanishuv odamning xotirasida uzoq saqlanishi mumkin.

Tanishayotgan odam birinchi bo'lib, tanishtirilayotgan odamga qo'l uzatadi. Bu jarayon ham jinslararo munosabatda - ayol bilan erkak tanishtirilayotganda, ayollar erkaklarga qo'l uzatadilar. Shuningdek, kattalar-kichiklarga qo'l uzatadilar, tanishtirilgan tanishuvchining mulozamat bilan qo'l uzatishini tavoze va xotirjamlik bilan kutib turadi, yo'qsa qo'l berib so'rashishning hojati yo'q.

Tanishtirilayotgan paytda xoh erkak, xoh ayol, xoh yosh, xoh keksa kishi bo'lsin, albatta, o'rnidan turishi shart. Bu tanishayotgan odamga nisbatan hurmat belgisidir.

Jamoa orasida xodimni rahbar, mehmondorchilik paytida esa, mehmonni xonadon egasi tanishtiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, tanishuv paytida orada begonalar bo'lsa, ularni e'tiborsiz qoldirib, eski tanishlar, do'stlar bilan uzoq ko'rishib, ularni kuttirib qo'yish yaxshi emas. Agar tanishishning zarurati kelib qolsa-yu tanishtiradigan odam bo'lmasa, o'zingiz bu vakolatni zimmangizga olishingiz mumkin.

Oila a'zolari tanishtirilayotganda, ularning ismlarini aytib, "rafiqam", "qizim", "o'g'lim" deb tanishtirganingiz ma'qul. Ota-onalarga esa buning aksi bo'ladi, ya'ni boshqalar ota-onalarga tanishtiriladi.

Tanishtirishdan avval tanishtirayotgan kishingizning ismini aniq bilib oling va tanishtirayotganda uning ismini chiroyli talaffuz qiling. Yaxshi bo'lardi, agar har bir ismning ortiga ismiga mos ravishda "jon", "bek", "xon", "ali", "boy" kabi qo'shimchalarni qo'shib aytilsa. Biroq Gavhar ismini «Govxar», Shavkat ismini «Shovkat», Latif ismini "Latip" deb aytish ismning asl matnidagi ma'nosiga mutlaqo ziddir. Zero, forscha «Gov»-mol, "Xar"-eshak ma'nolarini anglatadi.

**Ko'rishish etiketi.** Ko'rishish etiketi qoidalari milliy xususiyatlardan kelib chiqib, turli xalqlarda turlicha ko'rinishlarga ega. Ko'rishish salomlashish, bosh qimirlatish, quchoq ochish, qo'l berish, qo'lni ko'ksiga qo'yish va hatto o'pishish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon hindlarda kaftlarni juftlab, peshonasining o'rtasiga tekizish bilan, afg'onlarda o'ng qo'lni manglayiga tegizib, ta'zim qilish bilan, tibetliklarda bir-birlariga qarab tillarini chiqarish bilan, o'zbeklarda qo'lni ko'ksiga qo'yish bilan ko'rishiladi.

Vaziyatdan kelib chiqqan holda, ko'rishishning yuqoridagi shakllaridan biri tanlanadi. Ko'rishayotganingizda suhbatdoshingizga yaxshi niyatda ekanligingizni ko'rsatishga harakat qiling. Bildirayotgan tilaklaringiz, mulohazalaringizni samimiy bayon eting, fikrlaringiz soxtalikdan yiroq bo'lsin.

Ko'rishish etiketiga ko'ra, yoshi kichik erkak yoshi katta ayol (tanishi, hamkasbi, qarindoshi) bilan uchrashganda birinchi bo'lib mulozamat bildirishi lozim. Agar ayol kishi erkaklar bilan ketayotgan paytda dugonasini ko'rib qolsa, bu holatda dugonasiga birinchi bo'lib mulozamat qilishi kerak.

Garchand, ayollarning erkaklar bilan qo'l berib so'rashishlari xalqimiz tabiati (mentaliteti)ga xos bo'lmasa-da, zamonaviy etiket bu jarayonni me'yor darajasida chetlab o'tadi. Zero, ishlab chiqarish korxonalarida, ta'lim muassasalarida, davlat tashkilotlarida erkaklar bilan birga xizmat qilayotgan ayollar bunday vaziyatlar bilan tez-tez to'qnash keladilar. Lekin erkaklar ayollar bilan ko'rishar ekanlar, nigohlarini ayolga "eb qo'ygudek" qilib tikilishlari kulgili holatlarga olib kelishi mumkin.

Agarda bir necha odamlar bo'lgan xonaga kirib, ulardan biri bilan qo'l berib ko'rishdingizmi, endi boshqalar bilan ham qo'l berib so'rashishingiz shart. Yo'qsa, mutanosiblik buzilib, bu ayrim kishilarni sizdan ranjishiga olib keladi. Yo'lda uchragan ayol bilan qo'l uzatib ko'rishishga to'g'ri kelib qolsa, ayol qo'lqopini echmasligi mumkin, ammo erkak, albatta, echib ko'rishishi lozim. Agar ayol kishini erkak kishiga tanishtirishayotgan bo'lishsa, ayol kishi birinchi bo'lib qo'l uzatadi.

Restoran, qahvaxona, oshxona va choyxonalarda tasodifan uchrashib qolgan tanishlaringiz, agar ular uzoqroqda bo'lishsa, ularga boshingizni silkitib qo'yishingiz kifoya qiladi. Agar ayollar qurshovida bo'lsangiz, ular bilan umumiy tarzda bir marta salomla-



shib qo'yiladi. Etiketning buzilishi ko'rishuvning muvozanatini izdan chiqarib yuborishi mumkin. Jamoat orasida zinhor baland ovozda tanishlaringiz bilan ko'rishmang, bu madaniyatsizlik alomatidir.

**Suhbatlashish etiketi.** Muomala suhbatlashishning eng muhim vositasidir. Bunda ham umume'tirof etgan qoidalar mavjud. Suhbatdoshning gapini bo'lmasdan eshitish nafaqat hurmat belgisi, balki insonning ziynati hamdir. Suhbatdoshingizni tinglayotganingizda, iloji boricha boshqa narsalarga e'tibor qaratmaslikka harakat qiling, aytayotgan gaplarini tasdiqlash ma'nosida boshingizni silkitish, "darhaqiqat", "to'g'ri", "topib aytdingiz», "men ham qo'shilaman", "chiroyli ta'rifladingiz" kabi ma'qullash ma'nosidagi so'zlarni aytishni unutmang. Sizga gapirayotgan odamga teskari qarab o'tirish, gapirayotgan paytda biror narsani o'qib turish, bir vaqtning o'zida boshqa kishi bilan gaplashish, hadeb soatga qarayverish, es-nash, cho'ntak kavlash yo boshqa shu kabi mayda-chuyda harakat-larni qilish suhbatga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Suhbat jarayonida ba'zan bir necha kishi ishtirok etishi ham mumkin. Bunday vaziyatda suhbatning mavzui har bir odam uchun qiziqarli va tushunarli bo'lishiga erishish lozim. Davradagi suhbatdoshlar uchun mutlaqo notanish bo'lgan mavzular – ishxonangizdagi islohotlar, kamchiliklar, oilangizdagi ziddiyatli holatlarni gapirishning suhbatdoshlar uchun qizig'i bo'lmaydi. Suhbatdoshlaringiz ilm ahllari bo'lmasa, bu erda ilmiy iboralar, ilmiy muammolarga doir mavzulardan chekinib, suhbatni ommabop, barcha tushunadigan mavzular doirasida olib borish maqsadga muvofiq.

Faqatgina o'zini dardini gapirish uchungina suhbatlashadigan odam - yomon suhbatdoshdir. Bunday kishilar pirovardida tinglovchilarsiz qolib, u ishtirok etgan suhbatlar zerikarli bo'lishi shubhasiz. Shuni alohida qayd etish zarurki, sizni tinglayotgan odamning ta'sirlanish holatini kuzatib turish juda muhim. Chunki bilib-bilmay aytilgan so'z va iboralar suhbatdoshingizni sizdan bezdirib qo'yishi va uni xafa qilishi mumkin. Suhbatga endigina kelib qo'shilgan, suhbatga kirishib ulgurmagan kishiga suhbat qanday mavzu haqida borayotganligi qisqacha izohlab beringki, bu sizning unga ko'rsatgan yordamingiz bo'ladi. Yo'qsa, «qovun tushirib» barchaning oldida izza bo'lishi mumkin.

Kim bilan suhbatlashmang, nutq tozaligiga e'tibor bering va g'ayriadabiy til unsurlaridan xoli bo'ling. Suhbat davomida iloji boricha, sheva, varvarizm, konselyarizm, professionalizm, akademizm, vulgar (qo'pol, haqoratomuz, so'kinishlar) va parazit (anaqa, haligi, hmm, anovi kabi so'zlar) so'zlarni ishlatmaslikka harakat qiling. Suhbatlashayotganda o'zingizni ko'rsatishga, ortiqcha takalluf qilishga, noo'rin mulozamat qilishdan tiyiling. Bu holat atrofdagilarda xunuk taassurot qoldiradi. "So'zlayotganingizda eshituvchining ko'z o'ngida tasviriy manzara hosil qila olsangiz, obrazli fikr yuritsangiz, o'z so'zingizga ishontira olsangiz, qiziqtirsangiz-deb ta'kidlaydi notiq R.Jumaniyozov, nutqingiz ravon bo'ladi va ta'sir darajasi oshib boraveradi»<sup>1</sup>.

Zaruriyat taqazosiga ko'ra suhbatlashishga "majbur" bo'lgan holatlar – kupe, kayutada bo'ladigan suhbatlar yengil va beg'araz bo'lishi lozim. Agar yo'lovchi-suhbatdoshingiz g'oyatda tarbiyali bo'lsa, suhbatlashishni istamayotganligini o'zining sizga berayotgan qisqa javoblari orqali bildiradi. Siz buni tez tushunib yetishingiz lozim, yo'qsa, "devorga" gapirgandek mulzam bo'lishingiz, shubhasiz. Suhbatlashish uchun topmoqchi bo'lgan mavzular suhbatdoshingizga anketa-so'rovnoma ko'rinishida bo'lmasin. Chunki tergovchi bilan suhbatni eslatuvchi bunday savollar suhbatdoshni xavotirga solib qo'yadi. Bahsdagi yoki suhbat jarayonida yuzaga keladigan ziddiyatlarni latifa yoki qiziqarli voqealar yumshata olishi mumkin.

**Telefonda gaplashish etiketi.** Informatsiya asri deb nom olgan XXI asr integratsiya va globallashuv jarayonini tezlashtirib yuborganligi barchamizga ma'lum. Bu asr nafaqat insoniyat tafakkurini o'zgartiradi, balki uning turmush tarzini ham mutlaqo boshqa ko'rinishga aylantirib yuboradi. Hozirda tez ma'lumot uzatish va qo'proq ma'lumotga ega bo'lish zamonaviy shaxs mentalitetiga singib bormoqda. Ana shu jarayonda telefon tarmoqlari orqali olinadigan ma'lumotlar bazasi muloqot va aloqaning muhim vositasi sifatida ahamiyatlidir. Shu bois, "Telefonning muomala madaniyati va etiket vositasi sifatida o'ziga xos xususiyatlar nimada?" degan savolning paydo bo'lishi, shubhasiz. Zamonaviy etiketga ko'ra, telefonda gaplashishning ham tartib-qoidalari bor. Shu munosabat

---

<sup>1</sup> Qarang: Rahimboy Jumaniyozov. Nutqiy mahorat. T.: Adolat, 2005. 55 b.

bilan bu xusisdagi etiketga doir ayrim mulohazalarni bayon etishga harakat qilamiz.

Telefon qo'ng'irog'ini uzoq kutmay, tezroq go'shakni olib, javob berishga harakat qiling. Telefonda gaplashish ham, avvalo, salomdan boshlanadi. Qo'ng'iroq qilganingizda sizga kerak bo'lgan odamni topolmasangiz, murojaat qilayotgan kishingizga o'zingizni tanishtirib, tegishli ma'lumotni qoldirishingiz lozim.

Etiketga ko'ra biror-insonga qo'ng'iroq qilmoqchi bo'lsangiz ertalab soat 9 dan keyin, kechqurun esa, soat 10 gacha qo'ng'iroq qilishga odatlaning: favqulodda vaziyat yuzaga kelganda yoki qo'ng'irog'ingizni intiqlik bilan kutishayotgan paytda qilinadigan qo'ng'iroqlar bundan mustasno.

Agar suhbatlashayotgan vaqtda telefon aloqasi uzilib qolsa, bu holatda qo'ng'iroq qilgan odam yana qayta qo'ng'iroq qilishi kerak. Go'shakni olgandan so'ng, hech qachon «Kim bu?», «Kim so'rayapti?» degan savolni bermang. Shaxsiy masalalar yuzasidan qo'ng'iroq qilsangiz, avvalambor, suhbatdoshingizning sizni eshittish uchun imkoniyati bor yoki yo'qligini so'rang. Ya'ni «Bir ish yuzasidan maslahatingiz kerak edi, vaqtingiz bo'ladimi?», «Falon masalani batafsil o'rganishimga to'g'ri keldi, agar vaqtingiz bo'lsa, telefonda aysam ham bo'ladimi» kabi murojaatlar qilish o'rinlidir. Agar juda zarur bo'lmasa, shaxsiy masalalar bo'yicha ishxonaga qo'ng'iroq qilmaslik kerak.

Odatda telefonda gaplashish qisqa, lo'nda, aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Telefon tarmog'ingizga yangilishib qo'ng'iroq qilgan odamga ters va keskin javob qilmasdan, muloyimlik bilan javob bering. Keyingi adashilgan qo'ng'iroqqa javoban, uzr so'rab, raqamni oydinlashtirib oling. Zero, har kim ham yanglishishi mumkin.

Mehmonga borganingizda telefon zarur bo'lib qolsa, avval, mezbondan ruxsat so'rang. Bu paytda mezbonning oldida turish, hadeb unga qarayverish noqulay vaziyatni yuzaga keltiradi. Agar tarmoq besh-olti signaldan keyin ham javob bermasa, go'shakni joyiga qo'yganingiz ma'qul.

Nutqimizdagi «uzr», «iltimos», «rahmat» kabi sehrli so'zlardan foydalanish telefon suhbatlarida ijobiy samara beradi. Noqulay vaziyatga tushishni istamaydiganlar doimo bir narsani yoddan chiqarmasliklari kerak, u ham bo'lsa, garchand sizga juda yaqin bo'lgan odamlarda

vaziyat taqozosiga ko'ra, turli sharoit va turli kayfiyatda bo'lishi mumkin. Buni siz suhbatdoshingizning so'zlash ohangidan uning kayfiyati qanday ekanligini bilishga urining va shunga mos tarzda suhbat olib boring. Suhbatdoshning avzoyi buzuq holatda hazil, qochirim, luqma so'zlar bemavrid hisoblanadi. Do'stingiz, hamkasabangiz, qarindosh-urug'laringizni telefonda hayotingizdagi shaxsiy muammolaringiz, shikoyatlaringiz, kasalingiz, turmush o'rtog'ingiz va farzandlaringiz keltirgan tashvishlar haqida gapirib, ularni qiynamang. Olgan narsangizni soatlab muhokama qilmang.

Jamoatchilik foydalanadigan telefonlarda gaplashganingizda, boshqalarning sizdan so'ng navbatda turganlarini unutmang. Shu bois suhbatni qisqa va aniq bo'lishiga erishing. Bugungi kunda tarmoqlarning pulli ekanligi, uyali aloqa vositalaridan foydalanish odatiy tusga kirganligi telefonda gaplashish madaniyatini tartibga solib qo'ydi, "Vaqt bu – pul" degan tamoyil o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Agar suhbatdoshingiz uyali aloqa telefonidan yoki olisidan sizga qo'ng'iroq qilayotgan bo'lsa, unda suhbatni qisqa va lo'nda olib borishga harakat qiling. Shuni esda tutish lozimki, garchand qattiq g'azablangan holatda yoki juda hafa bo'lgan holatingizda ham "alamingizni" suhbatdoshdan olmang, unga baqirib, dag'-dag'a qilishdan tiyiling: bu paytda aqli odam telefon go'shagini qulog'idan uzoqroq tutib turishini unutmang.

**Ko'chada o'zini tutish etiketi.** Hayotimizning ko'p qismi jamoatchilik va notanish bo'lgan kishilar orasida o'tadi. Har kuni bu holatga ko'cha-kuyda, transportda, maskanlarda hamda jamoat joylariga duch kelamiz. Bu joylar nafaqat shaxsning kayfiyatiga, balki shaxs kayfiyati orqali atrofdagi odamlarning kayfiyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Madaniyatli inson ko'chaga qadam qo'yishi bilan o'zining "meni"dan jamoat "meni"ga o'tadi, ya'ni ko'chadagi har bir harakat boshqalar nigohi ostida ekanligini his qiladi. Shuning uchun ham odamlar jamoat joylarida turli xil qiliqlar, bachkana odatlarni yuzaga keltirishdan tiyiladilar.

Uydan ko'chaga chiqayotganingizda kerak bo'ladigan narsalar – pul, ro'molcha, hujjat, taroq va boshqa zarur bo'lgan narsalarni o'zingiz bilan olishni unutmang. Avval tashqi ko'rinishingizga – sochingiz, kiyimingizga boshdan-oyoq razm solib, so'ng tashqariga chiqishingiz mumkin.

Jamoat joylarida o'zini tutishning eng muhim qoidasi bu – atrofdagilarga ziyon yetkazmaslikdir. Bu holat, ayniqsa, harakatlanayotgan va muloqot qilayotgan paytda yuzaga keladi. Mamlakatimizda o'ng tomonlama harakatga amal qilinadi. Shunday ekan, bexavotir va beziyon harakat yo'lakning o'ng tomonidan yurishdir. Shunda qo'lingizdagi buyum yoki narsalar bo'lsa ham, ro'parangizdan kelayotgan odamga xalaqit bermaysiz.

O'tib ketayotgan odam (ayol yoki erkak, qiz yoki yigit) larning orqasidan o'girilib qarashdan o'zingizni tiying. Sherigi, do'sti, dugonasi bilan ketayotgan tanishingizni to'xtatmang. Agar oldingizda ketayotgan odamning yonidan o'tib ketmoqchi bo'lsangiz, uning chap tomonidan o'tishga harakat qiling. O'tishga qiynalsangiz “O'tib ketsam maylimi?”. “Meni o'tkazvorolmaysizmi?”, “Malol kelmasa, o'tkazvorsangiz!”. “Ma'zur tutasiz, men o'tib ketmoqchi edim” kabi so'zlarini aytasangiz yo'lovchiga og'ir botmaydi.

Yo'lda to'xtashga to'g'ri kelib qolsa, deylik tanishingizni ko'rdingiz yoki sumkangizdan biron narsani olmoqchisiz yoki nimanidir tomosha qilmoqchisiz, bunday holatlarda yo'lakning chetiga o'tishni, qolaversa, serqatnov joylarda uzoq suhbatlashmaslikni tavsiya etamiz. Zero, yo'lakning o'rtasida turib, boshqalarning harakatiga xalaqit berish farosatsizlik alomatidir.

Agarda siz biron-bir ma'lumot va ko'rsatmaga muhtoj bo'lib qolsangiz yoki qidirayotgan manzilingizni topishga qiynalib qolsangiz, shu yaqin atrofda do'kon xodimlari, ichki ishlar xodimi yoki haydovchilarga murojaat qilishingiz mumkin. Kerakli ma'lumotni olganingizdan so'ng, tashakkur bildirishni unutmang. Agar sizdan ko'chada biron-bir narsa so'rab murojaat qilishsa, muloyimlik va tavoze' bilan qisqa, aniq va tushunarli tarzda javob bering. Uzundan-uzoq tushuntirishlar murakkablashishga olib keladi.

Ko'chada non, buterbrod, xot dog, gamburger, chizburger, pirojniy, bulochka kabi mahsulotlarni iste'mol qilishni tavsiya etmaymiz. Bu holat birinchidan, ularning uvog'i erga tushib, uvol bo'lishiga olib keladi. Ikkinchidan, ovqat hazm qilish jarayoni izdan chiqib, sog'liqqa zarar yetkazadi. Uchinchidan, ehtiyotsizlik tufayli biror joyingizga beixtiyor eyayotgan narsangizning yog'i tomishi mumkin. Bu holatlar boshqalar nazarida xunuk ko'rinadi.

Ko'chaning ozodaligiga barcha odamlar mas'ul ekanligini unutmang. Shu bois saqich, qog'oz, semichka, bakal idishlar hamda

sigareta qoldiqlarini to'g'ri kelgan joyga tashlab ketmang. Zero, madaniyatli va tarbiyali kishilar bunday qilishmaydi.

**Jamoat transportlaridagi etiket.** Mavzudan chetga chiqsak ham, shuni aytish kerakki, bugungi kunda ayrim yo'lovchilarning, transport vositalarida yurish madaniyati talab darajasida emas. Transportga birinchi bo'lib chiqish va u yerdan joy olishga urinadiganlar, o'rindiqlarni sindirib, turli "nomalarni" yozadiganlar, baqirib, shovqin qiladiganlar, shilqimlik qilib, birovni ranjitadiganlar, o'zidan bir uyum axlatni qoldirib ketadigan kimsalar sirasiga kiradi. Biroq bular orasida ko'pchiligini yosh-o'smirlar tashkil etishi achinarli holdir. Chetdan turib kuzatsangiz bunday holatlar nihoyatda xunuk va kulgili ekanligiga guvoh bo'lasiz. O'z izzat-nafsini bilgan har qanday inson bu holatni kuzatar ekan, ranjishi, asabiylashishi, shubhasiz. Transportdagi bo'sh joy ilinjida odamlarni turtib o'tishi etmagandek, dugonasi yoki do'sti uchun joy olib qo'yadigan takaslanglar ham borki, ular mehr, g'amxo'rlik, hurmat, izzat degan tuyg'ulardan yiroqdir.

Aytish lozimki, Toshkent shahri ichida qatnovchi barcha avtobuslar shohbekatning boshidan oxirgi bekatgacha uzog'i bilan 45 daqiqada yetib boradi. Shunday ekan, 45 daqiqa tik turib ketish "malol keladigan" yigit-qizlar bunga kuch topsalar yaxshi bo'lardi. Zero, o'tirib ketishga homiladorlar, nogironlar, qariyalar, bemorlar va go'daklarning ma'naviy haqlari ko'proqdir. To'g'ri, siz yo'lkira uchun pul to'lagansiz, demakki, o'tirib ketishga haqqingiz bor. Birodar, kamolingizni istab talab qiladigan huquqlaringiz oldida, bu huquqingiz juda ham mayda ekanligini bilganingizda o'zingiz ham uyalgan bo'lardingiz.

Bunday holatlarning oldini olish uchun quyidagilarni kundalik faoliyatingizda qo'llashingizni tavsiya etamiz:

1. Avtobus, tramvay yoki trolleybus to'xtamay turib, unga chiqishga oshiqmang. Tarbiyali odam, avvalo, yoshi kattalarni, nogironlarni, yosh bolali, homilador ayollarni birinchi o'tkazib yuboradi. Agar o'tirgan bo'lsangiz, ularga joy bering.

2. Sizga jamoat transportida joy berishsa, buni iltifot bilan qabul qiling va minnatdorchilik bildirishni unutmang. Hattoki, sizga taklif qilingan o'rinni rad qilgan taqdiringizda ham tashakkur aytib, bir og'iz shirin so'zingizni ayamang.

3. Biletga pulni hamma o'zi uchun o'zi to'lagani ma'qul. Bu hozirgi paytda normal holat hisoblanadi. Qolaversa, boshqalar

uchun yo'lkira to'lash shaxsning ixtiyoriga havola bo'lib, bundan ranjimaslik kerak.

4. O'rinlarni sumka va boshqa narsalar bilan band etmang. Agar transportda gazeta yoki kitob o'qib ketayotgan bo'lsangiz, ularni yoningizdagiga xalaqit bermagan holda ushlang. Birovni o'qiyotgan gazetasiga qarash to'g'ri emas. Agar bolalar bilan ketayotgan bo'lsangiz, ularni yo'lovchilarga xalaqit berishlariga yo'l qo'ymang.

5. Transportda sochni tarash, labni bo'yash, tufli tozalash va boshqa pardoz-andosh ishlari noo'rin. Bu ishlarni transportdan tushgandan so'ng bajaring. Shuningdek, jamoat transportiga kir, chang, iflos ust-bosh va narsalar bilan chiqish mumkin emas.

**Sayohat payti etiketi.** Barchamiz u yoki bu ko'rinishdagi sayohatlarga chiqqanmiz. Sayohat davomida poezd, samolyot, uzoq yo'lga yuruvchi avtobus va boshqa transport vositalaridan foydalanganmiz. Biroq qaerga sayohatga chiqmaylik, avvalo, o'zimizni atrofdagilarga nisbatan bosiq va xayrixohdek tutganimiz ma'qul. Aksincha, «Meni bu erda kim tanib o'tiribdi!» degan xayolga borib, ko'ngilga kelganni qilish maqbul ish emas.

Sayohatingizda poezd, kema yoki samolyot kabi transport vositalaridan foydalanganda kupe, kayuta yoki salonga kirganingiz hamon sizdan oldin joylashib bo'lgan yo'ldoshingiz bilan ko'rishing. Deylik, narsalaringizni joylashtirish uchun javonda bo'sh joy bo'lmasa, avval, shu javon egasidan ruxsat so'rang va u rozilik bildirsa, minnatdorchiilik aytishni unutmang.

Qorningiz ochqolsa, yo'l uchun olgan narsalaringizni tamaddi qilishdan istihola qilmang. Biroq buni saranjom-sarishtalik bilan amalga oshiring. Tamaddi qilib bo'lgach, stolni tartibga keltirib qo'ying: non ushoqlari, choy tomchilarini artib oling.

Tabiiyki, bir necha soat davomida o'zingizga notanish bo'lgan odamlar bilan yonma-yon birga bo'lish oson emas. Ba'zida hamrohlarning fe'l-atvorlari biri-biriga to'g'ri kelmay qoladi. Shunga qaramay, har qanday holatda, hamrohingizga buni sezdirmaslikka harakat qiling, u bilan bo'lgan munosabatda vazmin, sabr-toqatli va xayrixoh bo'ling.

Hamrohingiz ovqatlanayotgan paytda yotish uchun joy to'shamang. Kiyimingizni almashtirmoqchi bo'lsangiz, hamrohingizdan odob bilan chiqib turishni iltimos qiling. Chunki begonalar oldida echinib-kiyinish odobdan emas.

Begonalar oldida yuragingizni to'kib-sochmang. Hamrohlaringsizga ortiqcha savollar, ayniqsa, nozik aloqalarga bog'liq savollar berishga urinmang. Ularning xatti-harakatlaridagi yoqimsiz holatlarga keskin norozilik bildirmang, o'rni kelganda, bu holat nojoiz ekanligini birrov aytib ketasiz.

Sayohat davomida, ayniqsa, yo'lda ketayotganda mast qiluvchi ichimliklar iste'mol qilmang. Zero, badmast yo'lovchi tuban yo'lovchidir. Yo'lda ekansiz, hamon odamlar bilan birga ekanligingizni yodda tuting. Va qay darajada ular har xil bo'lmasin, agar siz haqiqatan ham tarbiyali odam bo'lsangiz, ularga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishga harakat qiling.

**Ayollarga xos etiket.** Ayolning jozibadorligi o'ziga mos va o'ziga xos xulqni o'rinni mujassam etishidadir. Bu - kiyinishda, muomalada, xatti-harakatda, gapirishda, mulozamatda, takallufda, ovqatlanishda va shu singari xususiyatlarda ko'zga tashlanadi. Jozibadorlik uchun tashqi chiroyning o'zi kifoya qilmaydi, u zamonaviylik va oqilonalik bilan bog'liqdir. Mazkur xususiyatlar ayolni yanada jozibali va maftunkor qilib ko'rsatadi.

«Zamonaviy kiyinish» deganda qimmatbaho, yaltiroq liboslarni kiyish nazarda tutilmaydi. Kiyim rangi, bichimi, andozasi, fasoni va pokizaligi bilan atrofdagilarni ajablantirmaydigan va taajjubga solmaydigan kiyimlar sirasidir. Zamonaviy kiyinish shu jihati bilan modada kiyinishdan ustuvordir. Zamonaviy ayol o'zining tanlash imkoniyatlarini kengaytirish yo'lida zamonaviylikdan ortda qolish yoki undan o'zib ketishdan cho'chimaydi. U imkoniyatlar izlashi davomida o'zining ayollik fazilatini yorqin ifodalay olishga va qusurlarini yashirishga qodir bo'lgan imkoniyatlardan birini tanlay biladi. Bu borada modalar jurnalini doimiy kuzatib borish yetarli emas. Buning uchun ko'rgazmalar, galareyalar, muzeylar va madaniyat maskanlariga muntazam borib turish, odamlarni kuzatish, badiiy-estetik didini doimo takomillashtirib borish tavsiya etiladi. Latofat va nazokatning manbai tabiatdir. Chunki tabiatda ranglar jilosi, musiqiy ohang uyg'unligi, musaffolik mavjud.

Jozibangizni saqlab qolish uchun ham go'zallikni sevishga «majbursiz». Zero, go'zallik chiroylilikdan ustuvoroqdir. U tashqi va ichki chiroyning uyg'unligini talab etadi.

Ayol kishi o'z latofatini yo'qotmaydi, qachonki:

\* agar u har kuni o'zining tabiatini tarbiyalab borsa;



- \* agar u jismi va vujudi uchun erinchoqlik qilmasa;
- \* agar o'z-o'ziga nisbatan talabchan bo'lsa;
- \* agar o'z didini rivojlantirib, aqlini charxlasa;
- \* agar yaqinlarini qayrab, boshqalarni janjal bilan qiynamasa;
- \* agar hadeb hayotdan nolib, alamzada bo'lavermasa.

Ushbu maslahatlar hayot tajribasida sinalgan:

\* o'zingizga kiyim tanlar ekansiz dugonalar-ingizni emas, o'z didingizga tayanib ish tuting;

\* libosingizning rangi nafaqat zamonaviy, balki o'zingizga mos tushadigan rang bo'lishi lozim;

\* kiyim tanlashda mutanosiblikka amal qiling va ranglar mosligini tanlay biling;

\* faqatgina bitta kiyim uchun qo'shimcha narsa olish — isrofgarchilik ekanligini unutmang;

\* taqinchoqlarni “modasi eskirdi» deb tashlab yuborish yaramaydi. Chunki modalar jarayoni davrlar o'tib qaytib keladigan jarayondir. Shunda asrab qo'ygan taqinchoqlaringiz yanada chiroyliroq bo'lib ko'rinishi mumkin;

\* tanlagan sirg'a yoki qisqichli ziraklaringiz qulog'ingiz shaklini yaltiroq buyum kabi xunuklashtiradigan darajada bo'lmasligi lozim;

\* plastmass ziraklar faqat yozda tutilishidan xabaringiz bo'lsa kerak;

\* atir-upalar ayol kishi husniga husn qo'shuvchi, unga latofat bahsh etuvchi vositalardan biri. Biroq ekskursiya, tog'larga sayohat, navbatda turish paytida pardoz-andoz unchalik ahamiyatga ega emas.

**Erkaklarga xos etiket.** “Erkak kishining asosiy kiyimi kostyum-shim va ko'ylakdan iborat» deyuvchilar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu fikr biroz mubolag'ali. Chunki erkak kishi kastyum-shimda doim ham bashang ko'rinavermaydi. Kostyum-shim - elkador, jussali, o'rta yoki baland bo'yli, o'rtacha semizlikdagi, tik qomatli kishilarga yarashib turadi. Aksincha, o'ta semiz yoki ozg'in, jussasi kichik, bo'yi pakana kishilarda kastyum-shim biroz noqulayroq ko'rinadi. Biroq bu ular kostyum-shim kiyimasliklari kerak, degan gap emas. Shuningdek, kostyum-shimning chiroyliligi erkak kishining tashqi ko'rinishi uchun yetarli emas. U ayni paytda bo'y bastiga loyiq bo'lishi, harakatlanishga qulay bo'lishi, yurganda xalaqit bermasligi, odmi, ko'zga yarq etib tashlanmaydigan rangda bo'lishi kerak. Kostyum-shimga mos tarzda ko'ylak, bo'yinbog', paypoq va tuffli tanlash ham

kishining didini belgilaydi. Erkaklarning bashang kiyinishi va bashang yurishi tug'ma fazilat emas, balki u hayotiy tajriba va atrofdagilarni sinchiklab kuzatish natijasida shakllanadigan tarbiyaviy xususiyatdir. Zero, bashang erkaklar kiyinishda injiq bo'lsalarda, doimo tartibga rioya qiluvchilar sirasiga kiradi.

Bu borada erkaklarga tavsiya etadigan maslahatlarimiz bor:

\* Erkaklar o'zlari bilan ikkita dastro'mol olib yurishlari kerak. Bittasi - ustki kiyim yoki shimning cho'ntagiga solinadi. U qo'l va yuzni artish uchun ishlatiladi. Ikkinchisi – mutlaqo toza bo'lib, ustki kiyimning ichki cho'ntagiga solinadi. Bu dastro'mol bilan faqat favqulodda holatlarda foydalanish zarur. Masalan, ko'zoynakni artish, ko'zga tushgan narsani olish kabilarda. Shuningdek, bu dastro'molni ustki kiyimning tashqi cho'ntagidan uchini sal chiqargan holda olib yurish kishining ko'rinishini bashang qilib ko'rsatadi.

\* "Chit ham yarashganga yarashadi" maqoliga amal qilish maqsadga muvofiq. Zero, har qanday zamonaviy va qimmatbaho kiyim ham kishini ko'rkam qilavermaydi. Kiygan kiyimingiz yarashishini istasangiz, kiyimni ham «qiynab qo'ymang». Bu - erkin harakat qiling. qomatingizni tik tuting, boshingizni engashtirmang, bo'yingizni cho'zmasdan, ko'kragingizni oldinga chiqarmasdan yuring degani.

\* Gavdangiz bilan bo'yingizni doimo to'g'ri tuting. Yurishingizga doimo e'tibor bering, viqor bilan yurishga harakat qiling. Shoshma-shosharlik bu jarayonga pand beradi.

\* O'tirganingizda oyog'ingizni o'ynatib yoki yoyib o'tirmang. Qo'lingizni paxsa qilib gapirish yaxshi emas. Bu kabi holatlar siz haqingizdagi yaxshi tasavvurni butkul barbod etishi mumkin.

\* Vazminlik, bosiqlik erkak kishining salobatidandir. Shunday ekan, gapirganda, yurganda, hatto imo-ishora qilganingizda ham og'irroq bo'ling. Kim bilan so'zlashmang nigohingizni uning yuziga, ko'ziga qarating.

\* Viqor bilan amalga oshirilgan harakatlardagi tabiiylik har bir insonga zeb beradi. Bashang ko'rinishni istagan erkaklar uchun bu g'oyatda muhimdir. Viqorli va tik qomatga ega bo'lishning birdan bir yo'li bu – sport bilan muntazam shug'ullanishdir.

**Uy tutish etiketi.** Uy tutish odobi xalqning tarixiy va madaniy an'analaridan biridir. Madaniyatga ega bo'lgan har bir xalq uyni qurishdan tortib, uni bezashgacha alohida e'tibor bilan qaraydi.

Chunki uy tutish insonning mavqeini, didini, farosatini, imkoniyatini va hokazo shu kabi jihatlarini belgilaydigan xususiyatdir. Bu xususiyat o'zbek xalqi uchun ham begona emas va u madaniyatimizning go'zal bir qismiga aylangan. XIX asrda ijod etgan fozila ayol Olimat ul-Banot o'zining "Muosharat odobi" risolasida uy tutish poklik va ozodalikka asoslanishini, shariat musulmon kishiga pokiza turmush qurmoq bilan birga pokiza uy tutmoqni ham buyurganligini ta'kidlab, bu xususda bir qator tavsiyalarni beradi: "uy va xonalarni cho'p-xaslardan, chang-tuproqlardan supurib turish», "o'rgimchak uylarini olmoq va uy atroflarini sof tutmoq", "yashayturgan o'rinlarni, xususan, uylarning ichkarilarini yuvib quritmoq, is va shu kabi narsalardan sof etmoq", "fursati bilan derazalarni ochib, uyning havosini almashtirish" va boshqa ishlar uy tutish odobining ziynatlaridandir<sup>1</sup>.

Yashaydigan uyimizning ichki va tashqi ko'rinishi, tabiiyki o'zimizning didimizdan kelib chiqib shakllantiriladi. Bunda eng asosiysi uyingizda oila a'zolaringiz o'zini qulay va shinam his qilishlari uchun zarur bo'ladigan holatlarni nazardan chetda qoldirmasligingiz lozim.

Bu borada e'tiboringizni ayrim tavsiyalarga qaratamiz. Zero, ular kelgusi hayotingizda kerak bo'ladi, degan umiddamiz:

- Uyingizni ortiqcha, yaroqsiz narsalar bilan to'ldirib tashlamang. Bu uyingizdagi narsalarning joylashuvini buzadi.

- Uyni bezatish va saranjomlashda derazalarga alohida e'tibor qiling. Derazalar xonani istaganingizdek kengaytirishi yoki kichraytirishi mumkin. Shuningdek, derazalarni jonli rasmga aylantirish yoki musavvirlik mahorati bilan boshqa ko'rinish bilan berkitish mumkin. Har qanday holatda ham derazalar sizni tashqi olam bilan bog'lab tursin va uyingizga imkoni boricha ko'proq toza havo kiritib tursin.

- Uy jihozlarini joylashtirishda uyda yosh bolalar bo'lishini e'tiborga oling. Chunki joylashtirgan buyumlaringiz ularning bemalol harakat qilishlari uchun xalaqit bermasligi kerak.

- Tanishlaringizni uyingizdagi qimmatbaho va hashamatli jihozlar bilan maqtab, ularni hayratga solish manmanlikdir. Shunday xonadonlar borki, sohib va sohibaning didsizligi natijasida xona

---

<sup>1</sup> Qarang: Olimat ul-Banot. Muosharat odobi. T.Mehnat, 1991. 19 b.

qimmat bo'lsa-da, keraksiz narsalar bilan to'ldirib yuborilgan. Bu uйда bir so'z bilan aytganda, fayz yo'q, o'tirgan odamning nafasi bo'g'iladi, kishini asabiylashtiradi.

- Oshxona, vanna va hojratxonani alohida tozalikda saqlang. Chunki bu uyingizga kelgan mehmonlarning ushbu joylarga kirishi ehtimoldan xoli emas.

- Gullarsiz uyni tasavvur etish mumkin emas. Gullar uyni go'zal qiladi, ayniqsa, yangi uzilgan, chiroyli guldastalar, quruq o't va gullar majmuasi kishining kayfiyatini ko'taradi, obrazli ifodalarni shakllantiradi. Biroq gullar boshqa barcha narsalar kabi uйда ozodalik, e'tibor va parvarishni talab qiladi.

- Uйда tirik tabiatni shakllantirish — to'ti, kaklik, bedona, kanoreyka singari sayroqi qushlar, tovus, qirg'ovul kabi chiroyli qushlarni parvarish qilish, baliq, quyon kibi chiroyli jonivorlarni boqish ham insonlarning tabiatga nisbatan munosabatlarini o'zgartiradi, mehrni paydo qiladi. Shuningdek, bu holat uydagi musaffo muhitni, tarbiya jarayonini barqarorlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Sovg'a-hadya berish etiketi.** O'z xursandchiligini boshqalar bilan baham ko'rish, boshqalarning xursandchiligiga sherik bo'lish, ulardan quvonish ziyoli va muruvvatli insonlarga xos xususiyatlardan. Ayniqsa, bunday kunlarda bir-biriga sovg'alar berish, hadyalar tuhfa etish, samimiy dil izhorlarini bildirish an'analarimizning go'zal jihatlaridan hisoblanadi. Dinimizning muqaddas kitoblari Hadisi Shariflarda hadya qilmoq va uning fazilatlarini haqida ko'plab hadislar keltiriladi. Jumladan, Abu Hurayra raziyallohu anhu rivoyat qilgan mana bu hadisda "Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: "Ey musulima ayollar, qo'shni ayol o'ziga qo'shni ayolga, garchi qo'y tuyog'ini bo'lsa-da, hadya qilishdan orlanmasin!"-deb marhamat qildilar<sup>1</sup>. Ushbu hadis orqali insonlarning bir-birlariga e'tiborli bo'lishga, qo'llaridan kelgancha hadyalar bilan ko'ngillarini ko'tarishga rag'bat qilishlari uchun da'vat etilmoqda. Shuningdek, gap hadya qilinadigan narsaning qimmatida emas, balki insonning insonga nisbatan e'tiboridadir. Zero, yolg'izlik va nazardan chetda qolish insonni yovuzlikka undaydi.

---

<sup>1</sup> Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. 4 tomlik. 2-tom. T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1997. 135 b.

Sovg'a-hadya bermoq uchun turli sabablar mavjud. Bugungi kunda ularning talaygina ko'rinishlari bor: tug'ilgan kunlar, bayramlar (umumxalq, milliy, kasbiy bayramlar va hokazo), to'ylar (hovli to'yi, sunnat to'y, nikoh to'yi va hokazo), xursandchilik kunlari (oilada yangi farzandning dunyoga kelishi, yangi muvoffaqiyatga erishgan kun, mansab darajasi ko'tarilgan kun va hokazo) shular jumlasidandir.

Ana shunday kunlarda insonlarning bir-birlariga sovg'a taqdim qilish etiketiga doir ayrim maslahatlarni tavsiya etamiz:

Sovg'alarni tanlashda e'tiborli bo'lish zarur. Unda kishining xayolot dunyosi, izlanuvchanligi, zehni, didi foyda beradi. Sovg'a tanlash tadbirning mazmunidan kelib chiqqan holda, muayyan tayyorgarlikni talab etadi. Zero, shoshma-shosharlik bilan olingan sovg'a kishining unchalik xursand qilmasligi mumkin. Shuningdek, sovg'a tanlaganda sovg'a beriladigan kishining qiziqishi, didi, nafosati, mashg'uloti, faoliyatini hisobga olish maqsadga muvofiq. Bu borada sovg'alar turini quyidagilarga bo'lish mumkin.

*Umumiy tadbir uchun olinadigan sovg'alar.* Bularga - gullar, suvenirilar, kitoblar, soat kabi narsa va buyumlar kiradi.

*Gastronomik sovg'alar.* Bu turdagi sovg'alar sirasiga - tort, oliy navli choy, kofe, shokolad, uy murabbolari kiradi.

*Pardoz-andoz (parfyumeriya) anjomlariga* – xushbo'y odekolon, loson, atir, upa, pardoz idish, yuz bo'yoqlari to'plami, kamyob shampun va hokazolar shular jumlasidandir.

*Kiyim-kechak va aksessuar sovg'alar.* Bu turdagi sovg'alar tarkibini sharf, qo'lqop, erkaklar ko'ylagi, sumka, paypoq, ro'mol, yengga taqiladigan bezakli tugmachalar, bijuteriya, manikyur to'plami, kichik hamyon, bo'yinbog' kabilar tashkil etadi.

*Jonivorlar hadya etiladigan sovg'alar.* Bu turdagi sovg'alar, asosan, yosh bolalarga yoki sovg'a qilinadigan kishining jonivorlarga qiziqishini inobatga olgan holda ularning roziligi bilan tuhfa etiladi. Bularga - mushuk bolasi, kuchuk bolasi, sayroqi qushlar, baliqlar kiradi.

*Ro'zg'orbop sovg'alar.* Bu turdagi sovg'alar, asosan, yangi turmush qurgan kelin-kuyovlar, yangi uyga ko'chib o'tgan yoshlar uchun tuhfa etiladi. Dazmol, termos, choynak, serviz, sochiqlar, dasturxon, idish-tovoqlar to'plami shular jumlasidandir.

*Uzoq muddatli xizmat safari yoki sayohatdan qaytishda olinadigan sovg'alar* o'sha hududning tabiati, xalqlarining an'anasi, xalq

hunarmandchiligi, osori-atiqalariga mansub bo'lgan buyumlardan iborat bo'lishi lozim.

Beradigan sovg'angizda g'arazli maqsadni ko'zlamang. Sovg'aning qiymati etiketga ko'ra muhim ahamiyatga ega emas. Gap sovg'a kishini qanchalik xursand qilishidadir. Bu borada ayniqsa, bolalarni xursand qilishi osonroq kechadi. Biroq "Aldagani bola yaxshi" qabilida ish tutish ham yaxshi emas. Zero, bolalarga sovg'a olishingizda sovg'angiz bolangizni kelajakdagi umidlarini ro'yobga chiqarishi, kasbga yo'naltirishi. qiziqishlarini rivojlantirishi, xayolot dunyosini o'stirishga yordam berishini o'ylab ish tuting. Bu borada globus, dunyo xaritasi, qiziqarli kitoblar, shaxmat-shashka, markalar to'plami, tennis raketkasi kabilar bolalarning ko'nglini shod etadi. Masalan, globus bolaning dunyo manzarasini, mamlakatlarning hududi va geografik joylashishini o'rganishi uchun foydali. Rasmi kitoblar bolaning badiiy tafakkur qilish qobiliyatini o'stiradi. Markalar to'plami uning didi va tanlash iqtidorini takomillashtiradi. Sport anjomlari esa bolaning sportga bo'lgan qiziqishini orttiradi va hokazo. Biroq mard. qo'rqmas, jasur bo'lsin, deb qilich, xanjar, pichoq, mil-tiq, avtomat, to'pponcha va boshqa shu kabi o'yinchoq qurollarni sovg'a qilish yaramaydi. Bu sovg'alar kelajakda bolaning tarbiyasiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Er-xotinlar turli xil sabablar bilan bir-biriga tez-tez sovg'alar qilishni yoddan chiqarmasliklari lozim. Beriladigan sovg'alar ularning oila, ro'zg'or, ish faoliyatlarida doimiy zarur bo'ladigan anjomlarni tashkil etgani ma'qul. Va, albatta, bular qatorida guldastaning bo'lishi shart.

Sovg'ani qay tartibda, qanday qilib berish ham etiketning nihoyatda nozik talablaridan biri sanaladi. Zero, sovg'ani taqdim qilish uni qabul qiliuvchi shaxsga muayyan ta'sir ko'rsatishini unutmang. Sovg'ani imkon darajasida o'zingiz taqdim qiling. Haydovchingiz, yordamchingiz, kotibangiz, turmush o'rtog'ingiz, farzandingiz yoki hamkasabangizdan berib yuborilgan sovg'a o'zini madaniyatli deb bilgan kishilarga og'ir botadi. Bunday holatlar sizning xizmat safarida bo'lishingizda, tadbirga uzrli sababga ko'ra yetib kela olmasligingizda yoki bemor bo'lib qolganingizda kechirimlidir. Sovg'angizni o'z vaqtida berishni odat qiling: "Hechdan ko'ra kech" tamoyili bu jarayon uchun qo'llanilmaydi.

Sovgʻani olar ekansiz, albatta, minnatdorchilik bildirish va chiroyli tabassum izhor etish yodingizdan chiqmasin.

**Muomala etiketi.** Insonning oʻzi uchun qaygʻurishiga doir bir qancha usullar mavjud. Ularning ichida eng asosiysi — kishilarga oʻzi haqida gapirib berishini soʻrab, murojaat etishdir. Shunda siz odamlar biror masalani muhokama qilishdan koʻra oʻzlari haqida gapirish, dardlarini aytishga, koʻngillarini ochishga tashna ekanliklarini bilib olasiz. Agar insonni gapirishga koʻndira olsangiz va unga taskin bera olsangiz, bilingki, siz unga yoqib qolasiz. Bu borada «Janob, hayot tashvihlari barchamizning chekimizda bor», «Janob, bu siz yoqtirgan kuy!», «Doʻstim, sizning fikrlaringiz meni oʻylashga majbur qildi», «Biz birgalikda hayotning koʻp qiyinchiliklarini yengib oʻtganmiz» va hokazo taskinlarni berib koʻrish mumkin.

Shuni aytish lozimki, koʻpchiligimiz boshqalarga taʼsir qila olmaymiz, chunki biz doim oʻzimiz haqimizda oʻylash va fikr yuritish bilan bandmiz. Shu narsani unutmaslik kerakki, siz suhbatga qiziqish yoki qiziqmasligingiz muhim emas, muhimi suhbatdoshlaringizning bu suhbatga qiziqishi. Shuning uchun siz qachon, kim bilan gaplashsangiz ham, u bilan fikr almashing va unga oʻzi haqida gapirishga imkon bering. Shunday yoʻl bilan siz eng yaxshi suhbatdoshga aylanasiz.

Boshqalarni oʻzlarining ahamiyatga ega ekanliklarini his qilishga undash usullari ham gʻoyatda muhimdir. Boshqalar tomonidan eʼtirof etilishi barchaga xushkayfiyat bagʻishlaydigan xususiyatdir. Bu holat kishini hayotga qiziqishga, Yangi narsalarni kashf etishga, mehnatga yangicha munosabatga, tashabbuskorlikka undaydi.

Shaxslararo munosabatlarda siz oʻzingizni juda ham erkin his etishingiz uchun iloji boricha boshqalarni suhbat davomida muhim oʻrinlari borligini tushunishlariga majbur qiling. Yodingizda tuting, siz boshqalarni ahamiyatli inson ekanliklariga ishonтира olsangiz, ular sizdan minnatdor boʻladilar.

Har bir inson yirik bir shaxs boʻlishini chin dildan xohlaydi. Boshqalarning oʻziga munosabati va sizning oʻzingizga munosabatingiz bir xil darajada muhim. Ushbu usulni samarali qoʻllash, shaxslararo muvoffaqiyatli aloqalar oʻrnatish yoʻlidagi asosiy tamal toshi hisoblanadi.

### **Taqdimot marosimi etiketi.**

Bugungi kunga kelib, tafakkur madaniyatining sifati, zamonaviyligi, qamrovining kengligi, ta'bir joiz bo'lsa, jahon andozalariga mos kelishi haqida ko'plab fikrlar bildirilmoqda. Tafakkur — insonning noyob xususiyati, miyaning mahsuli, obektiv olamning tushunchalar, muhokamalar, nazariyalar va hokazolardagi in'ikosining faol jarayoni bo'lib, amaliy faoliyatga bog'liq bo'lgan inson faoliyatining alohida ma'naviy shaklidir. Shu bois tafakkur madaniyati insonni jamiyatda mavjud bo'lgan, ajdodlar va avlodlar tomonidan yaratilgan qadriyatlarni o'zlashtirish darajasini, insonning ongi bilan faoliyati orasidagi o'zaro aloqadorlikning mustahkamligini, ma'naviy intellektual faoliyatining o'ziga xos shakli, ko'rinishini ifodalaydi

Tafakkur madaniyati inson ijtimoiy qiyofasining muhim ta'rifi bo'lib, uning sivilizatsiyalashgan holati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini o'zlashtirish darajasini ifodalaydi, insonning ongli-gi, bilimdonligi, madaniyatlilikidan dalolat beradi. Har bir shaxsning tafakkur madaniyati ijtimoiy muhit, uning sharoitlari, mehnati va turmush tarzi, boshqalar bilan munosabatda bo'lishi zaminida shakllanadi, mustahkamlanadi.

Taqdimot marosimi etiketi ushbu masalalarni qo'llay bilish, ulardan foydalanish va tafakkurga asoslanib o'tkaziladigan ta'lim yoki ma'lumot berishning zamonaviy ko'rinishidir.

*Taqdimot* — bu o'zlashtirish, ma'lumotlarni ko'pchilik oldida ochiq taqdim etishdir. Taqdimot turlari hisobot, ma'lumotnoma, press-relliz, dayjest, axborot, reklama shaklida bo'lishi mumkin. Ochiq taqdimot deganda, odatda, loyihalar, mahsulotlar, dasturlarning ommaviy axborot vositalari orqali taqdim etilishi va taqdim etilayotgan narsaning u yoki bu ko'rinishda foydalilik mezonlarini ko'rsatib berish tushuniladi. Aslida taqdimot bugungi kunda tijorat va siyosatda, ma'rifat va madaniyatda, ta'lim va tarbiyada keng qo'llanilayotgan marosimlardan biridir.

Taqdimot yo'nalishlariga qarab tijoriy (kommersiya), boshqaruv, reklamali, ilmiy, siyosiy, pablik rileyshnz kabi turlarga bo'linadi. Shunga ko'ra taqdimot o'z oldiga tinglovchilar muomalasi va muloqotiga ta'sir ko'rsatishni asosiy maqsad qilib oladi.

*Tijoriy taqdimot.* Savdo xodimlari o'zlarining tijoratga doir takliflari va ko'rgazmalarini seminar yoki muloqot jarayonlari orqali



taqdim qiladilar. Masalan, tibbiyot mahsulotlari bilan savdo qiluvchilar esa, yangi farmuskunalar va farmmahsulotlarni taqdimot qiladilar.

*Boshqaruvchi taqdimoti.* Bunda rahbar o'z xodimlariga korxonaning kelajakdagi vazifalari va global muammolarini miting, majlisni va yig'ilish ko'rinishida taqdim etadi. Menedjerlar o'zlarining g'oyalari, loyihalari va erishgan natijalarini yuqori tabaqa hisoblangan rahbariyatga taqdim qiladilar.

*Pablik rileyshnz va reklama taqdimoti.* Mazkur soha mutaxassislari kompaniyalarning axborot almashish strategiyasi va yangi tarmoqlarning istiqbollari doir masalalarni ilgari suradilar. Jamoat arboblari madaniy va ijtimoiy dasturlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga doir olib boriladigan ishlarni taqdimot qiladilar.

*Ilmiy taqdimot.* Bunda olimlar o'zlarining ilmiy g'oyalarini, tadqiqot o'tkazishga oid ilmiy zaxiralar manbaini taqdimot qiladilar.

*Ijtimoiy-siyosiy taqdimot.* Bunday taqdimot marosimi ko'proq siyosatchilar hamda ijtimoiy soha mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday taqdimot davra suhbat, debat, breyn ring, yuzmayuz muloqot hamda matbuot konferensiyasi ko'rinishida o'tkazilishi mumkin. Masalan, deputatlar o'zlarining saylovoldi dasturlarini saylovchilarga taqdim etadilar, davlat arboblari esa taqdimot orqali o'z konsepsiyalarini bayon qiladilar. Tashabbuskorlik, tadbirkorlik va liderlikning elementlari mavjud bo'lgan barcha sohalarda taqdimot eng samarali vosita vazifasini bajaradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, taqdimot marosimi - shaxs va jamoat fikrini, g'oyasini, qarashlari va konsepsiyalarini omma oldida ko'rsatish, isbotlash va ishontirishga asoslangan axborot almashuvning vositasidir.

Taqdimot marosimi paytida taqdim qiluvchi o'zi ilgari surayotgan g'oyalaridan tinglovchilar xulosa qilish son bo'lishi uchun muayyan imkoniyatlarni tashkil qilishi lozimki, toki ilgari surayotgan g'oyalariningizni tinglovchilar amalda tatbiq eta olishlari, o'z faoliyatlariga qo'llay bilishlari tezlashsin. Shuning uchun ham taqdimot marosimini axborot uzatishning boshqa vositalaridan farq qiluvchi jihatlari talaygina. Shulardan eng muhimi bilim va ma'lumotlarni uzatish usullaridir.

Avvalo, ma'lumot nimadan iborat bo'lishi lozimligini aniqlab olish kerak. Bir qarashda bu jarayon juda oddiy ishdek ko'rinadi.

aslida esa ma'lumotni tushunish, uni o'zlashtirish bir qadar murakkab jarayondir. Zero, hech qachon bilmagan, hayotda to'qnash kelmagan narsalarni odamlarga tushuntirish muayan mahorat, bilim va aniqlikni talab etadi. Shuning uchun ma'lumotlarni yetkazishda ayrim to'siqlarga duch kelishimiz, shubhasiz.

1-to'siq. *Ma'lumotda xatoga yo'l qo'yish.* Oddiygina bo'lib ko'ringan xato ham aytayotgan fikringizning mazmunini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Olaylik, mehnat bozori shakllanishining O'zbekistonga xos xususiyatlariga doir ma'lumotni taqdim qilmoqdasiz. Ma'lumki, Andijon viloyati aholisining zichligi bo'yicha vodiya emas, respublikada ham birinchi o'rinda turadi. Biroq 1 kv. km ga nechta odam to'g'ri kelishi haqida xatoga yo'l qo'yish, ularning raqamini xato ko'rsatish taqdim etayotgan ma'lumotingizning mazmun-mohiyatini o'zgartiradi. Natijada, fikringiz tinglovchilarda shubha uyg'otishi mumkin. Bunday holatlar tarixiy sanalar, raqamlar, terminlar bilan bog'liq ma'lumotlarda ko'proq uchraydi.

2-to'siq. *Ma'lumotingiz ikki ma'noni aks ettirishi mumkin.* Ayrim so'zlar ikki xil ma'noni anglatishini bilamiz. So'zlardan o'rinli foydalanmaslik natijasida taqdim etilayotgan ma'lumotda jiddiy o'zgarish yuzaga kelishi, ilgari surayotgan g'oyangiz samarasiz yakunlanishi mumkin. Bunday so'zlar, odatda gazeta, jurnal sarlavhalarida va su'ratga berilgan izohlarda uchrab turadi.

3-to'siq. *Ma'lumotingizdagi tayanch so'zlar noto'g'ri talqin etilishi mumkin.* Ma'lumki, o'quvchi kitob o'qiyotib, biror-bir ma'lumotga shubha bildirsa, avvalgi betlarni ochib, ularni taqqoslash va fikrini to'g'ri yo'naltirish imkoniyatiga ega. O'quvchidan farqli o'laroq, tinglovchida bunday imkoniyat yo'q: "Aytilgan so'z – otilgan o'q". Berilgan ma'lumotni tezlik bilan tahlil qiluvchi, taqqoslovchi tinglovchilar kamchilikni tashkil etadi. Shunday ekan, ma'lumot yetkazilayotganda so'zning mazmuniga, vaziyatning mohiyatiga, jarayonni talqin etishga jiddiy e'tibor berish talab qilinadi. Zero, noto'g'ri talqin etish natijasida qilingan qat'iy hukm kelajakda insonning taqdirini salbiy tomonga o'zgartirib yuborishi mumkin.

4-to'siq. *Ma'lumotingizdagi muhim holatlar noto'g'ri tushunilishi mumkin.* Shunday holatlar bo'ladiki, ma'lumotning ko'pligidan tinglovchi ularni bir-biri bilan chalkashtirib yuboradi. Chunki tinglovchiga ma'ruzachi to'xtash, ma'lumotlarni tahlil qilish

imkoniyatini bermaydi. Shuning uchun taqdim qilinayotgan ma'lumot tushunarli bo'lishi uchun gohida mavzu doirasiga mos qiziqarli voqealar, latifalar, kayfiyatni ko'taruvchi hodisalarni aytish, mavzudan chetlashib ketmagan holda, tinglovchilarni biroz chal-g'itish tavsiya etiladi.

5-to'siq. *Ma'lumotingizga tegishli muhim jihatlar esdan chiqib ketishi mumkin.* Tadqiqotlarga ko'ra, axborotni odamlarning - 83% ko'rish orqali, 11% eshitish orqali, 35% hidlash orqali, 15% paypaslash orqali, 1% tatib ko'rish orqali yaxshi qabul qiladi. Shuningdek, agar tinglovchiga ma'lumotlar yozib olish yoki ko'z bilan ko'rish imkoniyatlarisiz faqat og'zaki taqdim qilinsa, uch kundan so'ng tinglovchining esida taqdim etilgan ma'lumotning 10 foizigina saqlanib qolishi mumkin ekan. Bunga ma'lumotlardagi muhim jihatlarning o'rinni joylashtirilmasligi, yo'nalishni to'g'ri belgilanmasligi asosiy sabablardandir. Shu sabab taqdim etilayotgan ma'lumotlarning muhim jihatlarini yozib olish, taqdimotda ko'rgazmali vositalar – slaydlar, proektorlar, plakatlar, kompyuter grafikasi, shuningdek, tarqatma materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi.

6-to'siq. *Axborotning subyektini talqin etish.* Mazkur to'siq doim ham ko'zga tashlanavermaydi, gohida ma'lumotni mensishmay tinglashadi. Yuqoridagi to'siqlarni bartaraf etganingizda ham mazkur to'siq o'zini u yoki bu ko'rinishda namoyish etadi. Masalan, tinglovchi ko'zingizga tik qarab turadi, lekin e'tibori boshqa narsada. Yoki so'zlaringizni miyig'ida kulib turib tinglayveradi, doimo kallasini inkor ma'nosida qimirlatib turadi va hokazo. Bu toifa tinglovchilar aytilgan fikrni tinglash haqida emas, balki o'ylangan fikrni aytish paytini poylaydilar. Bunday paytlarda ular taqdimotchiga qaltis savollar, qitmirona luqmalar, keskin e'tirozlar bilan murojaat qiladilar...

Ishbilarmonlik muloqotidan farqli o'laroq, muloqotning taqdimot shaklida taqdimotchi auditoriya uchun ajratilgan vaqtning aksariyat qismida gapiradi, auditoriyani esa jim tinglay olishiga erishishi lozim. Bu taqdimotchidan yuksak muomala san'ati va etiket madaniyatini talab etadi. Shu bois taqdimotchi amal qilishi lozim bo'lgan ayrim holatlarni e'tiboringizga tavsiya etamiz.

1. **Taqdimot marosimining mas'uliyatini his etish.** Bunda siz, avvalo, taqdimot o'tkazish sizga nasib etganligini, bunday vazifa

sizga bildirilgan yuksak ishonch ekanligini ichdan his eting. Zero, o'zining g'oya va qarashlariga ishontirish iqtidori so'z, ilm va muomalada "pishib yetilgan" insonlargagina nasib etadi.

**2. Taqdim qiluvchi bilan auditoriya o'rtasida o'zaro hamkorlik.** Bunda «Men sizlarsiz, sizlar esa mensiz biror natijaga erisha olmaymiz» tamoyili ustuvor ahamiyatga ega. Chunki auditoriya ma'ruzachi yoki taqdim qiluvchidan o'zi uchun zarur bo'ladigan nimanidir kutadi. Anashu narsa yoki g'oyani taqdimotchi ayta olishi mumkin.

**3. Taqdimot matnini tayyorlash.** Aytmoqchi bo'lgan fikrlaringizni dastlab qog'ozga tushirishingiz, so'ngra matndagi har bir jumla, har bir g'oyani mukammal o'zlashtirib olishingiz zarur. Bu borada qisqacha tarqatma material, ko'rgazmali vositalar tayyorlash hamda turli rasmlar, su'ratlar va chizmalardan foydalanish, mavzuning asosiy g'oyasini tashkil etadigan jihatlarga alohida urg'u berish maqsadga muvofiq.

**4. Taqdimotga tayyorgarlik.** Har bir taqdimot yuksak saviyada o'tishiga, kelajakda samarali hamkorlikni yo'lga qo'yilishini istasangiz kattami kichikmi har bir taqdimotga jiddiy tayyorgarlik ko'ring. fikru xayolingiz taqdimot marosimini o'tkazish haqida bo'lsin. Do'stingiz yoki yaqin hamkasabangizdan sizni tinglab ko'rishini iltimos qiling, ma'ruzangizni diktafon yoki magnet lentasiga yozib olib, so'ngra uni bir necha bor eshiting, ortiqcha fikrlar bo'lsa qisqartiring.

**5. Taqdimot marosimi vositalari.** Odatda, taqdimot marosimlari uchun katta zal yoki kichik auditoriya tanlanadi. Zalda sahna, minbar va shu kabi jihozlarning bo'lishi tabiiy. Siz, iloji boricha, minbardan kamroq foydalanishga harakat qiling. Chunki minbar:

A) muloqot jarayonida sizni auditoriya bilan ajratib qo'yadi;

B) minbardan auditoriyani chalg'ituvchi va keraksiz ma'lumotlar aytib yuboriladi;

V) ko'pchilik nazdida minbar juda baland joy hisoblanadi...

Agar minbardan foydalanish talab etilsa, undan zinhor o'zingizdan oldin chiqqan ma'ruzachilarni tanqid qilish uchun foydalanmang. Minbarga chiqingda bir-ikki minutdan so'ng uni tark eting: tinglovchilar bu holatga, albatta, baho beradilar.

Taqdimotchining sahnada harakatlanishi: birinchidan - o'zining jonli muloqot jarayonida ekanligini eslatib turadi, ikkinchidan - kuchli hayajonlanishning oldini oladi, uchinchidan - tinglovchilarning diqqatini jalb etadi.

6. **Taqdimotda vaqt masalasi.** Hamma vaziyatda bo'lgani kabi taqdimotga ham vaqt o'z hukmini o'tkazadi: har bir daqiqa hisobli. Dastlabki 90 soniyani tinglovchilarning ko'ngliga yoqadigan gaplarni aytish bilan boshlang, g'oyangizni ular bilan o'rtoqlashayotganligingizdan va muloqot qilayotganligingizdan xursand ekanligingizni bildiring. Aks holda, barcha "mug'ombirliklaringiz" befoyda.

Taqdimotda auditoriya bo'ylab harakatlanish, tashqi ko'rinish, imo-ishora o'zining samarali natijasini beradi.

8. **Taqdimotda hayajonning kuchi.** Bu ijobiy holat, chunki hayajon mas'uliyatni oshiradi. Biroq hayajonga qarshi kurashish mumkin emas, aksincha, uni yo'naltira bilish lozim. Hayajonni bosish uchun esa:

- so'zga chiqish oldidan 2-3 daqiqa tez-tez yuring, bu muskullarning zo'riqishining oldini oladi;

- so'zga chiqish oldidan oyog'ingizni chalishtirib o'tirmang;

- qo'llaringizni pastga tushirib, o'zingizni erkin tuting;

- boshning kalla, jag', og'iz qismini qattiq-qattiq harakatlantiring;

- chuqur nafas olish va sehrli so'zlarni aytish kabi hayot sinovlaridan o'tgan vositalarni rad etmang.

9. **Tinglovchilarni qiziqtirish.** Dastlab tinglovchilarning ayrim alohida urg'u berib, iltifot ko'rsatishingiz «Sizning ishtirok etishingiz, taqdimotning samarali o'tishini ta'minlashidan umidvorman», "Siz qatnashsangiz o'zimni doimo himoyachim bordek his qilaman" va hokazo kabi munosabat tinglovchilarning sizga nisbatan munosabati va qiziqishini orttiradi. Agar notanish auditoriya bilan muloqot qilishingizga to'g'ri kelsa, avvalo, auditoriyaning holati, kontengenti, imkoniyatlarini obdon o'rganing. Noqulay vaziyatdan chiqish maqsadida tinglovchilarning manfaatlariga mos keluvchi hazil-mutoyiba so'zlardan foydalaning.

10. **Omma – taqdimotchi uchun oyna vositasi.** Taqdimotingiz qanday chiqqanligini auditoriyada o'tirgan yoki sizni eshitgan ommagina xolis baholaydi. Agar taqdimot natijasi qay holatda ketayotganligini bilishni istasangiz tanaffusni kutib turishning yoki ishtirokchilar bilan suhbatlashishning hojati yo'q: siz tinglovchilarning ko'zlariga qarang, vassalom. Agar yuz o'qish san'atidan xabardor bo'lsangiz, ularning harakatlari, qiyofalaridan taqdimotni qanday o'tkazganligingizni bilib olasiz.

**11. Taqdimotda savol-javob.** Taqdimotni yakunlar ekanmiz, uning natijasi bilan, albatta, qiziqib ko‘ramiz. Buni bevosita savol-javob jarayoni orqali bilib olish mumkin. Biroq savolning bo‘lmasligini tadqiqotni ko‘ngildagidek chiqmaganligiga yo‘yish mumkin. Chunki savolning bo‘lmasligi:

- taqdimot hech kimga foyda bermaganligini;
- taqdimotdagi muammolar bir-biri bilan bog‘lanmaganligi va fikrlar cho‘zilib ketganligini;
- siz tinglovchilarning “og‘riq nuqtalari”ga tegib ketganligingizni va ular bu og‘riqni qaytalanmasligini xohlaganlarini;
- sizni tushunmaganligini;
- taqdimotingizning tizginini yo‘qotib qo‘yganligingizni bildiradi.

Biroq savollarning hammasi ham kishini quvontira olmaydi. Muallif savol va javob variantlarini turlarga ajratar ekan, ularning hayotda uchrashi va, aksincha, mutlaqo uchramasligini tushuntirishga harakat qiladi. Shunga ko‘ra savol berilganda:

- savollarni yozib oling. Chunki yozishingiz bilan bir paytda javobni o‘ylab olish uchun imkoniyat yaratiladi.

- agar savolga javob berishga qiynalsangiz, tinglovchilarga bu savolga javob topib, ularga, albatta, etkazishga va‘da bering. Buning uchun esa tinglovchilarga yana bir bor o‘zingizni tanishtirib, ish joyingiz manzilini berishni unutmang.

Umuman olganda, taqdimot marosimi etiketiga doir yuqorida qayd etilgan fikr va tavsiyalarga rioya qilish taqdimot marosimining samarali yakunlanishiga olib keladi.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Etiketning axloqiy madaniyatdagi o‘rnini tahlil qiling?
2. Etiketdagi muomala qoidalarini ko‘rsating?
3. Etiket turlarini sharhlang?
4. Ayollar va erkaklarga xos etiket xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Sovg‘alarni tanlashda e‘tibor berish lozim bo‘lgan jihatlar nimalardan iborat?
6. Taqdimot turlarini sharhlang?
7. Taqdimotda ma‘lumot uzatish xususiyatlarini aniqlang?
8. Taqdimotchi bilan auditoriya o‘rtasidagi hamkorlik nimalardan iborat?

### **Amaliy mashg'ulot savollari:**

1. Etiket muomala madaniyatining zamonaviy ko'rinishi sifatida.
2. Axloqiy madaniyat va etiket.
3. Etiket turlarining axloqiy xususiyatlari.
4. Zamonaviy tarbiya va etiket
5. Etiketning axloqiy mohiyati.
6. Taqdimot marosimi hamkorlikni yo'lga qo'yuvchi vosita sifatida.
7. Taqdimotchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatlar.
8. Taqdimot o'tkazish qoidalari.

## XOTIMA

Ma'lumki, har qanday jamiyat, davlat poydevorining mustahkamligi ma'naviy va moddiy asoslarga bog'liq. Davlatning kuchi, qudrati va hatto, iqtisodiy salohiyatini ma'naviy barkamol bo'lgan kishilar belgilaydi. Shuning uchun sog'lom jamiyat deganda, avvalo, fuqarolarning aql-idrokli, dunyoqarashi keng, axloqiy jihatdan etukligi va madaniyatligi nazarda tutiladi.

Bugungi kunda ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi unummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifaga aylangan. Chunki butun dunyoda globallashuv jarayoni ketayotgan hozirgi davrda turli xil mafkuraviy kuchlarning ta'siriga berilish, bu kuchlarning g'arazli, g'ayriinsoniy maqsadlarini amalga oshirish jarayonida bilib-bilmay ishtirok etish holatlari tez-tez uchrab turibdi. Endilikda mazkur bo'shliqni to'ldirish, xalqni turli xil tajovuzlardan himoya qilish zaruriy holga aylandi. Yosh avlodni ana shunday tajovuzlardan himoya qilish uchun xalqimizning azaliy an'analariga, dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanish hamda umuminsoniy va zamonaviy yutuqlarga tayanish zarur.

Ayniqsa, insonlararo muomala madaniyatini shakllantirish, til sofligi, muloqot go'zalligiga erishish, yoshlarga insonlarning ulug'vor va bunyodkor ishlarini namuna qilib ko'rsatish, ularga chiroyli muomala va yaxshi ishlarning foydalarini tushuntirish, qo'pollik, farosatsizlik, qo'rslik, dilozorlik, bachkanalik kabi illatlarning zararlarini eslatish g'oyatda muhimdir.

Darsligimizda e'tiboringizga havola etilgan fikrlar, qarashlar va tavsiyalardan chiqaradigan umumiy xulosa quyidagilar orqali o'z aksini topadi:

*Birinchidan* – muomala madaniyati maqsadli yo'naltirilgan tarbiyani va muayyan tarbiya mayllarini shakllantirishni talab etadi. Mayllar maqsadga muvofiq tarbiyalansa, farzand ham shu mayllar yordamida yaxshi amallarni onglaridagi muhokama paytida foydali ishlarni ko'proq o'ylaydilar va xayrli ish qilishga intiladilar.



*Ikkinchidan* - shaxs erki va huquqini mutlaqlashtirib, ijtimoiy uyg'unlik hamda jamoaviylikni rad etib kelgan individualizm, ma'naviy hayotni sayqallashtirish, rang-barang turmush tarzi orqali boshqarishga intilgan texnokratizm ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy inqirozlarni keltirib chiqardi. Endi insoniyat taraqqiyotni insonning o'zidan, uning ma'naviy-ruhiy olamidani, axloqi, xulq-atvori va subyektiv borlig'idani izlashga o'tmoqda. Bu borliqning bir qismi insonning insonga bo'lgan munosabati orqali namoyon bo'ladi. Bunday munosabat insonlararo muomala, muloqot, so'zlashuv va boshqa shu singari madaniyatga daxldor vositalar bilan bog'liq. Bu jarayonni yo'lga qo'yish bilan bevosita jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatni barqarorlashtirgan bo'lamiz.

*Uchinchidan* - fan-texnika ravnaqidan kelib chiqadigan juda katta moddiy istiqbollari har qancha muhim va zarur bo'lsa ham, har holda, shuning o'zi insoniyat taqdirini hal etolmaydi. Insoniyat hayotida ijtimoiy, ma'naviy va madaniy sohalarida tub o'zgarishlarni amalga oshirmay turib, fan-texnika ravnaqidan baxtni kutish befoйда ekanligi ma'lum bo'lib bormoqda. Odamlarning ruhiy olamidagi o'zgarishlarni, ularning ichki dunyosidagi faollikni bashorat qilish qiyinroq, ammo insoniyat taraqqiyoti oqibatida dunyoning halokatga uchrashi ham, falokatlardan xalos bo'lishi ham xuddi shu ma'naviy rivojlanishga bog'liq. Chunki odamning muammosini odamning o'zisiz bartaraf qilish mumkin emas. Shunday ekan, insonlarga xos munosabatlarni mustahkamlash, muomalaning yuksak ko'rinishlarini jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarga joriy etish maqsadga muvofiq.

*To'rtinchidan* - hozirgi kunda insoniyatga xavf solib turgan holatlar sirasiga shaxslar va davlatlarning axloqidagi tanazzulni ham kiritish mumkin. Turli mamlakatlarda bu hodisalarning sabablari turlicha bo'lsa-da, bizningcha, uning bosh sababi insonlardagi ichki ruhiyatning yo'qolishidadir. Zero, ichki ruhiyat yo'qolganida insonning shaxsiy axloqi va mas'uliyati o'rnini mavhum va mohiyatan g'ayriinsoniy shaxs qiyofasidan ajralgan kimsalar egallaydi. Bunda muomala madaniyatining o'rnini, zo'rvonlik, tajovuzkorlik, vayronkorlik singari g'ayriinsoniy illatlar egallaydi. Axborot olish osonlashib borayotgan XXI asrda muomala madaniyatining ko'rinishlari ham o'zgarib bormoqda. Ammo badiiy adabiyot, san'at asarlari hamda milliy qadriyatlardan keng xabardor bo'lish inson

shaxsini madaniyatli qilishda muhim tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilishini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

*Beshinchidan* - so'z jamiyat hayotida g'oyat muhim rol o'ynaydi. U muomala madaniyatida shaxslararo aloqa vositasi hamda mulohazalarining shakllanishi, tuyg'u va kechinmalar ifodalashining asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, so'z fikrni ifodalashning eng jonli tizimi sifatida inson ongi va tajribasining butun tuzilishini o'zida jamlash xususiyatiga ega. Shuningdek, so'zlashuv tilning cheksiz imkoniyatlariga ega bo'lib, adabiyot, san'at singari madaniy me'rosga voqelikning turli tomonlarini keng qamrab olish imkonini beradi. Bir so'z bilan aytganda, so'z vositasida muomala shakllanadi, muloqotning ilg'or ko'rinishlari qaror topadi, insonlararo munosabatning nozik va go'zal jihatlari paydo bo'ladi.

*Oltinchidan* - odatda, sovuq urushlar, informatsion xurujlar, giyohvandlik, terrorizm, ekologik vaziyatlar insoniyatga xavf soluvchi katta tahdidlar sifatida e'tirof etiladi. Lekin insonning botiniy olamini tashkil etuvchi tizimlarning yemirilishi ulardan qolishmaydigan, ehtimol, yanada fojialiroq xavf soluvchi tahdidlardir. Ushbu jarayonni chetda qoldirmaslik doimo jamiyat va inson uchun naf keltirgan.

*Etinchidan* - hozirgi paytda behayollik, andishasizlik, surbetlik singari illatlar bilan tez-tez to'qnashishiga to'g'ri kelmoqdamiz. Agar hayotdan ma'naviyat, axloq va nafosat siqib chiqarilsa, shirinso'zlik, xushmuomalalik, andishalilik singari fazilatlar mayda tushunchalarga aylansa, u yerda madaniyat uchun ham joy qolmaydi.

*Sakkizinchidan* - muomalaning barqarorligini, go'zal va badiiy mukammalligini ta'minlovchi, uning mavjudlik mohiyatini belgilovchi asosiy manba bo'lgan so'z va tilning mas'uliyatini oshirishga e'tibor qaratish. Zero, so'z va til - madaniyatdir. Shu madaniyat yordamida kishilar biri-ikkinchisi bilan aloqa qiladi, muloqotda bo'lishadi, til tufayli inson amaliy faoliyati ma'lum maqsad tomon yo'naltiriladi. Ular moddiy va ma'naviy madaniyat vujudga kelishida ham ulkan ahamiyatga egadir.

“Bolalarni shunday tarbiya qilish kerakki, baxtga bo'lgan intilishlari hech qachon xazon bo'lmasin, so'nmasin, balki ko'karsin, - deb ko'rsatgan edi professor Abdurauf Fitrat o'zining «Axloqiy tarbiya» kitobida, bolaning baxt mayliga doir qarashlarida, - Boladan biror yaxshi ish sodir bo'lsa, uni maqtashlari, maqtab mukofot berishlari yaxshi. Agarda farzand yomon ish qilsa, shu

qilmishining qabohati va alamini tushuntirish lozim, toki u bu ishdan nafratlanib, o'zini keyingi safar tiysin". "Faoliyat mayli" borasida esa, "Bolaning izzat nafsini so'ndirmay, uni rivojlantirish kerak. Bolaga «ahmoq», «eshshak»... deb haqoratlamaslik, odamlar orasida so'kmaslik kerak. Bola bunda tahqirlangan hisoblanib, o'ziga mehr va ishonchini yo'qotadi... Uchta odam oldida so'zlolmaymiz, da'vomiz isbotida ojiz qolasiz... Bularning sababi bolalarimiz ota-ona, muallimlarimizdan haqorat eshitib, tahqir ko'rganimizdir" degan edi. Bu fikr o'sha davr sharoitidan kelib chiqqan holda, aytilgan haq gap. Zero, eski maktablarning tartibi kaltak, so'kish va haqoratga izn bergan edi.

Xalqimizda bolalarni faqat ota-onagina emas, balki qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, mahalla-kuy ham tarbiyalaydi, degan gap bor. Yoshlarning axloqiy qiyofasi shakllanishiga hamma davrda ham atrof-muhit katta ta'sir ko'rsatib kelgan. Kattadir, kichikdir uchrashganlarida bir-birlariga salom berib, hol-ahvol so'rashi ham yuksak axloqiy fazilat hisoblangan. Qo'ni-qo'shnilarning uyida biror marosim bo'lganida, yoshlarning o'zlari chiqib ko'maklashishi ham milliy tarbiya natijasidir. Qizlar ibo, andisha, kamtarlik, sharmu-hayo, or-nomus nima ekanini kitoblardan o'qib emas, balki birinchi navbatda, ota-onadan, qo'ni-qo'shnidan o'rganganlar.

Endilikda davr, zamon, sharoit o'zgardi va o'zgarimoqda. Bizlar muomalada ajdodlarimizning yaxshi an'analarini davom ettirishimiz, ularning go'zal amallarini zamonaviy talablarda o'zlashtirishimiz lozim.

## MUOMALA MADANIYATIGA DOIR HIKMAT DURDONALARI

O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin.

**Islom Karimov**

Foydasiz tortishuvlardan inson o'zini tiyishi kerak. Bu tortishuvlar ulug'larni g'azabga keltirsa, kichiklarinng xulqini buzadi.

**Ahmad Yugnakiy**

Har narsaning o'lchovi, har ishning o'ziga yarasha odobi bo'lganga o'xshash, so'zning ham o'lchovi, odobi bordur. So'zga yolg'on qo'shmak, kishini aybini so'zlamak, kishining nomusiga tegadigan so'zlar so'zlamak, shunga o'xshash, yaramas so'zlarning zarari tegmasdan qolmas.

**Qori Nizomiddin bin Mulla Hasan**

Tillar qanchalik g'oyalar bilan boyigan bo'lsa, zarur so'zlar bilan ham shu darajada boyigan bo'ladi.

**J. Bernarden**

Til madaniyat bilan birgalikda yuksaladi.

**N. Karamzin**

Kishilarga ulardan avvalroq salom berishga shoshil, bu ulug' kishilarning fazilatlaridan bo'lib, kamtarinlik natijasidir.

**Muhammad Husayn**

Har kim insonlar bilan muomala etarkan — ularga zulm etmasa, ular bilan hamkorlik qilarkan, yolg'on so'zlamasa, ularga bergan va'dasini o'rniga keltirar bo'lsa, muruvvati mukammal, adolati ochiq, do'stligi vojib bo'lur.

**Muhammad (s.a.v.)**

Fikringizga ehtiyot bo'ling — ular qilmishlaringiz ibtidosidir.

**Lao Szi**

Tinglash va sukut saqlash seni donolikka yetaklaydi. Sukut – donolikning boshlanishi.

**Pifagor**

Ba'zilar bir umr so'zlaydilar-u, hech narsa ayolmaydilar. Ba'zilar esa bir umr sukutda bo'ladilar-u, ammo aytilmagan so'z qolmaydi.

**Chjuan Szi.**

So'zamollik – aqlga sayqal beruvchi nur.

**Sitseron Mark Tulliy**

Hech bir aytilgan so'z aytilmay qolgan so'zchalik foyda keltirmagan.

**Plutarx**

Fuqarolar bilan muloqot usullari va ularga ta'sir o'tkazish yo'llari sodda va tushunarli bo'lmog'i lozim.

**Forobiy**

Yovuzlik hukmron bo'lgan saroyning qonuni shunday: yo sen egarda o'ltirursan, yo senga egar o'rnaturlar.

**Firdavsiy**

Hakimning uch quroli bor: so'z, giyoh va tig'.

**Ibn Sino**

Haqiqat va yolg'on aslida narsalarning emas, so'zning mohiyatiga xos xususiyatlardir. So'z yo'q joyda haqiqat ham, yolg'on ham bo'lmaydi.

**Tomas Gobbs**

Hech qachon o'z haqingda gapirma! Chunki yo o'zingni maqtash yohud yomonlashga to'g'ri keladi. O'zi haqida so'zlamollik, aqlga qarshi ish tutmoqlikdir. Bundan tashqari, sen tinglovchini ham zeriktirib qo'yasan.

**Baltasar**

Asl notiqlik barcha kerakli narsalarni me'yori bilan ayta olish san'atidir.

**Fransua de Laroshfuka**

Agar hikmatli so'zda izohga muhtojlik sezilsa, demak bu so'z tobiga yetmagan.

**Vovenarg Lyuk de Klape**

Mutolaa – kallang o'rniga boshqaning kallasi bilan o'yilamoq demakdir.

**Artur Shopenxauer**

Soʻz buyuk narsa. Shuning uchun ham buyukki, soʻz bilan odamlarni birlashtirish, soʻz orqali ularni bir-birlari bilan yuz koʻrmas qilib yuborish mumkin. Soʻz bilan mehr qozonish, soʻz bilan nafrat va adovatga yoʻliqish mumkin. Odamlarni bir-biridan ajratadigan soʻzni aytishdan saqlan!

**Lev Tolstoy**

Soʻzni koʻngilda pishqormaguncha tilga kelturma,  
Har nekim koʻngilda bor tilga surma.

**Alisher Navoiy**

Soʻz aytishdan avval, har daqiqada soʻz ortidan keladigan oqibatni oʻyla

**I.P.Pavlov**

Tilingdan chiqqan sadaqa (yaʼni, pandu-nasihating va mavizayu hasanang) baʼzan qoʻlingdan (mol-dunyodan) chiqqan sadaqangdan koʻra xayrliroqdir.

**Mahmud az-Zamaxshariy**

Yaxshi odam yuragining yaxshilik xazinasidan yaxshilik chiqarur. Yomon odam yuragining yomonlik xazinasidan yomonlik chiqarur. «Men sizga deymanki: insonlar aytadigan har bir bekor soʻzi uchun qiyomat kunida hisob beradilar. Sen oʻz soʻzlaring asosida yo oqlanasan, yoki ayblanasan.

**Injildan**

Qulim meni qanday tanisa, uning-la shunday muomala qilaman.

**Hadisdan**

Nodonning nodonligini ikki xislat aytib turadi: birinchidan, gapi tuturuqsiz, ikkinchidan, javobi poyma-poy boʻladi.

**Aflotun**

Qay bir soʻzniki bilsang joyini oʻtkarmay aytgʻil, vaqtni zoe qilmagʻil, yoʻq ersa donishga sitam qilgʻon boʻlgʻaysan. Har soʻz desang rost degʻil va bemaʼnilikni daʼvo qilgʻuvchi boʻlmagʻil.

**Abu Homid Muhammad al-Gʻazzoliy**

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Karimov I.A.* Asarlar. 1-13 tom. T.: O'zbekiston, 1996-2006.
- Abdulla Avloniy.* Tanlangan asarlar. 2-tom. T.: Ma'naviyat, 1998.
- Abdulla Sher.* Axloqshunoslik. O'quv qo'llanma. T.: Yangi asr avlodi, 2003.
- Abdurauf Fitrat.* Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. T.: Ma'naviyat, 1998.
- Abu Nasr Forobiy.* Fazilat, baxt, saodat va kamolot haqida. T.: Yozuvchi, 2002.
- Агсроньян А.С.* Культура поведения. T.: Узбекистан, 1979.
- Ahmadjon Bobomurod.* Kamolot sari. T.: Cho'lpon, 2000.
- Bekmirzayev Norqul.* Notiqlik asoslari. T.: Fan, 2006.
- Голубь И.В., Розенталь Д.Е.* Секреты хорошей речи. М.: Между-народные отношения, 1993.
- Donolar* hazinasidan. T.: O'qituvchi, 1999.
- Jubron Xalil.* Donishmand hikmatlari. T.: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati, 2006.
- Jumaniyozov R.* Nutqiy mahorat. T.: Adolat, 2005.
- Ibratli hikmatlar.* T.: O'zbekiston, 2006.
- Интерактивные методы обучения и навыки презентации.* T., 2007.
- Kaykovus.* Qobusnoma. T.: Istiqlol, 1994.
- Karimova F.* Nutqiy mulohazada so'zlovchi va tinglovchi munosabati maqolasidan.
- Кузин Ф.А.* Культура делового общения. М.: Ос-89, 1996.
- Луис Д.* Язык эффективного общения. М.: Ид-во «Эксмо», 2005.
- Mahmudov Ravshanbek.* Degonimni ulusqa marg'ub et. T.: O'zbekiston, 1992.
- Musulmonnoma.* T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1992.
- Ma'naviy kamolot omillari.* T.: Universitet, 1995.
- Mavlono Jaloliddin Rumiy.* Ichindagi ichingdadir. Falsafiy asar. T.: Yozuvchi, 1997.
- Махмудов Т.* Эстетика и духовные ценности. T.: Главная редак-ция издательско-полиграфического концерна «Шарк», 1993.
- Mahmudov Karim.* Mehmonnoma. T.: «Yosh gvardiya» nashriyoti, 1989.
- Mahmudov Ravshanbek.* Degonimni ulusqa marg'ub et. T.: O'zbekiston, 1992.

- Mahmud Sattor*. O‘zbek udumlari. T.: Adolat, 2004.
- Normatov Umarali*. Tafakkur yog‘dusi (adabiy-tanqidiy esselar). T. 2005.
- Olimat ul – Banot. Muosharat odobi. T.: Mehnat, 1991.
- Rustamova M.* Yoshlarda yangicha tafakkur madaniyatini shakllantirishning falsafiy jihatlarini. T.: Mehnat, 2000. 19 b.
- Сафаров P.* Культура поведения. T.: Главная редакция издательско-полиграфического концерна «Шарк», 1998.
- Sa‘diy Sheroziy*. Guliston. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
- Сонер П.* Основы искусства речи. M.: Прогресс; Прогресс-академия, 1992.
- Sodiqova Nafisa*. O‘zbek milliy kiyimlari. XIX – XX asarlar. T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.
- Falsafa asoslari. T.: «O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.
- Xolmurodova F.* So‘zlashuv madaniyati maqolasidan.
- Чалдини P.* Влияние: Психология убеждения. Мн. Поппури, 2006.
- Chen Chjan*. Muvoffaqiyatga eltuvchi muomala san‘ati. T.: Yangi asr avlodi, 2006.
- Choriyev A.* Inson falsafasi. T.: Chinor ENK, 1998.
- Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf*. Iymon. T.: «Sharq» nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2006.
- Sharafiddinov Ozod*. Ijodni anglash baxti. T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2000.
- Шепель В.* Секреты личного обаяния. M.: Культура и спорт, ЮНИТИ, 1994.
- Yusuf Tovasliy*. Hikmatlar hazinasi. T.: Navro‘z, 1994.
- Yusupov E.* Inson kamolotining ma’naviy asoslari. T.: Yangi asr avlodi, 2001.
- Qur‘oni Karim. T.: Cho‘lpon, 1992 .
- G‘azzoliy*. Oxiratnoma. T.: Yozuvchi, 1994.
- G‘aybulloh as-Salom, Saydi Umr*. Tolibnoma. T.: «Sharq» nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1997.
- Hikmat durdonalari. T.: Mehnat, 1993.
- Hikmatlar hazinasi. T.: Navro‘z, 1994.
- Hoshimov O‘tkir*. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2006.



## MUNDARIJA

<b>Muqaddima</b> .....	3
------------------------	---

### **1-BOB. MUOMALA MADANIYATI JAMIYAT TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI SIFATIDA**

1.1. Muomalaning ilmiy-tadqiqot obekti .....	7
1.2. Muomala madaniyatining asosiy tushunchalari va tuzilishi .....	14

### **2-BOB. MUOMALA MADANIYATI VA INSON FE'L-ATVORI**

2.1. Axloqiy me'yorlar muomala madaniyatining asosi sifatida .....	23
2.2. Muomalada yuzaga keladigan ziddiyatlar va inson fe'l-atvori .....	25

### **3-BOB. MUOMALA MADANIYATINING DINIY-AXLOQIY ASOSLARI**

3.1. Budda va xristianlik dinida muomala madaniyatining xususiyatlari .....	41
3.2. Qur'on va Hadis musulmon muomala madaniyatining diniy-axloqiy asosi sifatida .....	45

### **4-BOB. SHAXS KAMOLOTINING AXLOQIY VA ESTETIK XUSUSIYATLARI**

4.1. Axloqiy fazilat va xulqiy go'zallik muomala madaniyatining muhim omili sifatida .....	53
4.2. Shaxs kamolotida qalb go'zalligi va tashqi chiroy uyg'unligi .....	65

### **5-BOB. MUOMALA MADANIYATINING MILLIY XUSUSIYATLARI**

5.1. So'zlashuv madaniyatining milliy xususiyatlari .....	76
5.2. Turmush tarzi madaniyatining milliy xususiyatlari .....	84

**6-BOB. SHIRIN SO‘Z VA CHIROYLI MUOMALA INSON  
KO‘RKI SIFATIDA**

6.1 Shirinso‘zlik va uning shartlari ..... 92  
6.2. Chiroyli muomalaning qudrati ..... 97

**7-BOB. NUTQ - INSONLARARO MULOQOTDA MUOMALA  
MADANIYATINING MUHIM VOSITASI**

7.1. Yozma nutqda muomala madaniyatining ahamiyati va zaruriyati ..... 103  
7.2. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati ..... 108

**8-BOB. ETIKET – MUOMALA MADANIYATINING  
ZAMONAVIY KO‘RINISHI SIFATIDA**

8.1. Etiket turlari ..... 118  
**Xotima** ..... 144  
**Muomala madaniyatiga doir hikmat dardonalari** ..... 148  
**Foydalanilgan adabiyotlar** ..... 151

HUSANOV BAHODIR, G'ULOMOV VALIJON

**MUOMALA MADANIYATI**

*Darslik*

Muharrir *E.Bozorov*

Texnik muharrir *M.Alimov*

Kompyuterda sahifalovchi *A.Ro'ziyev*

Bosishga ruxsat etildi 09.07.2009. Qog'oz bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
Hisob-nashr tabog'i 9,75. Adadi 1000.  
Buyurtma №22

«Ta'lim nashriyoti» MChJ.  
100060, Toshkent, Ya.G'ulomov ko'chasi, 74-uy

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.  
100084, Toshkent, H.Asomov ko'chasi, 7-uy.  
Hisob-shartnoma №42-2009.

«HUMOYUNBEK - ISTIQLOL MO'JIZASI» bosmaxonasi  
100000, Toshkent, Qori-Niyoziy ko'chasi, 39-uy.

## QAYDLAR UCHUN

